

M.X. BARATOV  
F.A. IBROXIMOV



# OILA HUQUQI

*O'quy qo'llanma*

Chirchiq – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VАЗIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI



M.X. BARATOV  
F.A. IBROXIMOV

## OILA HUQUQI

*O'quv qo'llanma*



Chirchiq – 2023

УДК-347.6  
КБК-67.404  
В-99

**M.X. Baratov, F.A. Ibroximov / Oila huquqi / O'quv qo'llanma.**  
– Chirchiq: «Nazokathon ziyo print», 2023. – 212 bet.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-sonli buyrug'i asosida nashrga tavsiya etilgan.

**Ichki taqrizchi:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti, yu.f.n. A.A. Shamansurov

**Tashqi taqrizchi:** Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Fuqarolik jamiyatni va huquq ta'limi" kafedrasi professori, yu.f.d. (DSc) V.R. Topildiyev

Mazkur Oila huquqi nomli o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi va ular asosida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar, Prezident Farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, rahbariy va ilmiy adabiyotlar asosida yozildi. O'quv qo'llanmada oila huquqining umumiy qismiga oid nazariy muammolar, oila, oila huquqi tushunchasi va predmeti, metodi, oila qonunchiligi tarixi, oilaviy-huquqiy munosabatlari, oila va fuqarolik huquqining nisbati, shuningdek, oila huquqining maxsus qismiga oid asosiy masalalar: nikoh, er vaxotinining huquqiy munosabatlari, ota-onalar va bolalarning huquq va majburiyatlar, aliment majburiyatlar, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish, O'zbekistonda oila huquqi sohasida amalga oshirilgan islohotlar, ularning mazmuni va ahamiyati kabi masalalar yoritilgan.

ISBN 978-9910-780-20-2

© M.X. Baratov, F.A. Ibroximov., 2023 y.  
© «Nazokathon ziyo prints», 2023 y.

MUNDARIJA		
Kirish	4	
I bob.	Oila huquqi tushunchasi. Oila huquqi fanining maqsad va vazifalari. Oila huquqining manbalari	5
II bob.	Oilaviy-huquqiy munosabatlari. Nikohning huquqiy tartibga solinishi	29
III bob.	Er va xotinning oilaviy huquq va majburiyatları	52
IV bob.	Nikoh tugatilishining huquqiy asoslari va tartibi	69
V bob.	Qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash	86
VI bob.	Ota-onas va voyaga yetmagan farzandlarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatları	98
VII bob.	Oila huquqida aliment masalalari. Oila a'zolarining mulkiy huquq va majburiyatları	111
VIII bob.	Ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish	138
IX bob.	Fuqarolik holati dalolatnomalari	161
X bob.	Chet el elementi ishtirokidagi oilaviy huquqiy munosabatlari va ularni tartibga solish	170
	Oraliq nazorat savollari	179
	Yakuniy nazorat savollari	185
	Mustaqil ta'lim topshiriqlari	193
	Glossariy	194
	Adabiyotlar ro'yhati	208

## KIRISH

Mazkur Oila huquqi nomli o'quv qo'llanma Chirchiq davlat pedagogika universiteti kengashi tomonidan 2023-yilda tasdiqlangan dastur(syllabus) asosida yozildi. O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi va ular asosida qabul qilingan normativ aktlar hamda me'yoriy hujjatlar, Prezident Farmon va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, shuningdek, rahbariy va ilmiy adabiyotlar asosida yozildi. Oila masalasiga oid islom huquqi(fiqh)da ifoda etilgan qoidalarga ham alohida e'tibor beriladi, ijtimoiy munosabatlarda oilaviy masalalarni hal etishda hadis ilmining ahamiyati ham ochib beriladi. O'quv qo'llanmada oila huquqining umumiy qismiga oid nazariy muammolar, oila, oila huquqi tushunchasi va predmeti, metodi, oila qonunchiligi tarixi, oilaviy-huquqiy munosabatlar, oila va fuqarolik huquqining nisbati, shuningdek, oila huquqining maxsus qismiga oid asosiy masalalar: nikoh, er va xotinning huquqiy munosabatlari, otanalar va bolalarning huquq va majburiyatlar, aliment majburiyatlar, ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solish, O'zbekistonda oila huquqi sohasida amalga oshirilgan islohotlar va ularning ahamiyati kabi masalalar yoritiladi. Oila huquqining yangi institutlari, xususan, nikoh shartnomasi, aliment kelishivi, sun'iy bolani vujudga kelishi tufayli otalik va onalikni belgilash masalalariga alohida e'tibor beriladi. Umuman, o'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrler, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, shuningdek, sud, prokuratura, FHDYO, advokatlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga, respublika axolisining huquqiy savodxonligi va madaniyatini oshirishga mo'ljallangan.

## I BOB. OILA HUQUQI TUSHUNCHASI, MAQSAD VA VAZIFALARI. OILA HUQUQINING MANBALARI

### Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1.1. Oila va oila huquqi tushunchasi, O'zbekiston huquq tizimida oila huquqi sohasi.
- 1.2. Oila huquqi tamoyillari. Oila huquqi tizimi.
- 1.3. Oila huquqi – maxsus huquqiy fan sifatida.
- 1.4. O'zbekistonda tarixida oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishning ko'rinishlari va fan predmetining dolzarbliligi.
- 1.5. Oila kodeksi va oila huquqining boshqa manbalari.

**Tayanch so'zlar:** oila, uning tarixiy shakllari, oila huquqi, huquq sohasi, maxsus huquqiy fan, fan ahamiyati, oila huquqi manbalari, an'anaviy normalar.

### Oila va oila huquqi tushunchasi, O'zbekiston huquq tizimida oila huquqi sohasi

Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab oilanı mustahkamlash, oilaviy milliy qadriyatlarni tiklash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xususan bu boradagi ishlarning huquqiyasolarini mustahkamlash uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirildi.

Mamlakatning qudrati, jamiyatning farovonligi oilalarning mustahkamligiga bog'liqligini inobatga olingan holda oilaviy munosabatlarni ijtimoiy-huquqiy normalar bilan tartibga solish, oilalarda sog'lom ma'naviy muhit yaratilishi uchun davlat va jamiyat g'amxo'rlik qilmoda.

O'zbekistonda 2023-yilning 1-iyul holatiga Statistika agentligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, respublika bo'yicha doimiy yashovchi aholi soni 36 372,3 ming kishini tashkil etmoqda. Shulardan ayollar 18 066 kishi; erkaklar esa 18 306,3 ming kishi

tashkil qiladi. Har yili 300 mingdan ortiq nikoh rasmiylashtirildi<sup>1</sup>. Jami bugungi kunda O'zbekistonda 9 million oila mavjud<sup>2</sup>.

Mamlakatimizda aholining ko'p qismini bolalar va yoshlar tashkil qiladi. Ijtimoiy muammolar ham shunga ko'ra o'z ifodasini topadi. Respublikamiz Konstitutsiyasi 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidagi va teng huquqligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi"<sup>3</sup>, deb belgilangan. Oilalar tinch-totuv yashasa, jamiyatga keltiradigan ijobiy yutuqlar ko'payadi, farzandlar sog'lom tarbiya oladi. Oilaga esa g'amxo'rlik qilish va unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar-ijtimoiy huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir.

Oila huquqi boshqa huquq sohalari hamda barcha huquqiy va gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki oila a'zosi jamiyatimizning barcha sohalarida mehnat qiladi. Oilada farzand tarbiyalanadi, jamiyatga kerakli shaxs bo'lib yetilishida oilaning o'rni juda kattadir.

Davlat va huquq nazariyasi fani oila huquqining umumiy tushunchalarini, maqsadini izohlab beradi, huquq va huquqiy hodisalar haqida umumiy tushunchalarni shakllanishiga ko'maklashadi.

Konstitutsiyaviy huquq inson huquqlari, burchlari, ularning kafolati masalalarini, oila davlat himoyasida ekanligini, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning asosini tasdiqlab beradi. Konstitutsiyaviy huquq jamiyatda oilaviy munosabatlar qurilishining bosh va asosiy qoidalarni o'z ichiga oladi (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 76-modda).

Mehnat huquqi onalik va bolalikni himoya qilish, ko'p bolali oilalarni ijtimoiy himoya qilish, voyaga yetmaganlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish masalalarini yoritishda oila huquqi, oila munosabatlaridan kelib chiqqan holda ish tutadi.

<sup>1</sup>Stat.uz

<sup>2</sup>Aniq.uz

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. URL.: <https://lxx.uz/docs/-6445145>.

Ijtimoiy ta'minot huquqi ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan jamiyat a'zolari, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini o'rganadi hamda rivojlantirishga doir tavsiyalarni ishlab chiqadi.

Fuqarolik huquqi oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilishda qo'llaniladi. Oila va fuqarolik huquqi meyorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nisbati yuqori darajadadir. Shu bois ko'plab mamlakatlar huquq tizimida Oila huquqi alohida soha emas, balki Fuqarolik huquqining bir qismi tarzida anglashiladi. Ma'muriy huquqda ham ma'muriy tartibbuzarliklar, ma'muriy javobgarlikka tortish shaxslarga, oila a'zolariga nisbatan qo'llanadi. Masalan, oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va tugatilishi asoslari sifatida boshqaruv organlari aktlari (farzandlikka olish, vasiylilik va homiylikni belgilash va boshqalar)ni ifodalaydi.

Jinoyat huquqida oiladagi tarbiyaga bog'liq muhim masala o'z ifodasini topadi. Jinoyatchi bizning jamiyatimizda nega vujudga keladi? Qaysi sharoitda, qanday oilada u shakllanadi, tarbiyalanadi, degan savollarning yechimini topish uchun oila, undagi muhit o'z ijobjiy yoki salbiy o'rnini ko'rsatadi. Undan tashqari, nikoh tuzishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni yashirganlik uchun, farzandlikka olish siri va hokazolar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishni nazarda tutadi. Demak, oiladagi tarbiya masalasi, jamiyatdagi qonunga rioya qilish, qonun doirasida ish tutish masalalariga e'tibor berish – mamlakatda olib borilayotgan huquqiy tarbiya siyosatining asosini tashkil qilishini unutmashlik talab qilinadi.

Lekin yuqorida ko'rsatilgan bog'liqliklar oila huquqini boshqa huquq sohalari bilan birlashib ketishiga olib kelmaydi. Bu holat oila qonunchiligidagi faqat oila huquqi normalari emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan boshqa huquq sohalari normalarining mavjud bo'lishida ham ifodalanishini ko'rsatadi.

### Oila huquqi tamoyillari. Oila huquqi tizimi

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 1-moddasiga binoanoila to'g'risidagi qonun hujjalarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ◆ oilani mustahkamlashdan;
- ◆ oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining ma'sulligi hissi assosida qurishdan
- ◆ biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlash.

Oila huquqi mohiyatini ochib berishda uning tushunchasi, predmetining o'ziga xos xususiyati bilan birga uning eng muhim prinsip-tamoyillarini ham inobatga olish lozim. Oila huquqi tamoyillari deganda, ushbu huquq sohasining mohiyatini aniqlab beradigan hamda huquqiy mustahkamlanganligi sababli umummajburiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy negiz, rahbariy qoidalar tushuniladi.

**Oila huquqining asosiy tamoyillari** quyidagilardan iboratdir:

#### **1. Oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi**

Bu tamoyil mamlakatimiz Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan qoidaga asoslanadi. Unga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Oila jamiyat muhofazasida bo'lish huquqiga ega, deyilganda, mamlakatda mavjud bo'lgan jamiyatlar va jamg'armalar tomonidan nodavlat-notijorat tashkilotlarning oilaga ham moddiy, ham ma'naviy yordam berishi tushuniladi. Bu qoida mustaqil mamlakatimiz Konstitutsiyasida ilk bor belgilangan qoidadir.

O'zbekistonda jamoat tashkilotlari har xil jamg'armalar hisobidan oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish uchun turli moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatib kelmoqda. Mamlakatdagi jamoat tashkilotlari tarkibiga kasaba uyushmalari, jamg'armalar, yoshlar va xotin-qizlar harakatlari, kasbiy assotsiatsiyalar, klublar va boshqalar kiradi. Davlat tomonidan

ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining qo'llab-quvvatlanishi, Onalar va bolalar sog'lig'i masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganligi bunga misol bo'la oladi. Qolaversa, milliy qadriyatlarimizga tayangan holda oila qonunchiligi ham bevosita oilalarni mustahkamlashga qaratilgan. Xususan, aksariyat chet el oila huquq normalaridan farqli tarzda bizning mamlakatimizda ishni ajrimga ariza tipshirganlarning ishi "yarashtirish uchun" muayyan vaqt albatta beriladi, hech qachon mavjud hujjat - dalillarga asoslanib tez hal qilinmaydi.

#### **2. Barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglidi**

Oila huquqida barcha fuqarolar millati, irqidan qat'i nazar teng ekanligi ifodalangan. Konstitutsiyaning 19-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bu xalqlar do'st va birodarligini ifodalovchi o'zgarmas qolda bo'lib, uning oila huquqida aks etishi odamlarning turli millatlarga tegishliligi yoki irqqa mansubligi oilaviy munosabatlarda hech qanday ahamiyatga ega emasligini anglatadi.

#### **Hamma oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkak teng huquqliligi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasiga binoan "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi". Bu prinsip Oila kodeksining 2-moddasida quyidagicha ifodalangan: oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga

layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

#### **4. Oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma'nnaviy va moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'zaro bir-biriga g'amxo'rlik qilishi**

Bu tamoyil oilaviy munosabatlarda er-xotin moddiy munosabatlardan qat'i nazar bir-biriga mexr-muhabbat, hurmat kabi hissiyotlarga asoslanib yashashlari nazarda tutiladi.

Er va xotin, ota-onva bolalar, bobo-buvi va nabiralar, aka-ukalar va opa-singillar, farzandlikka olganlar va hokazolar o'rtasidagi munosabatlар, avvalo, nikoh, qon-qarindoshlik yoki oilaviy rishtalar bilan bog'liq bo'lgan shaxslar o'rtasidagi shaxsий munosabatlardir.

Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi shu tamoyillarga tayanadi va ularga to'la mos keladi. Oila a'zolarining o'z yaqinlariga g'amxo'rlik qilishi qonun asosida belgilangan. Masalan, Oila kodeksining 109-moddasining birinchi qismiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shart. Bu qoida Bosh qomusimizning 80-moddasida mustahkamlab qo'yilgan.

#### **5. Davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikni muhofaza etish va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qilishi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-moddasasi va Oila kodeksi 4-moddasining birinchi qismiga binoan oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. Har bir inson oilali bo'lismi xohlaydi va buni baxt deb biladi. U muomala layoqatiga to'liq ega bo'lgach, mustaqil ravishda o'z oilaviy munosabatlariga kirishga haqli.

Onalik jamiyat hayotidagi eng muhim ish. Onalikni boshqa hech bir vazifa bilan almashtirilishi mumkin emas. Ayol, ona uchun farzandlik bo'lisdan ustun bo'ladigan biror-bir baxt yo'q. Oilada farzand tug'ilishini otasiz tassavur qilib bo'lmaydi. To'liq oila, baxtli oila, deb ota-onasi bor, farzandlari to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan jamoa tushuniladi. Shuning uchun qonunda "ona" so'zining yonida "ota", "otalik" so'zlari ishlataladi. Dinimizda ham farzand tarbiyasi

eng muhim ish sifatida ko'p bora uqtiriladi. Ana shulardan kelib chiqqan holda davlat ijtimoiy hayotning barcha sohasida onalarni muhofaza qilishni ta'minlaydi.

Oilani farzandsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bola oila quvonchi, vorisi, er-xotinni bir-biriga payvand qiladi. Mamlakatimiz ahollisining yarmidan ko'prog'ini 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalar tashkil etadi. Respublikada bolalar huquqlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan. Bunga misol qilib, "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensianing birinchilardan bo'lib ratifikatsiya qilinishi, 2007-yil "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilinishi, 1998-yilning "Oila yili", 1999-yilning "Ayollar yili", 2000-yilning "Sog'lom avlod yili", 2001-yilning "Onalar va bolalar yili", 2010-yilning "Barkamol avlod yili", 2014-yilning "Sog'lom bola yili", 2016-yilning "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinishi hamda maxsus davlat dasturlari bilan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilganligini ko'rsatish mumkin.

#### **6. Ixtiyoriy va erkin nikoh tamoyili**

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasi qoidalariga, shuningdek Oila kodeksining 14-moddasiga muvofiq, nikoh tuzish ixtiyoriydir. Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziligini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish ta'qil qilinadi. Nikoh tuzishning muhim shartlaridan biri-nikohlanuvchilarining ixtiyoriy va erkin ittifoqidir. Birovni majburlab uylantirish yoki erga berish, bu inson huquqini poymol qilishdir.

Nikohga kirishning o'zaro rozilik sharti buzilishi faqat uning haqiqiy emas, deb topilishigagina emas, balki g'ayriqonuniy xattiharakat sodir etib, nikohga kirishga zo'rلان, aldagani va qo'rqtigan shaxslarni jinoi javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi.

#### **7. Faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish tamoyili**

O'zbekiston mustaqillikka ega bo'lgach umumjahon inson huquqlarini himoya qilish hujjatlarining deyarli barchasini ratifikatsiya qilib, o'z ijobjiy munosabatlarini bildirdi. Ular qatorida, ayol huquqi, oiladagi teng huquqlilik ham o'z ifodasini topgan. Yakka nikoh oiladagi birdamlilikning, ishonchning, farzand tarbiyasidagi

ma'suliyatning garovidir. Shuning uchun O'zbekistonda yakka nikoh qonun asosida o'rnatilgan. Ochiqadolatli huquqiy jamiyatda fuqaro faqat bir nikohda bo'lishi mumkin. Yakka nikohlilik tamoyili bizning mamlakatda mavjud bo'lgan yuksak istiqlol mafkurasi me'yorlaridan kelib chiqadi. Bunday qoida jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi oila munosabatlarining talablariga to'la javob beradi. Amaldagi qonunda belgilangan yakka nikohlilik hayotda mavjud bo'lgan haqiqat bilan muvofiq bo'lib odamlar xulq-atvoridagi qoidalarga mos keladi.

Bu qoidaning buzilishi nikohni haqiqiy emas, deb hisoblashdan tashqari qonunni buzgan shaxslami jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi(O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, 126-modda bilan sodir etilishi taqiqlangan).

#### **8. Davlat tartibi asosida nikohdan erkin ajralish prinsipi**

Davlat nazorati asosida nikohdan erkin ajralish prinsipi Oila kodeksining 37-moddasida nazarda tutilgan. Nikohdan ajralish er-xotinning shaxsiy huquqi. Lekin nikohdan ajralish ijtimoiy manfaatlarga ham ta'sir etishini, ijtimoiy qadriyatlarning buzilishini hisobga olib, davlat nikohdan ajralish tartibi va asoslarini belgilaydi. Masalan, er-xotinning ajralish uchun bergen arizalari ishni to'liq o'rganib chiqish, yarashish uchun muayyan muddat berish, mahallalardagi yarashtiruv komissiyalariga xat yuborish, ularning er-xotinni yarashtirishga harakat qilishi, agar yarashtirish mumkin bo'limgandagina, sud tartibida(ma'lum hollarda FHDYo organlarida) nikoh tugatilganligini qayd etish tartibi belgilangan. Bunda tomonlarga yordam berib, shoshqaloqlik bilan, o'ylanmasdan qabul qilingan qarorning oldini olishni nazarda tutadi.

Amaldagi qonunchilik nikohdan erkin ajralish davlat tartibini belgilab yetarli darajada shaxsiy va ijtimoiy manfaatlami himoya qilishni ta'minlaydi.

#### **9. Bolalarni milliy-an'anaviyqadriyatlar asosida tarbiyalash tamoyili**

Milliy qadriyatlarga sodiq insonlardan tashkil topgan jamiyatni hech kim va hech qanday kuch yenga olmaydi. Faqat ularning ana shu qadriyatlarini, ularga sodiqlik tuyg'usini sindiribgina o'z maqsadiga erishishi mumkin. Buni tarix ko'p bora isbotlagan. Biz o'z mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti hamda

jalqimizning farovon kelajagiga erishish uchun qadriyatlarga sodiq bo'lismi har bir yosh avlod qalbiga singdirishimiz darkor. Oila huquqi nafaqat huquqiy fanlar, qolaversa bu prinsepdan kelib chiqqan holda ijtimoiy-ma'naviy fan yutuqlari va muammolari bilan ham hisoblashishga majbur.

Farzandlar o'z taraqqiyot yo'llarini, maqsadlarini milliy qadriyatlar orqali belgilab olishga intilishlariga erishish zarur. Oila esa mafkuraviy tarbiyaning eng muhim tayanchlaridan biridir. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar axloq-odob va huquqiy qoidalar bilan tartibga solinsa, ajrim, bolalar ota-onasiz qolishning oldi olingen bo'lar edi. Agar buning aksi bo'lsa, nikoh sun'iy, yoki FHDYoda rasmiylashtirilmagan, qonunga xilof ish tutilgan bo'lsa, bunda qarindoshlar, farzandlar, umuman jamiyatga putur yetkaziladi. Ana shu sabablarni e'tiborga olgan holda, oila huquqi nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-on a qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Oila huquqi tizimi qonunchilikda, avvalo, oila kodeksida, oilaviy munosabatlarga taalluqli boshqa huquqiy xarakterdag'i aktlarda o'z ifodasini topadi.

#### **Oila huquqi tizimi umumiylari va maxsus qismlarni o'z ichiga oladi.**

**Umumiylari**- oila huquqining maxsus qismidagi oilaviy munosabatlarning barchasiga tegishli bo'lgan umumiylari me'yoriy qoidalarlardan iborat. Bunda, oila huquqining asosiy qoidalari va vazifalari; oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar doirasi; bu munosabatlarning subyektlari va obyektlari; oila huquqi manbalari vazifasini o'tovchi normativ-huquqiy hujjatlar; oilaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarining qo'llanilish asoslari va tartibi; oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanilishi (Oila kodeksining 1-9-moddalari) kabilalar kiradi.

Umumiylari qismida oilaviy huquqlarni amalgalashish va oilaviy majburiyatlarini bajarish shartlari, oilaviy huquqlarni himoya qilish tartibi va muddatlarini o'rnatuvchi meyorlar (Oila kodeksining 10-11-moddalari) o'z ifodasini topgan.

**Maxsus qism-** bir necha huquqiy institatlardan tashkil topgan bo'lib, bu institatlarning har biri ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Ular quyidagilardan iborat:

- nikoh, tuzish shartlari va tartibi, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi;
- er va xotinning huquq va majburiyatlar;
- ota-onalarning huquq va majburiyatlar;
- oila a'zolarining aliment majburiyatlar;
- ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalash shakllari;
- oila qonunchiligin chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo'llash.

### Oila huquqi – maxsus huquqiy fan sifatida

Ma'lumki huquqshunos olimlar tomonidan huquqiy fanlar quyidagi guruhlarga taqsimlanadi:

1. Tarixiy-nazariy, huquqiy fanlar: Davlat va huquq nazariyasi, siyosiy huquqiy ta'lilotlar, davlat va huquq tarixi va h.k.

2. Maxsus huquqiy fanlar: Konstitutsiyaviy huquq, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi va h.k.

3. Amaliy huquqiy fanlar: Sud buxgalteriyasi, sud psixiatriyasi, dakteleskopiya va h.k.

4. Xalqaro-huquqiy fanlar: xalqaro xususiy huquq va h.k.

Oila huquqi fan sifatida bu tasnifning maxsus huquqiy fanlar guruhiga mansub hisoblanadi.

Har bir fanning o'z predmeti bo'lganidek Oila huquqi fani ham o'z predmetiga ega. Oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlari – oila huquqi predmetidir. Oila huquqi predmeti doirasiga kiradigan munosabatlarni tartibga soluvchi vositalar, usul va uslublar majmui – oila huquqi metodidir.

Oila huquqi munosabatiga kiradigan uning predmeti O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 5-moddasida berilgan. Unga ko'ra, oila to'g'risidagi qonun hujjatlari nikoh tuzish, nikohning tugatilishi va uni haqiqiy emas deb topish shartlari va tartibini belgilaydi. Oila a'zolari: er-xotin, ota-onalarning farzandlikka

oluvchilar va farzandlikka olinganlar) o'rtasidagi, oila to'g'risidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda esa qarindoshlar hamda o'zga shaxslar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni, shuningdek ota-onalarning qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni olish kabi masalalarni tartibga soladi.

Oila qonunchiligi oila huquqi predmetini tashkil qiladigan munosabatlarni ifodalashda ikki mezon, o'lchovdan foydalanilgan. **Birinchidan**, qonun oila huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabat ishtirokchilari doirasini belgilaydi: bular oila a'zolari, oila to'g'risidagi qonun hujjatlarda nazarda tutilgan hollarda va doirada boshqa qarindoshlar va shaxslar. Ammo bu ko'rsatilgan mezon-o'lchovlar yetarli hisoblanmaydi. Oila a'zolari o'rtasida o'zining yuridik tabiatiga ko'ra juda ko'p va har xil munosabatlar vujudga kelishi mumkin. Bu munosabatlar ma'muriy huquqiy, mehnat huquqiy va boshqa huquqiy munosabatlar bo'lishi mumkin.

Bu munosabatlar qonun birinchi mezon-o'lchovidan foydalanish bilan bir vaqtida **ikkinci mezon** – o'lchovi ham belgilangan, ya'ni oila huquqi qonunchiligi faqat oila a'zolari o'rtasida vujudga keladigan shaxsiy nomulkiy va mulkiy xarakterdagi munosabatlarnigina tartibga soladi. Ammo oila huquqi predmetini belgilash uchun bu mezon yetarli hisoblanmaydi. Masalan, bir oilada yashab turgan opa-singil, aka-ukalar o'rtasidagi qarz shartnomasi tuzilishida oila a'zolari o'rtasida mulkiy munosabatlar vujudga keladi. Bu huquqiy munosabatlar oila qonunchiligi bilan emas, balki fuqarolik qonunchiligin shartnomasi munosabatlarini tartibga solish asosida hal qilinadi.

Oila huquqining predmetiga qarindoshlarning bir-biriga nisbatan munosabatlari, ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini ham kiradi. Oila huquqining predmetiga yana oila a'zolarining ishtirok etishi bilan vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar ham kiradi. Ularning o'rtasidagi nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish, homiylik va vasiylik munosabatlari ham oila huquqi bilan tartibga solinadi. Masalan, Oila kodeksining 73-moddasi bolani tarbiyalash, unga ta'lim berishga bo'lgan huquqi ota-onanining boshqa shaxslar o'rtasida vujudga keladigan mutloq munosabatdan, ya'ni hech kim tomonidan bolaga berilayotgan tarbiyaga aralashmaslik, unga

xalaqit bermaslik kabi shaxsiy huquqini amalga oshirishga ijozat beradi.

### O'zbekiston tarixida oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalari va fan predmetining dolzarbliligi

Oilaviy munosabatlarga juda qadimdan boshlab Sharq xalqlarida katta ahamiyat berilgan. Zardushtiylikda oilaviy burch va farzand tarbiyasi alohida o'rinn tutgan. "Avesto" tadqiqotchisi H.Homidov o'sha davrdagi oilalar to'g'risida shunday deb yozadi: "Erkak surriyot qoldirish qobiliyatiga ega bo'lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg'a bosishar yoki beliga zanjir bog'lab yurishga majbur qilishardi. Ba'zan bunday erkakni qopga solishib kaltaklashgan. "Avesto"da qarindoshlarning o'zaro oila qurishi qat'iy man etilgan. Qavm va urug' qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo'la ikki-uch farzand dunyoga keltirgan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi".

Patriarxal oila Markaziy Osiyo xalqlarida oilaning eng dastlabki tarixiy shakli hisoblangan. Bu oila ayni zamonda jamiyatning asosiy ishlab chiqarish jamoasi ham bo'lgan. Shuning uchun oilaviy munosabatlarga, har bir oila a'zolarining xattiharakatlariga alohida e'tibor berilgan. Markaziy Osiyoda patriarchal oila eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda vujudga kelgan. Asta-sekin o'sha davrlarda kichik-kichik oilalar vujudga kela boshlagan. Kichik oilalar vujudga kelishi bilan nikohning shart-sharoitlari ham o'zgarib borgan.

Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib, er-xotin, ota-onasi va farzandlar orasida axloqiy, huquqiy majburiyatlarni mustahkamlaydi.

Nikoh (arabcha - qo'shilish) so'zi o'zbek tiliga arablardan kirib kelgan. Qo'shilish ma'nosiga sharh beradigan bo'lsak, nikoh natijasida oilalar o'rtasida qarindoshliklar o'rnatiladi, degan ma'noni ifodalaydi. Oila a'zolari to'ldirib boriladi. Bunga sabab birinchidan, yangi oilalarda farzandlar tug'ilishi bo'lsa, ikkinchidan,

nikoh sababli qarindoshlik vujudga kelishidir. Quda-andalar ham bir-birlariga yaqin insonlar bo'lib qoladi.

Bizning yurtimizda azaldan oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalariga katta e'tibor berilib kelingan. Umuman olganda, Markaziy Osiyoda ayollarga qadimdan katta hurmat bilan qaralgan. Ayollar jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanishgan. Gerodotning "Tarix" nomli asarida vatanparvar ayol To'maris haqida keltirilgan tarixiy ma'lumot bunga yorqin misol bo'la oladi. Turon aholisi To'maris boshchiligidagi bosqinchi Kayxusrav armiyasiga zarba beradi.

Boshqa bir qadimgi yunon tarixchisi - Elion qoldirgan ma'lumotga ko'ra, Markaziy Osiyodagi yirik qabilalardan biri bo'lgan saklarning odatlari bo'yicha uylanishni istagan har bir yigit o'zi uylanmoqchi bo'lgan qiz bilan yer osti uyida kurash tushishi shart bo'lgan. Bu kurashda g'alaba qilgan taqdirdagina uylanish huquqiga ega bo'lgan. Demak, bu yerda kurash o'ziga xos tarzda nikoh vazifasini bajargan.

Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur dostonlari - "O'g'uznomalar", "Alpomish" va "Manas"larda nikoh bilan bog'liq odatlarda, yigitning jismoniy qobiliyatlariga va uni sinab ko'rishga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning qizga munosibligi yoki munosib emasligini aniqlash uchun talabgorlarning o'zaro ot poygasi, kamonda nishonni urishi, uzoqqa o'q uzishi, kurash kabi raqobatchilik shakllaridan ham foydalanilgan. Shuningdek bu tanlov "Qiz quvlash". "Tortishmachoq" kabilarda ham o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki bugungi kungacha nikohiy munosabatlarda ayrim udumlarimiz hanuz saqlanib qolgan. Bunga misol qilib sovchiliklarga borish, unashtirish, tanishtirish marosimlari, to'y-tantana, challov udumlarini ko'rsatish mumkin. Jamiyatimiz rivojlangan sari udumlarimiz ham takomillashib bormoqda.

Oila sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan kelajak egalari, mamlakat xalqi har tomonlama yetuk vatanparvar inson bo'lib yetishadi. Buning uchun albatta oilaviy munosabatlari sog'lom milliy qadriyatlar asosiga tayanmog'i lozim bo'ladi. Oila huquqi fanining predmeti dolzarbligi haqida gap ketganda, bu masalalarni faqat huquq normasi bilangina to'laqonli tartibga solishning imkonii yo'qligida, qolaversa boshqa ijtimoiy normalarning ham, ayniqsa

axloq me'yorlarining o'rni yuqori ekanligini e'tiborga olish lozim. Faqat axloq normalari bilangina bugungi global "ommaviy madaniyat" targ'iboti davrida oilaviy munosabatlarning sog'lomligini saqlab qolish mumkin. Bu uchun esa barcha huquqiy shart-sharoitlarni yaratib berish mamlakatning asosiy vazifasi hisoblanadi.

1912-yilda Buxoro amiri Sayid Olimxon mamlakat axolisining to'y-marosimlarida isrofgarchilikning oldini olishga qaratilgan farmonni e'lon qilgan. Unga ko'rda to'y marosimlarida turli musobaqalar, kurash, uloq chopish kabilarni o'tkazish, shuningdek, amaldorlarning to'ylarga borishi ta'qiqlangan ekan. Jadid ma'rifatparvari Abdurauf Fitrat o'zining "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" nomli risolasida jamiyatni qiynagan, ma'rifat - hurriyat tomon harakat qilishga to'sqinlik qilayotgan ijtimoiy muammolar qatorida aynan oilaviy masalalarni, to'y-hashamlardagi isrofgarchilik, ortiqcha marosim-udumlarni ham sanab o'tgan. Buni qarangki, bu kabi masalalar bugungi jamiyatimizda ham afsuski, yo'qolmagan. Oilalarning mustahkamligiga muayyan darajada ana shu marosimlarimizning ham ta'siri bor, albatta.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 28-oktabrdagi to'y va boshqa marosimlarni tartibga solishga doir 2100-son Farmonining mazmun-mohiyati ham aynan mana shunday ortiqcha dabdaba va isrofning oldini olish bo'lgan.

### **Oila huquqi manbalari. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi**

Oila huquqining rahbariy manbalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning meyoriy hujjatlari, Oila kodeksi hisoblanadi.

Oila huquqining asosiy manbai, butun keng qamrovli oila qonunchiligining negizi O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksidir. U 1998-yil 30-aprelda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilinib, o'sha yili 1 sentabrdan e'tiboran amalgalari kiritildi.

Oila kodeksi 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

Oila kodeksining birinchi bo'limi umumiyoq qoidalarni o'z ichiga olgan. Ikkinchchi bo'lim "Nikoh" deb atalab, unda nikoh tuzish tartibi, er-xotin, qarindoshlar, farzandlarning shaxsiy va mulkiy huquqlari, majburiyatlar, nikohni tugatilish tartiblari o'z ifodasini topgan. Uchinchi bo'limda qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash tartiblari ko'rsatilgan. O'zbekiston Respublikasi oila to'g'risidagi qonunchiligidagi ilk bor qarindoshlarning huquqiy asoslari ushbu kodeksda o'z o'rnnini egallagan. To'rtinchchi bo'limda ota-onada hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlar ko'rsatilgan. Besinchchi bo'limda oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlar belgilangan. Oltinchchi bo'limda ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllari va tartibi, bunga oid munosabatlarni bilan bog'liq masalalar ko'rsatilgan. Yettingchi bo'limda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etilishining huquqiy asoslari o'z ifodasini topgan. Sakkizinchi bo'limda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish asoslari belgilangan.

Kodeks oilani yanada mustahkamlash va uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish uchun huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalarni o'z ichiga olgan. U xalqaro normalarga va milliy mentalitetga mos ravishda ishlab chiqilgan.

Oila qonunchiligi: **birinchidan**, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning meyoriy hujjatlarni huquqiy asos qilib oladi.

**Ikkinchidan**, amaldagi oila qonunlarini takomillashtirishda uzoq yillar davomidagi ijobiy natijalarini bergen qoidalari saqlab qolindi.

**Uchinchidan**, unda Sharqda vujudga kelgan va rivojlangan musulmon huquqi, shariat va odob-axloq qoidalari xam o'z ifodasini topgan.

**To'rtinchidan**, oilaviy munosabatlarga qaratilgin ayrim xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasi inobatga olinagan.

**Beshinchidan**, unda Respublika aholisining, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy va mahalliy xususiyatlari inobatga olinagan.

**Oltinchidan**, oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari berilgan.

Oila kodeksi quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'ygan: xalqaro huquqiy qoidalarga asoslanib, tegishli milliy qonunlar yordamida oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish; umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta'minlash tizimini barpo etish; mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi g'oyat murakkab davrida oilaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish; har bir oilaning o'ziga xos xususiyatini, millatning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish; sog'lom avlodni vujudga keltirishda milliy qadriyatlarga, xalqning azaliy an'analariga, islomiy axloqiy-ma'naviy aqidalarga amal qilgan holda ish yuritish; bo'lajak onalarni tarbiyalashda milliy mafkura, urf-odat va an'analarni kengroq qo'llash; oila qonunlarida belgilangan nikohga o'tish tartibi va shartlarini, oilada er-xotin, ota-onalar bilan bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolani tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalarini o'z ichiga olgan.

O'zbekistonda oila munosabatlari doir qonunchilikning rivojlanishiga tarixiy nuqtai nazardan qaralsa, masalan, ittifoq davrida qabul qilingan 1978-yilgi Konstitutsiyada oila masalasiga faqat bitta, 51-modda ajratilgan edi. 1992-yilgi Yangi Konstitutsiyamizda alohida "Oila" deb nomlangan XIV bobning to'rtta moddasi oilaviy munosabatga bag'ishlangan. 2023-yil 30-aprelda referendum asosida qabul qilingan Yangi Tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanib, 5 (76-80) moddani o'z ichiga olgan. "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiat va davlat muhofazasidadir.

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi.

Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi", deb belgilandi.

**Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida** oilaviy munosabatlар davlatlar zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalardan biri bo'lib, u keng ma'noga ega. Bu xalqaro hujjatda oilani jamiyatning tabiiy va asosiy quyi xujayrasi sifatida, uning daxlsizligini yaxshilash, bolalarga ta'lim va tarbiya berish, onalar va ishga yaroqsiz oila a'zolari uchun zarur bo'lgan moddiy imtiyozlar tug'dirish va oilani mustahkamlash borasida shunga o'xshash yo'lga qo'yish lozim bo'lgan muhim masalalar nazarda tutiladi.

Oilaning davlat muhofazasida ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlarida ham o'z ifodasini topmoqda. Prezidentning 1990-yil 3-mayda qabul qilingan bиринчи Farmoni "Kо'п болали нафоқа миқдорини ко'пайтириш то'ғ'рисида" деб номланган. Unda ko'п болали наларинг ахволини, yosh avlodning unib-o'sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onalarga to'lanадиган ойлик нафоқа иккি баравар ко'пайтирилди. 1994-yil 16-iyul Farmoniga ko'ra bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda bolali oilalarga davlat yordamini kuchaytirish, yosh avlodni tarbiyalash muammolarini hal etishda ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash va bolalarni har tomonlama kamol toptirish maqsadida 1994-yil 1-sentabrdan boshlab bolali oilalarga ko'rsatiladigan davlat ijtimoiy yordamining amaldagi tizimi o'rнига нафоқа турларидан iborat yagona tizim joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-avgustdagи "Кам та'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirilar to'ғ'рисида"ги Farmoni bilan aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi turi, кам та'minlangan oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam joriy etildi.

Prezidentning 1995-yil 20-noyabrda qabul qilgan "Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'ғ'рисида"ги Farmoni ham aholini ijtimoiy himoyalashda alohida amiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martda "Bolali onalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish choratadbirlari to'ғ'рисида" чиқарилган Farmoniga binoan onalik va bolalikni muhofaza qilish manfaatlarini ko'zlab, bolali oilalarga davlat tomonidan yordamni kuchaytirish, yosh avlodni kamol

toptirish va tarbiyalash uchun sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy ta'minotning ko'plab tizimlari joriy qilingan edi.

1996-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni ham bolali oilalarni himoya qilishga qaratildi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlod salomatligini mustahkamlash, unga vatanparvarlik, Vataniga mehr-muhabbat tuyg'usini singdirish ishidagi alohida xizmatlarini rag'batlantirish maqsadida, shuningdek, bolalar manfaatlari yo'lida xayriya faoliyatini rivojlantirishda faol ishtirok etganlarni mukofotlash uchun 1993-yil 4-martda "Sog'lom avlod uchun" ordenini ta'sis etildi. Shu yilning o'zida "Sog'lom avlod uchun" xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil qilindi.

Bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda yosh avlodni tarbiyalash muammolarini hal qilishda ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash va bolalarning har tomonlama kamol topishi maqsadida 1994-yil 16-iyunda "Bolali onalarga davlat ijtimoiy yordami tizimini takomillashtirish to'g'risida" Farmon qabul qilindi.

Davlatimiz oila bilan bir qatorda, oilasiz, voyaga yetmagan bolalarga ham katta g'amo'rlik qiladi. Bunga misol qilib 2007-yil 23-yanvarda PQ-537-son Vazirlar Mahkamasining qarorini keltirish mumkin. Unda, yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni moddiy ta'minlash normalarini takomillashtirish va tartibga solishni maqsad qilib tegishli shaxslarga bir-qancha vazifalar yuklatilgan.

Mazkur sohadagi ishlar tizimli tarzda davom ettirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdag'i "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lамини yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6277-son Farmoni asosida 14 yoshgacha bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa hamda bola 2 yoshga to'lguniga qadar uni parvarish qilish nafaqasi o'rniga kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi joriy etiladi. Kam ta'minlangan oilalarga ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qonun hujjatlar yildan yilga takomillashib bormoqda.

Oilani jamiyatning ravnaq topishidagi tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat

tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 9-dekabrdagi Farmoyishi bilan 1998-yil "Oila" yili deb e'lon qilindi. Shu yilga bag'ishlangan davlat dasturi ham ishlab chiqilgan edi. "Oilani, uning boqiy qadriyatlarini ulug'lab, mamlakatimizda "El-yurt tayanchi" degan muazzam yodgorlik barpo etganimiz ko'pchilikning ko'nglidagi ish bo'lganligini ta'kidlash joiz".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 2-fevralda qabul qilgan qarori bilan O'zbekiston Respublikasi xotinqizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Bu qonunhujjalarning hammasi Respublikamizdagi oilalarning barkamol bo'lishi uchun xizmat qilishi ko'zlangan.

O'zbekiston Respublikasi 1990-yil 20-iyunda o'zining Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildi va unda umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilinganligi e'tirof etildi. XXI asr bo'sag'asida O'zbekiston xalqi hayotida chuqr tarixiy o'zgarishlar ro'y berdi. O'zbekiston siyosiy qaramlik va mutelik asoratidan qutlib, davlat mustaqilligini qo'liga kiritdi. 1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e'lon qildi va qonunlarimizni o'zimiz mustaqil qabul qilish huquqiga ega bo'ldik.

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 14-iyunda qabul qilingan qonuni tahririda Respublika Nikoh va oila kodeksi 771-moddasi bilan to'ldirilib, unda "bolaning ismi, otasining ismi va familiyasi, ota-onanining xohishiga ko'ra hamda milliy-tarixiy an'analarini hisobga olgan holda, bir yoki bir necha so'zlar bilan yozilishi mumkinligi ukdirildi.

O'zbek ismlari, ota ismi va familiyalari boshqa tillarda yozilganida, ularning asl (birlamchi) yozilishi saqlanib qoladi. O'zbek ismlari, ota ismlari va familiyalarini yozish o'zbek tilining talaffuz mezonlariga bo'y sunadi.

Kodeks 76-moddasining birinchi qismi "Ota-onasining ixtiyorli bilan, millatidan qat'i nazar, bolaga buvasining yoki otasining ismi familiya qilib berilishi mumkin" degan so'zlar bilan to'ldirildi. Shuningdek, 70-modda "O'zbek milliy an'analariga ko'ra bolaning ismiga ota-onasining xohishi bilan "xon", "jon", "bek", "bonu", "bibi",

"oy", "xo'ja" va boshqa qo'shimchalar qo'shib yozilishi, ota ismi esa otasining ismiga "o'g'li", "qizi" so'zlari "iy", "zoda" qo'shimchalar qo'shilgan holda yozilishi mumkin" degan uchinchi qism bilan to'ldirildi.

Oila qonunchiligining rivojlanishini ko'rsatuvchi yuqoridagi qonun-xujjatlar oilani, onalik va bolalikni himoya qilish borasida, oilalarni ijtimoiy himoyalash masalasida Republikamizda olib borilayotgan qonunchilikni takomillashtirilgan ishlarning guvohidir.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va boshqa shu munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlarning asosiy maqsadi nikohdagilarning huquqiy holatlarini belgilash; mulkiy va shaxsiy huquqlarini ko'rsatish; nikoh shartnomasini tuzish yo'llarini belgilash; qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash; ota-onha hamda voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlarini belgilash; alimentlar va boshqa moddiy-ma'naviy yordamlarni amalga oshirish masalasini hal qilish; bolalarning oiladagi huquqlari va ota-onalarni moddiy ta'minlash to'g'risidagi majburiyatlarini ko'rsatish; ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish; fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish va boshqa muhim qoidalardan iborat.

O'zbekiston Respublikasi "Oila" kodeksining qabul qilinishi bilan oila munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, shuningdek Fuqarolik kodeksi bilan muvofiqlashtirildi. "Oila" kodeksi Respublika Oliy Majlis sessiyasida ratifikatsiya qilingan "Bola huquqi" hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarni ham o'z ichiga olgan. 2008-yil 7-yanvarda "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Oila qonunchiligidan kelib chiqqan holda, Vazirlar Mahkamasasi oilaviy munosabatlarga taalluqli birnecha qarorlar, nizomlar qabul qilgan. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-sontar Qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalari (dastlabki tahriri 1999-yil 12-aprelda), O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risidaginizom (2014-yil 22-sentabrdagi 269-sontar Qarori), "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy

ko'riddan o'tkazish to'g'risida" 2003-yil 25-avgustdag'i 365-sontar Qarori kabi.

"Oila" kodeksida Respublikamiz fuqarolarining turmushdag'i eng muhim va ko'p qirrali munosabatlari o'z yechimi topgan. Oilaviy hayot masalalari tartib doirasiga solingan.

Oilaviy huquq normalari, avvalo, nikohdan o'tish tartibini va shartlarini belgilaydi, shuningdek, er-xotinlar o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiradi, qolaversa, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik bilan bog'liq ravishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladi va nihoyat, nikohning tugatilish tartibi va shartlarini belgilab beradi.

Oila huquqi oila a'zolari o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soladi. Shaxsiy nomulkiy munosabatlarga er-xotinning familiyasi, bolalar tarbiyasi, oila turmush masalalarini hal qilishi, mashg'ulot turi, kasb va turar-joy tanlash huquqlari kiradi. Mulkiy munosabatlarga esa er va xotinning nikoh davomida orttirgan umumiy mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, ularning birkalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Ota-onha hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlarini, oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlarini kiradi.

Demak, oila huquqi nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin o'rtasida, ota-onha bilan bolalar o'rtasida, oilaning boshqa a'zolari o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yig'indisidan iborat bo'ladi. Ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soluvchi oila huquqi qoidalari muayyan tizimga solingan holda tatbiq etiladi.

#### **Mavzuni mustahkamlashga oid kazus topshiriqlari:**

1. 2-kurs talabalari Jumayeva, Jo'rayev hamda Bobonazarovlar Oila huquqi Fuqarolik huquqining mantiqiy

davomi degan fikr-mulohazani bildirdilar. Lekin bunga boshqa talabalar e'tiroz bildirib, Oila huquqi huquqning mustaqil sohasi ekanligini, u o'z o'rganish doirasiga predmeti va tamoyillariga hamda tizimiga ega ekanligini alohida ko'rsatib o'tdilar.

*Aytingchi, birinchi va ikkinchi talabalar o'rtasidagi bahs-munozara asoslimi? Oila huquqi huquqning mustaqil sohasi bo'lishi uchun yana nima asos bo'lib xizmat qilishi darkor?*

2. Bir guruh talabalar Qadimda mamlakatimiz hududida amalda bo'lgan oilaviy qadriyatlar, ularni buzganlarga nisbatan jazolar tizimi – oilalarning mustahkamligiga xizmat qilganligini aytib, ularni ma'qullaydilar. Boshqa guruh ta'labalar esa mazkur jazolar insonlarning huquqini poymol qilgan, haddan tashqari shavqatsiz ta'sir choralar bo'lgan, deya fikr bildirishadi.

*Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qilgan qanday tarixiy odatlarni bilasiz?*

*Siz qaysi talabalar jamoasini fikrini qo'llab-quvvatlaysiz? Fikringizni izohlab bering.*

3. Oila huquqidan seminar mashg'uloti olib borilayotgan vaqtida o'qituvchi talabalarga oilaning ilmiy tushunchasi haqida so'raganda, ikki talaba Sardor va Karimlar o'zaro bahslashib, oila tushunchasini ilmiy asoslantirishga harakat qildilar. Sardor oila tushunchasiga, ikki jinsdagи shaxslarning ittifoqi va buning natijasida oila vujudga kelishini ta'kidladi. Karim esa bunga e'tiroz bildirib, professor F.M.Otaxo'jayevning oilaga bergen tushunchasini izohlab berdi.

*F.M.Otaxo'jayev oilaga qanday ilmiy ta'rif bergen va Siz buni qanday izohlaysiz? Sizningcha, Sardorning oilaga berga ta'rifi asoslimi?*

### Testlar

1. "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligidiga va teng huquqliligidiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi". Ushbu huquqiy asos Konstitutsianing qaysi moddasiga tegishli?

A. 76      B. 86      C. 37      D. 55

2. Oila huquqi huquqiy fanlarning qaysi guruhiга kiradi?

A. Maxsus huquqiy fanlar  
B. Amaliy huquqiy fanlar  
C. Alovida ahamiyatga ega huquqiy fanlar  
D. Tarixiy nazariy huquqiy fanlar

3. *Nikoh so'zining ma'nosi.....*

- A. arabcha – qo'shilish  
B. arabcha – birga  
C. arabcha – oila  
D. forscha – qo'shilish

4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 28-oktabrdagi 2100-sonli farmonining mazmun-mohiyati nima haqida edi?*

- A. to'y va boshqa marosimlarni tartibga solish  
B. oilaviy munosabatlar  
C. Oila kodeksini qabul qilish haqida  
D. voyaga yetmagan shaxslar

5. *2023-yil 30-aprelda referendum asosida qabul qilingan Yangi Tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi bobiga "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlanib, nechta moddani o'z ichiga oladi?*

- A. XIV bobi (76-80)  
B. XIV bobi (78-90)  
C. XVI bobi. (63-66)  
D. XV bobi (76-80)

### Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Oila huquqi alohida huquq sohasi sifatida o'rganilishi zarurligi nimada?

2. Oila huquqiy munosabatlar va fuqarolik huquqiy munosabatlarning o'xshash va o'ziga xos xususiyatlarini sanab bering.

3. Oila huquqi boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligini misollar bilan ochib bering.

4. O'zbekiston hududida oilaviy munosabatlar qanday tartibga solingen?

5. Quyidagi manbani o'qing hamda O'zbekistonda va jahonda oilaviy ajrimlar statistikasiga tahliliy munosabat bildiring:

<https://kun.uz/uz/news/2023/01/31/ozbekistonda-nikohlar-kamayib-ajralishlar-kopaygani-kuzatilmoque-da-statistika>

6. Oila huquqining manbalarini iyerarxiyaviy tartibda sanab bering.

7. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik jamoalarga bo'lingan holda sharxlang: **4<sup>1</sup>-modda. Ko'p bolali oilalarni ijtimoiy muhofaza qilish**

"To'rt nafar va undan ortiq o'n sakkiz yoshga to'limgan bolasi bo'lgan oila ko'p bolali oiladir. Bunda, agar to'rt nafar va undan ortiq bolalaridan bir nafari yoki undan ko'prog'i ta'limning kunduzgi shaklida (o'rta maxsus va professional, oliy ta'lim) ta'lim tashkilotlarida o'qiyotgan hamda yigirma ikki yoshga to'limgan bo'lsa, bu oila ham ko'p bolali oila deb hisoblanadi.

Davlat ko'p bolali oilalarga qonunchilikka muvofiq imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berilishini ta'minlaydi."

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: 2023.
2. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti. 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>).
3. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti. 2017.
4. M.X.Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.
5. advice.uz sayti savol-javoblari.
6. civil.uz.
7. stat.uz.

#### **II bob. OILAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLAR. NIKOHNING HUQUQIY TATIBGA SOLINISHI**

##### **Ko'rib chiqiladigan masalalar:**

1.1. Nikoh tushunchasi, oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar.

1.2. Markaziy Osiyoda nikoh munosabatlarining diniy-huquqiy qoidalar asosida tartibga solinishi.

1.3. Nikohning tuzilishi tartibi va shartlari.

1.4. Nikohlanuvchilarни tibbiy ko'rikdan o'tkazish.

**Tayanch so'zlar:** nikoh, oila a'zolari, oila huquqiy munosabatlarni tartibga solishda davlat va jamoat tashkilotlarining o'rni, nikoh tuzish shartlari, tartibi, ularning amaliy ahamiyati, nikoh tuzishga mone'lik qiladigan holatlar, ularning zarurati, nikohni huquqiy tartibga solishning chet el tajribasi.

##### **Nikoh tushunchasi, oila huquqi normalari bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar.**

**NIKOH** – bu erkak bilan ayol o'rtasidagi muayyan ittifoq va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma'qullanishining tarixiy shaklidir.

Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-onva farzandlar orasida axloqiy, huquqiy majburiyatlarni o'rnatadi. Nikoh (arabcha – qo'shilish) so'zi o'zbek tiliga arablardan kirib kelgan. Qo'shilish ma'nosiga sharh beradigan bo'lsak, nikoh natijasida oilalar o'rtasida qarindoshliklar o'rnatiladi, degan ma'noni ifodalaydi. Oila a'zolari to'ldirib boriladi. Bunga sabab birinchidan, yangi oilalarda farzandlar tug'ilishi bo'lsa, ikkinchidan, nikoh sababli qarindoshlik vujudga kelishidir. Quda-andalar ham bir-birlariga yaqin insonlar bo'lib qoladi.

Nikoh rasmiy birlashma, qonuniy, iqtisodiy va emotsiyonal hayotlarini birlashtiradigan ikki shaxs o'rtasidagi ijtimoiy va huquqiy shartnomasi. Shartnomada nikoh shartnomasi, odatda, juftning hayoti davomida yoki ajrashishga qaror qilguniga qadar bir-birlariga qonuniy majburiyatlarga ega ekanligini anglatadi. Oila va nikoh. Bu ikki o'xshash tushunchalar ko'pincha bir ma'noni

anglatadi. Ular, albatta, juda yaqin, lekin nikoh va oila o'rtasidagi farqlar mavjud. Ulardan ba'zilari quyidagilardir:

- oila tarixda avvalroq paydo bo'lgan va nikoh davlat institutlarining rivojlanishi bilan ro'yxatga olindi;
- oilaning turli shakllari turli xalqlarga ma'lum va nikoh erxotin munosabatlarining asoslarini anglatadi: erkaklar va ayollar;
- oila odatda ancha keng va barqaror davlat ta'limidir, lekin nikoh qonuniy muddat va obyektdir.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarhuquqiy ma'noda oila – yuridik aloqadir. Oilaviy munosabatlardagi yuridik xarakter huquqiy normalar bilan ularning munosabatlarini tartibga solib, davlatning majburiy qoidalari bilan oila a'zolarining xulqiga ta'sir etib, oilani jamiyat xohlagan asosda rivojlantirishga yordam beradi.

Yuridik fakt sifatida qayd qilingan nikoh va yaqin qarindoshlik oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida muhim huquqiy asos bo'ladi. Bu munosabatlar qayd qilingan nikohdan tashqari ham vujudga kelishi mumkin. Turmush qurmagan ayol yoki uylanmagan erkak tomonidan farzandlika olish bunga misol bo'la oladi. Yolg'iz shaxs tomonidan bolalarni doimiy tarbiyaga olganda ham oilaviy-huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga bergen ta'rif quyidagicha: "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib, yuridik ma'noda nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllarda bolalarni doimiy tarbiyaga olishdan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasidan iborat bo'lgan milliy mustaqillik masfkurasiga, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an'analarga asoslangan oilaviy munosabatlarni rivojlantirib, uni mustahkamlashga qaratilgan fuqarolar ittifoqidan iboratdir".

Oilaviy-huquqiy munosabatlar nikoh va oila doirasidagi aniq ijtimoiy munosabatlarni nikoh va oila qonunchiligi nuqtai nazaridan tatbiq etishdir.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatning maqsadlari bilan belgilanadi. Nikohdan maqsad oila qurish bo'lib, u er-xotinning butun umri davomida birga yashashiga mo'ljallanadi. Ota-onalik huquqiy munosabati bolalarning tarbiyasi va ta'minotiga

qaratiladi. Farzandlikka olish, vasiylik, homiylik va boshqa huquqiy munosabatlar ko'p xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Bunday huquqiy munosabatlarda qo'yilgan maqsadlarga uzoq muddat davomida erishish mumkin.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar ko'pincha muddatsiz bo'ladi. Er-xotinning huquq va majburiyatları, nikohdan ajralish holatini hisobga olmaganda, bir umr davom etadi. Ayni paytda shunday oilaviy-huquqiy munosabatlar ham mavjudki, ular ma'lum muddat bilan cheklandi, biroq belgilangan davrgacha albatta davom etadi. Masalan, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash majburiyatları farzand 18 yoshga to'lgunga qadar davom etadi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini, u nikoh va qonarishdoshlikka asoslanishi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega, shuningdek, jamiyat va davlat oilani, otalik, onalik va bolalikni himoya qiladi va oilaviy munosabatlarga umuminsoniy va milliy qadriyatlar joriy etilishini ta'minlaydi.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to'g'ri yo'li oilaviy hayotdir. Ayrim mamlakatlarda uylanmaslikni afzal ko'ruchchi bo'ydoqlar ko'plab uchrab turadi. Senegalda har yuz ayolga o'rtacha 95 erkak to'g'ri keladi. Erkaklarning 44,4 foizi uylanmaslikni afzal ko'ruchchi bo'ydoqlar bo'lib, ayni paytda turmushga chiqmagan xotin-qizlar atigi 19,3 foizni tashkil etadi. Senegalda aholining 94 foizi islam diniga e'tiqod qiladi. Shariatda bir necha xotin olishga ruxsat etilsa, senegallik musulmon erkaklarning atigi 28,3 foizi ikkita va undan ortiq xotinga uylangan. Ayni paytda senegallik ayollardan 52,1 foizining kundoshlari bor. Qizlar yetuk yoshdagagi erkaklarga turmushga chiqishni afzal ko'radilar, shu sababli Senegalda beva erkaklarga nisbatan beva ayollar ko'proq.

Daniyalik burjua psixolog olimi Inge Xegeler fikricha, har 100 nikohdan 90 tasi er-xotin xohlamaydigan nikohdir. U, umr bo'yi bir kishi bilan nikohda turish noto'g'ri, erkin tanlashni cheklash mumkin emas, deydi. Hatto aka-singillarning nikohi yuridik jihatdan tan olinmog'i lozim emish.

Italiyalik mutaxassislarining hisob-kitoblariga qaraganda, hozirgi kunda har besh nafar ovrupalikning biri uyqusizlikdan azob chekar ekan. Buning asosiy sababi yolg'izlikdir. Oilaviy hayoti ko'ngildagidek bo'lgan kishilarda esa uyquning tashvishi yo'q.

Oila inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi. Shuningdek, oila muhim tarbiyachi hamdir. Oilada bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o'tgan yaxshi udum, odatlar mavjud. Hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish juda qiyin, buni normal hol deb bo'lmaydi, chunki u turmushning juda muhim qismidir.

Oila huquqi munosabatlari asoslari bosh qomusimizning 76-moddasida: "Oila jamiyatning asosiyo bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir", belgilab qo'yilgan. Bu moddaning mazmunidan birinchi navbatda, oila otalik, onalik va bolalik davlat hamda turli xil nodavlat tashkilotlar va jamg'armalar himoyasida bo'lishi anglatiladi.

Oila huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar juda keng qamrovli bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Nikoh, uning tuzish tartiblari bilan bog'liq munosabatlar;
- er va xotinning oilaviy huquq va majburiyatlari bilan bog'liq munosabatlar;
- nikoh tugatilishining huquqiy asoslari va tartibi bilan bog'liq munosabatlar;
- oilada ota-onha va voyaga yetmagan farzandlarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlariga oid munosabatlar;
- qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash bilan bog'liq munosabatlar;
- aliment, uning belgilanishi, undirilishi bilan bog'liq munosabatlar;
- ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish: farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolani oilaga tarbiyaga olish bilan bog'liq munosabatlar;
- fuqarolik holati dalolatnomalarini shakllantirish bilan bog'liq munosabatlar;
- chet el elementi ishtirokidagi oilaviy huquqiy munosabatlar va ularni tartibga solish masalalari;

#### **Markaziy Osiyoda nikoh munosabatlarining diniy-huquqiy qoidalar asosida tartibga solinishi. Shariat bo'yicha nikoh**

Insoniylik va islom nuqtai nazaridan qaralganda nikoh – muqaddas ishdir. Chunki u halollik asosida qo'shilishni ma'qul deb biladi, nikohsiz qo'shilish esa haromlik belgisidir. Haromlik ta'siri

esa bo'lajak farzandlarda, oilaning barakali bo'lishida o'z salbiy oqibatlarini ko'rsatishi mumkin. Qonun tilida nikoh bola tug'ilishini qonunlashtiradigan alohida turdag'i xususiy shartnomani anglatadi.

Shariat bo'yicha nikoh shartnomaga o'xshab ketsada, undan farq qilgan. U umrbodga tuziladi. Shariat muddatli shartlarga yo'l qo'yagan. Agar nikoh ahdida muddatli shartlarga ma'lum hafta, oy yoki yilga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday nikoh haqiqiy emas deb sanalgan. "Nikoh mening sunnatimdir", deganlar payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V.). Islom ta'limoti bo'yicha 124 ming payg'ambar haqida gap ketsa, ularning barchasiga sunnat bo'lgan 4 umumiyy xususiyat alohida tilga olinadi. Bular: misvoq ishlatalish, xushbo'ylik sepish, hayo, nikoh.

Shariat bo'yicha nikohdan o'tish uchun nikohdan o'tuvchilardan bir qator shartlarga rioya qilish talab etilgan. Ular:

1. Nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi;
2. Nikoh yoshiga to'lishi;
3. Guvohlar ishtirokida tuzilishi;
4. Kelin uchun maxr belgilanishi;
5. Diniy e'tiqod birligi;
6. Nikohdan o'tvchilar yaqin qarindosh bo'lmashliklari;
7. Tabaqa bo'yicha tenglik;
8. Ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishliklari.

Shariat bo'yicha nikohdan o'tishda turmush qurayotganlarning roziligini olish marosimi juda qiziq bo'lgan. Bu jarayon nikoh to'yidan bir necha kun oldin kelinning uyida, mahalliy urf-odatlarga ko'ra rasmiylashtirilgan. U bo'lajak kuyov va kelinning ildi guvoh hamda ruhoniyat vakili ishtirokida amalga oshirilgan. Ulardan rozilik so'ralgan va shu rozilik nikoh shartnomasini tuzish uchun huquqiy asos hisoblangan.

Shariat bo'yicha nikoh yoshi o'g'il bolalar uchun 12 yosh, qizlar uchun 9 yosh belgilangan. Shunda o'g'il bolalar jinsiy jihatdan voyaga yetgan bo'lishlari lozim. Amalda esa o'g'il bolalar – 14, qizlar – 12 yoshga to'lganda nikoh tuzilgan.

Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzish vaqtida albatta ikki kishi guvohlikka o'tishi lozim. Guvohlikka o'tishga qo'yilgan shaxslar nikoh ahdini tuzuvchilarning o'zaro roziligini o'zlarini bir vaqtning o'zida eshitgan bo'lishlari lozim edi.

Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzishning navbatdagi sharti ajratilgan mahrni berishdan iborat bo'lgan. Busiz nikoh haqiqiy emas, deb sanalgan. Mahr kuyov tomonidan kelnga berilib, uy-joy va sepdan iborat bo'lgan. Har bir hududda mahr, qalin hajmlari turlicha bo'lgan.

Shariat bo'yicha, faqat islam diniga mansub bo'lgan shaxslargina o'zaro nikoh tuza olgan. Agar ayol boshqa dindan islam diniga o'tsa, u bilan nikoh qurish mumkin edi.

Movarounnahrda islomga qadar nikoh munosabatlari tiyib bo'lmaydigan va tartibsiz shakllarda namoyon bo'lgan.

Shariat yaqin qarindoshlarning yoki ko'kaldoshlar (bir onani emib katta bo'lganlar)ning nikohini man qilgan. Qur'oni Karim "Niso" (4)-surasining 22-24-oyatlarida nikoh ta'qiqlangan hollar batafsil belgilab berilgan.

Nikoh ahdini tuzishda talab qilinadigan shartlardan biri tabaqa bo'yicha tenglikdir. Nikoh haqiqiy teng bo'lishi uchun "kafolat" – nikohga kiruvchi shaxslar urug'i, qarindoshligi bo'yicha va unvonlarda teng bo'lishi lozim edi.

Shariat bo'yicha nikoh ahdini tuzuvchi tomonlar ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi lozim. Aqldan ozgan shaxs bilan tuzilgan nikoh haqiqiy hisoblanmaydi.

Shariatga asosan yuqorida sanab o'tilgan shartlarga rioya qilinib tuzilgan nikohgina haqiqiy hisoblangan.

Shariat bo'yicha erkaklar bir vaqtning o'zida bir qancha xotin olishlari, ammo ularning soni to'rttadan oshmasligi lozim edi. Sababi agar bir erkak faqat bir ayolga uylanishi mumkin deyilsa, erkaklar sanog'idan ortib qolgan ayollarga zulm qilingan bo'lur edi. Ya'ni, bu ayollar o'zlarining turmush qurish va ona bo'lish huquqlaridan mahrum bo'lib qolar edilar. Natijada jamiyatda nopoliklik va maishiy buzuqliklar yuzaga kelar edi. Shuning uchun Islom moddiy imkoniyatlari bor erkaklarga ko'p xotinli bo'lishga ruhsat beradi. Bunday holat Turkiston sharoitida ham mayjud bo'lib, erkaklar ikki va undan ortiq xotinlarga uylanib, ular bilan bir umumiy xo'jalikni vujudga keltirganlar.

Musulmonlar nikoh tuzilishiga qadar bir qator diniy urf-odatlarni bajarishlari lozim bo'lgan. Bu urf-odatlarning biri sovchilik bo'lib, bo'lajak kuyovning yaqin qarindoshlari kelning ota-onasi

huzuriga borib, nikoh to'g'risida kelishib oladilar. Bu jarayon "fotiha qilish", "unashtirish" deb atalgan.

Ikkinchidan, nikohni xalqqa e'lon qilish uchun ziyofat berish musulmonlar uchun sunnat amallaridan biri hisoblangan.

Uchinchidan, nikoh ahdini tuzish vaqtida ruhoniyat vakili bo'lmish mulla, ikki guvoh va kuyov kelning uyiga, yoki kelin va kuyov guvohlari bilan masjidga boradi. Mulla nikoh "xutba" sini o'qishdan oldin er-xotinlik shartlari, er va xotinning burch va huquqlarini tushuntiradi, kelin va kuyovning roziligini so'raydi, tasdiqlovchi javobni eshitgan mulla nikoh xutbasini o'qiydi.

Nikoh ahdi tuzilgandan so'ng nikoh vasiqasini olish vaqtida ikki taraf ham mullaga yoki qoziga pul to'lashi lozim edi. Bu vasiqa "nikoh pattasi", to'langan pul esa "nikoh koma" deb nomlangan. Nikoh ahdi tuzilgandan e'tiboron kelin erining uyida bo'lishi lozim. Kelin erining uyiga asosan to'yan so'ng borgan.

Yuqorida ko'rsatilgan nikoh ahdini tuzish vaqtida bajarilishi lozim bo'lgan holatlarni hisobga olib, qo'yidagi xulosaga kelish mumkin: shariat bo'yicha nikoh tuzish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, islam dini tomonidan belgilangan talablar uning qonuniyligi va oshkoraligini ta'minlagan.

Shariat bo'yicha tuzilgan haqiqiy bo'Imagan nikoh shartlariga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, guvohlar yetarli bo'Imagan yoki shariat tomonidan qo'yilgan talablarga rioya qilinmagan (masalan, voyaga yetmaganlar yoki ruhiy kasallar bilan nikohdan o'tish);

Ikkinchidan, idda tutishi lozim bo'lgan ayollar bilan tuzilgan nikoh;

Uchinchidan, har xil dingga e'tiqod qiluvchi tomonlar bilan tuzilgan nikoh.

Shariat bo'yicha er-xotin o'rtasidagi munosabatlar.

Er-xotinning huquq va majburiyatlar shariat bo'yicha belgilangan bo'lib, ular o'rtasidagi huquqiy munosabatlar nikoh ahdi tuzilib, kelishilgan va ajratilgan mahr berilgandan keyin boshlanadi.

Oilaning tinchligi, uning farog'atli turmushi shu oilaning boshida turgan er bilan xotin orasidagi do'stona munosabatlarga bog'liq.

"Yuz bir hadis va uning sharhi" to'plamining 21-moddasi izohida: "Tur mush dunyosida erlarning g'ayrati, tirishqoqligi naqadar kerak bo'lsa, xotinlari ham o'shandoq harakat qilishlari kerak. Oila boshlig'i bo'lgan er bor kuchi bilan harakat qilib, molmulk orttirsa-yu, uning topgan molini xotin ko'paytirishga tirishmasa, balki kerakmas o'rnlarga ishlatib bitrsa, u oilaning tur mushi hech olga keta olmas. Xotinlar erkaklarning yarim qismi bo'lgach, albatta, ular erlarining tur mushlariga yordam bermoqlari kerak". Shariatda er-xotinlarning oiladagi huquq va majburiyatlar ishlab chiqilgan. "Tug'ilgan bolalarining otalari bolalarining onalarini imkonlari boricha yedirib-ichirishlari va kiyintirishlari lozim" (Baqara, 233).

Er oila boshlig'i hisoblanganligi tufayli, oila ta'minoti uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarni ishlab topishi lozim bo'lgan. Xotin esa oilada asosan uy-ro'zg'or ishlar va bolalar tarbiyasi bilan shug'ullangan. Shuning uchun oilaning boshqa a'zolari-xotindan boshlab, bolalargacha oila boshlig'iga bo'yusunib, o'z majburiyatlarini bajarib kelganlar. Bu holat ularning ro'zg'orda barakali, tinch-totuv yashashlariga asos solgan.

Erning huquqi bo'yicha, agar er mahr to'lagan bo'lsa, xotin albatta uning uyida yashashi lozim edi. Eri er-xotinlik munosabatlari xiyonat qilsa ham na fuqarolik, na jinoiy javobgarlikka tortilmagan. Bu hol xotinning diniy e'tiqodini haqoratlash hisoblanib, u bilan qo'pol munosabatda bo'linganligini bildirgan. Xotin biror joyga borishi lozim bo'lsa, albatta eridan ruxsat olishi darkor edi. Erning roziligi va ruxsatisiz xotin ro'za tuta olmaydi, xajga bora olmaydi.

Er xotinini moddiy ta'minlashi lozim edi. Agar er uyda olti oydan ortiq muddat bo'lmasa-yu, xotinini moddiy jihatdan ta'minlamasa, bu holat xotinga erining nikohidan ajralishi uchun asos bo'la olgan.

Agar erving littadan ortiq xotini bo'lsa, u holda har bir xotini uchun alohida xona ajratib, hovliga chiqish uchun alohida yo'l ochib berish erving burchi bo'lgan. Uning mulkidan hamma xotinlari barobar foydalanishlari mumkin edi.

Xotinining eridagi haqqiga nisbatan majburiyatlar ko'proqdir. Xotin albatta erining uyida yashab, uyni ozoda va toza saqlab, ro'zg'or ishlarini bajarib, bolalarini tarbiyalashi lozim.

Nikoh ahdi tuzilgandan boshlab er-xotinlik munosabatiga hiyonat qilmasligi darkor. Agar er xotinga nisbatan zo'rlik, qo'pollik qilsa, erlik majburiyatlarini bajarmasa, unga hiyonat qilsa, xotin eri bilan yashashni rad etishi mumkin bo'lgan.

Xotin o'z zimmasidagi majburiyatlarni bajarmasa, eriunga nisbatan jismoniy ta'sir choralarini ko'rishi, xatto ajralish masalasini qo'yishi mumkin bo'lgan.

Agar er xotiniga tirikchilik uchun yetarli miqdorda mablag' bermasa, u holda xotini, qozining ruxsati bilan, erining nomidan va uning javobgarligi bilan qarz olishi, uyga tegishli mulkdan ayrimlarini sotishi mumkin bo'lgan.

Agar xotin eri oldidagi majburiyatlarini bajarmasa, u holda eri uni jazolash, ya'ni uni zarar keltirmasdan urish va ma'lum muddat moddiy ta'minotdan mahrum qilish huquqiga ega bo'lgan.

Agar er yoki xotindan biri boshqa dingga kirsa, ya'ni islom dinidan chiqsa, bunday holda ular o'rtasidagi nikoh munosabati tugatilib, mavjud bo'lgan hamma majburiyatlar bekor qilingan. Ammo dingga nisbatan xiyonat er tomonidan sodir etilgan bo'lsa, u xotiniga mahr berishdan va idda vaqtida moddiy ta'minlashdan ozod etilmagan.

Xotini o'limidan so'ng, er hamma vaqt boshqa ayolga uylanishi mumkin bo'lgan. Xotinga esa eri o'limidan so'ng boshqa shaxsga faqat idda muddati o'tgandan so'nggina tur mushga chiqishga ruxsat berilgan.

Shariat oilaviy tur mush davomida er-xotin tomonidan topilgan mulk ularning umumiyligi mulki ekanligini tan olmagan, birgalikdagi tur mush davridagi mulk kimning mablag'iga olingan bo'lsa, o'shaniki hisoblangan.

### O'zbekiston oila qonunchiligidagi nikoh tuzish tartibi va shartlari

Nikohga kirishish har bir insoning shaxsiy huquqi hisoblanadi. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuzilishi lozimligi ko'rsatilgan.

Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas.

Nikoh tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlariga ariza bergenlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi.

Uzrli sabablar bo'lganda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi bir oy o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin.

Alovida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar)da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.

Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysunishiga ko'ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin (**O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 13-modda**).

Oila nikohdan boshlanadi. Nikoh rasmiy, qonunlar asosida o'tkazilgandagina haqiqiy hisoblanadi.

Nikohdan o'tuvchilar FHDYO ariza bergenlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Oila huquqi sohasi boshqa huquq sohalaridan farqli tarzda yumshoq huquq sohasi sifatida qaraladi, davlat va huquq nazariyasida (Yumshoq huquq, moslashuvchan huquq sifatida qaraladi). Uzrli sabablarga ko'ra FHDYO bir oy sinov muddati o'tgunga qadar nikoh tuzishga ruxsat berishi mumkin. FHDYO bo'limi mudiriga tomonlarning bergan iltimosi bilan uzrli sabablar mavjud bo'lgan alovida hollarda bir oylik muddat qisqartirilishi, hatto ayrim hollarda ariza berilgan kunning o'zida ham nikoh qayd etilishi mumkin. Bunday holatlarga homiladorlik, bola tug'ilishi, yaqin qarindoshlarining kasalligi, tomonlarning(yoki ulardan birining) xizmat yoki boshqa masalada safarga ketishi kabi. Bu ro'yhat qat'iy bo'lmasdan boshqa asosli holatlarga ham ruhsat berilishi mumkin.

*Nikoh tuzish ixtiyoriydir.*

Nikoh tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziliginini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi. (**O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 14-modda**).

Nikoh, nikohga kiruvchilarning ixtiyoriyligi, erkin roziligi asosida tuziladi. Nikoh tuzishda tomonlarning roziligi uning asosiy shartlarisan hisoblanadi. Nikohni tuzish uchun bo'lajak er-xotin o'z roziliginini erkin ifoda etish qibiliyatiga ega bo'lishi kerak. Agar shaxs o'z xatti - harakatlari oqibatini tushunmaydigan holda (qattiq mastlik, ruhiy holatining vaqtinchalik buzilishi) yoki aldov oqibatda nikohdan o'tgan bo'lsa, bunday nikoh qonunda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topiladi.

Nikoh tuzishga majbur qilish qonun bilan ta'qiqlanadi. Ayolni o'z erkiga xilof ravishda erga tegishga majbur qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 136-moddasiga ko'ra jazolanadi.

*Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi.*

*Uzrli sabablar bo'lganida, alovida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagи tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin (**O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi, 15-modda**).*

Balog'atga yetmaganlarning nikohga kirishining oldini olish, ularning sog'ligini himoya qilish maqsadida hamda oilani qurish uchun ma'lum hayotiy tajriba, jismoniy va ma'naviy yetuklik talab qilinishini e'tiborga olgan holda, qonun nikoh yoshini erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilangan (avval erkaklarga – 18 yosh, ayollarga – 17 yosh tartibi mavjud edi. Bu holat O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgustdaggi O'RQ-558-son "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjalariiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni bilan o'zgartirilgan).

Uzrli sabablar bo'lgan, alovida hollarda nikoh yoshi erkak va ayollarga bir yoshga kamaytirilishi mumkin. Bu sabablarga, masalan: nikohga kiruvchi ayol homilador bo'lib qolishi, bir taraf og'ir kasal bo'lgan, harbiy xizmatga yoki uzoq muddatga safarga ketayotgani va boshqa shunga o'xshash hollar kiradi. Bunda nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagи tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkinligi belgilangan.

Xitoy Fuqarolik kodekisida esa nikoh yoshi erkaklar uchun 22 yosh, ayollar uchun esa 20 yosh etib belgilangan<sup>4</sup>. Hindiston va Pokistonda 1929 yilda qabul qilingan "Bolalar bilan nikohni cheklash" to'g'risidagi qonunga ko'ra nikoh shartnomasi tuzish uchun qizlar kamida 18 yosh, erkaklar esa 21 yosh bo'lishi talab uchun qizlar kamida 18 yosh, erkaklar esa 21 yosh bo'lishi talab qilinadi. Yuqorida keltirilgan davlatlardagi nikoh yoshi Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1962-yilda qabul qilgan "Nikohga rozilik, nikoh uchun eng kam yosh va nikohni qayd etish to'g'risida"gi kovenisyu talablariga muvofiq 18 yoshdan yuqori etib belgilangan. Lekin ba'zi musulmon davlatlarida nikoh yoshi 18 yoshdan ham kichik hisoblanadi. Misol uchun, Iordaniyada nikoh yosh erkaklar uchun 16 yosh, ayollar uchun esa 15 yosh etib belgilangan<sup>5</sup>.

Qo'shni respublika Tojikistonda 2011-yilga qadar qizlar uchun nikoh yoshi 17 yosh bo'lib, 16 yoshga ham ruhsat berilar edi. 2011-yilgi o'zgartirishlar bilan 18 yosh etib belgilangan.

18 yoshga to'lgan Turkiya fuqarosi hech qanday ruxsatsiz turmush qurishi mumkin, chunki u voyaga yetgan. Voyaga yetmagan qizlar, ya'ni 18 yoshdan katta bo'limgan qizlar, agar ular 15 yoshda va o'g'il bolalar 17 yoshda bo'lsa, ota-onalarining roziligi bilan turmush qurishlari mumkin.

Oila kodeksining 212-moddasiga ko'ra, Nikohlanuvchilar nikoh tuzish haqidagi ariza bilan doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joydan qat'i nazar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga murojaat qiladilar. Avval tomonlardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalga oshirilar edi. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 14-martdagি O'RQ-759-son Qonuni bilan o'zgartirish amalga oshirilgan.

Tomonlar arizani berishda shaxsni aniqlovchi hujjalari: pasport; harbiy bilet, ofitser, praporshikning shaxsiy guvohnomasi; nikohlanuvchilarning biri ilgari nikohda bo'lgan bo'lsa, nikohdan ajralganlikni tasdiqlovchi hujjat (guvohnoma yoki sud qarori); nikohni haqiqiy emas deb topilganligi to'g'risidagi sud qarori; er-xotindan birining o'limi to'g'risidagi guvohnoma ko'rsatilishi kerak(Oila kodeksi, 213-modda).

<sup>4</sup> <https://library-tsul.uz/xalqaro-aloqa-xususiy-huquq-2019>.

<sup>5</sup> <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781315252032/international-family-law-barbara-stark>

Nikoh nikohlanuvchilarning xohishiga ko'ra tantanali ravishda qayd etilishi mumkin. Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo'lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus Qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Shu nuqtai nazardan dunyo tajribasida nikohni tartibga solishning quyidagi ko'rinishlarini farqlash mumkin:

1.Dunyoviy tartibga solish – bunda faqat huquqiy tomondan tartibga solinadi. Faqat huquq normalarigina amal qiladi;

2.Axloqiy-diniy, odat normalari bilan tartibga solish – ayrim mamlakatlarda haligacha faqat odat normalari bilan yoki ahloq normalari bilan tartibsa solish saqlanib qolgan;

3. Aralash tartib – bunda ham dunyoviy-huquqiy ham axloqiy diniy tartiblar amal qiladi. Masalan O'zbekiston Respublikasini oila qonunchiligi ana shunday mamlakatlar sirasiga krita olamiz.

### **Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar**

Oila kodeksining 16-moddasiga ko'ra, quyidagi holatlarda nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar deb topiladi:

1. Nikohga kiruvchilarning loaqlal bittasi ro'yxatga olingan boshqa nikohda bo'lsa;

2. Nasl-nasab shajarasи bo'yicha to'g'ri tutashgan qarindoshlar (bobo, buvi, ota-on, farzandlar, nevara va chevaralar) o'rtasida, tug'ishgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida;

3.Nikohga kiruvchilarning loaqlal bittasi ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'shxotinlilikni taqiqlaydi.

Respublikamizning Jinoyat kodeksi 126-moddasida ko'pxotinlilik, ya'ni ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo'lib yashash jinoyat hisoblanadi.

Ma'lumki, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh oqibatida ko'pchilik bolalar nogiron bo'lib tug'iladi. Tibbiyat vakillari fikricha, yaqin qarindoshlar: amaki, xola, tog'a va ammavachchalarning farzandlari o'rtasidagi nikohiy munosabatlar ham salbiy oqibatlarga olib kelishi

mumkin. Qarindoshlar o'rtasidagi nikohning oqibatlari haqida Imom Abu Homid G'azzoliy o'zining "Ihyou Ulum ad-din" kitobida Payg'ambar alayhissalomdan quyidagi hadisni rivoyat qilgan: "Yaqin qarindoshlarga uylanmangizlar, farzand nimjon bo'lib dunyoga kelishi mumkin". Shuning uchun ham yaqin qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikoh oqibatida farzandlar nimjon va zaif tug'ilishi ko'proq kuzatilgan. Xalq orasida "Irsiyat yetti pusht suradi", degan gap bekorga aytilmagan. Qiz berganda yoki o'g'il uylantirganda yetti pushtini surishtirish ham shundan kelib chiqqan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, qarindosh bo'lmagan oilalarda tug'ilayotgan har mingta go'dakdan ikkitasi nogiron bo'lib dunyoga kelishi kuzatilsa, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohdan tug'ilgan bolalar majruhligi ikki-uch barobar ko'p ekan.

Ruhiy kasalligi bo'lган shaxsning kasalligini yashirib, balki nikohiy munosabat natijasida tuzalib ketadi, deb ayirim ota-onalar qonun buzilishga ham yo'l qo'yadilar. Natijada nikohning haqiqiy ema deb topilishi, oilada nogiron farzand tug'ilishi kabi fojialar ham amaliyotda uchrab turadi.

Oila sog'lom bo'lismeni istagan ota-onasi, farzandining ham sog'lom bo'lishi, uning quradigan oilasi mustahkam bo'lishi uchun harakat qilishi kerak. Bizdagi urf-odatlarga ko'ra farzandlarimizning aksariyat ko'pchiligi ota-onasining roziligi bilan turush quradi. Ota-onasi esa bo'lajak kuyov yoki kelining nasl-nasabini, sog'lig'ini surishtirishi lozim. Bizning jamiyatda islom ta'lilotiga asoslanib, oila qurishda hadisi sharifda keltirilgan talablarga alohida e'tibor beriladi: "Kelin tanlashda 4 xil jixatiga e'tibor beriladi: nasabiga, husniga, moliga va taqvosiga. Sen taqvodori tanlagin".

Dunyo amaliyotida jamiyat barqarorligini ta'minlash uchun nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlarning turlicha ko'rinishlari mavjud. Xususan, Osiyo davlatlarida amakivachalar o'rtasidagi nikoh keng tarqalgan bo'lsa, Qo'shma Shtatlarning ayrim qismlarida bunday nikohlarning tuzilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ko'p xotinlik(polygamy)ga ham turli davlatlarda turlicha qaratildi. Dunyodagi ikki yuzga yaqin davlatning 56 tasida ko'p xotinlikka qonuniy ruxsat berilgan. Jazoir, Pokiston, Malayziya, Quvayt, Keniya, Birlashgan arab amirligi kabi mamlakatlarda ruxsat berilgan bo'lsa, Angola, Namibiya, Yaponiya, Sharqiy Timor kabi mamlakatda

fugorolik huquqi bo'yicha noqununiydir. Bundan tashqari ba'zi davlatlarda irqiy, dinniy ta'qiqalar ham uchraydi. Misol uchun 1984-yilda qabul qilingan Jazoir Xalq Respublikasining Oila kodeksining 31-moddasiga ko'ra muslimalarni nomusulmonlarga(g'ayridinlarga) turushga chiqishi ta'qilangan<sup>6</sup>. Yuqorida ta'kidlanganidek, turli davlat fugorolari yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida nikoh munosabatiga kirishilsa kolliziyaga uchrashi mumkin.

### Nikohlanuvchilarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish

*Nikohlanuvchi shaxslar davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida bepul asosda tibbiy ko'rikdan o'tadilar. Tibbiy ko'rikdan o'tish hajmi va tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.*

*Nikohlanuvchi shaxslar ellik yoshdan oshgan bo'lsa, shuningdek ushu Kodeks 13-moddasining beshinchini qismida ko'rsatilgan alohida hollar mavjud bo'lganda tibbiy ko'rikdan o'z roziligi bilan o'tkaziladi (Oila kodeksi, 17-moddasi).*

Oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hamda kelajagi hisoblanganligi, aosisy funksiyalaridan biri avlodlar davomiyligini ta'minlash bo'lganligi uchun ham yangi dunyoga keluvchi avlodlarning sog'lomligi ana shu jamiyatning diqqat markazida bo'lishi lozim. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi Oila qonunchiligidagi nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishning majburiy tartibi belgilangan.

Tibbiy ko'rikdan o'tish faqat bo'lajak er-xotinning roziligi asosida fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organlari yo'llanmasiga ko'ra tuman (shahar) poliklinikalari, xotin-qizlar tibbiy maslahatxonalarini va davlat sog'liqni saqlash tizimining boshqa muassasalarini tomonidan bepul amalga oshirilishi, Oila kodeksini qabul qilgan vaqtida ko'rsatilgan edi. Hozirgi kunda nikohni qayd qilishda "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2003-yil 25-avgustda 365-son Qarori qabul qilindi va 2004-yil 1-yanvardan boshlab tibbiy ko'rikdan o'tish majburiy etib tayinlandi. Bu qarorning mazmuni quyidagilardan iborat.

[https://www.equalitynow.org/discriminatory\\_law/algeria\\_the\\_family\\_code\\_of\\_1984\\_modified\\_by\\_ordinance\\_no\\_0\\_0\\_0\\_of\\_27\\_february\\_2005/](https://www.equalitynow.org/discriminatory_law/algeria_the_family_code_of_1984_modified_by_ordinance_no_0_0_0_of_27_february_2005/)

Mazkur Nizomning amal qilishi nikohlanuvchi shaxslarning fuqaroligidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi FHDYO organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladigan barcha nikohlarga joriy etiladi.

Nikohlanuvchi shaxslar doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyidagi tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida bepul dispanserizatsiyadan, ya'ni kardiolog, endokrinolog, revmatolog, urolog mutaxassislari jalb qilingan holda nikoh oldi tibbiy ko'rikdan o'tadi hamda qo'shimcha UTT, EKG, umumiyl qon tahlili, qondagi qand miqdori aniqlanadi.

Nikohlanuvchi shaxslar uchun tibbiy ko'rik jarayonida genetik tekshiruvlarga zarurat bo'lganda, ularning o'zaro kelishuvi asosida ushbu tekshiruvlar pullik asosda amalga oshirilishi mumkin.

Nikohlanuvchi shaxslar mazkur Nizomga muvofiq hajmlarda psixik, narkologik, tanosil kasalliklari, sil kasalligi va OIV(odam immunitet tanqisligi virusi) OITS yuzasidan tibbiy ko'rikdan o'tadi.

Nikohlanuvchi shaxslar FHDYO organlari tomonidan tibbiy ko'rikdan o'tish uchun yashash joyidagi sog'liqni saqlash tizimining tegishli tibbiyot muassasalariga yuboriladi.

Nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rigi FHDYO organlari tomonidan berilgan yo'llanma bo'yicha bepul o'tkaziladi.

Agar nikohlanuvchi shaxs o'z xizmati yoki ishi turiga ko'ra muayyan tibbiyot muassasasiga biriktirilgan bo'lsa, u mazkur muassasada ko'rikdan o'tkaziladi.

Ozodlikdan mahrum etish joylaridagi shaxslarning tibbiy ko'rigi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tibbiyot muassasalarida o'tkaziladi.

Tibbiy ko'rikdan o'tish muddati nikohlanuvchi shaxslar tibbiyot muassasasiga murojaat kilgan kundan boshlab ikki haftadan oshmasligi kerak.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan nikohlanayotgan chet ellik fuqarolar va fuqaroliqi bo'lman shaxslar o'zlarining vaqtincha yashash joyida tibbiy ko'rikdan o'tadilar.

Qonun ruhiy kasal yoki aqli zaif bo'lgan shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni nazarda tutmaydi. Ruhiy nosog'lom shaxslarning nikoh tuzishi oila qonunchiligmizning asosiy prinsipiiga ziddir va bunday shaxslar o'rtasida nikoh tuzilishi man etiladi. Bu esa, albatta, tug'ilajak avlodlarning sog'ligini, turli salbiy

oqibatlarning oldini olish maqsadini ko'zlaydi. Insonning sog'ligi uning bugungi kuni va kelajak avlodning barkamolligi jamiyatimizning eng katta boyligidir. Fuqarolarning sog'ligini saqlash va uni mustahkamlash - davlatning eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. 2007-yil 17-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida" Qaror qabul qildi. Bu qarorga binoan *endilikda 50 yoshdan katta shaxslar nikoh qurishda tibbiy ko'rikdan ihtiyoj ravishda o'tadilar*. Undan tashqari, tibbiy ko'rik natijalari tibbiyot muassasalarining nazarida bo'lishi, maxsus daftarda tibbiy ko'rikdan o'tuvchilar imzo qo'yishlari kabi ma'suliyatlar yuklatilgan.

Shu tufayli Oila kodeksi nikoh tuzuvchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo'yicha ularga maslhat berish davlat sog'liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshirilishini belgilaydi. Bunday tekshirish o'tkazishdan maqsad tibbiy-irsiy kasalliklardan kelajak avlodni asrash, shuningdek er-xotinlarni oldindan oghlanantirib, ular kasallanishining oldini olishdir.

Psixik kasalliklar (shizofreniya, epilepsiya, oligofreniya) mayjudligini tekshirish doimiy yoki vaqtinchalik yashab turgan joyidagi poliklinikaning psixiatr vrachi tomonidan amalga oshiriladi.

Agar nikohlanuvchi shaxslar psixik kasalliklar bo'yicha dispanser hisobida tursa, ularga belgilangan namunadagi ma'lumotnomaga beriladi va vrach tuzilayotgan nikohning ehtimol tutilgan tibbiy-ijtimoiy oqibatlari to'g'risida tushuntirish beradi.

Narkologik tekshirish yashash joyidagi narkolog vrach tomonidan (narkologiya dispanserida yoki tuman narkologiya kabinetida) o'tkaziladi.

Narkologik hisobda turmagan va tekshirish davrida ularda psixopatologik o'zgarishlar aniqlanmagan nikohlanuvchi shaxslarga ma'lumotnomada tegishli xulosa ko'rsatiladi.

Klinik tekshiruvdan, poliklinikadagi tekshirishlar ma'lumotlari, flyuorogrammalar o'rganib chiqilgandan keyin, shuningdek zarurat bo'lganda qo'shimcha ravishda o'tkaziladigan rentgenologik, bakteriologik tekshirishlar va boshqa laboratoriya tekshirishlari natijalari o'rganib chiqilgandan so'ng ftiziatri

tomonidan tekshirilayotganda sil kasalligi borligi yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotnomha rasmiylashtiriladi. Ma'lumotnomha ftiziatri, bosh vrach tomonidan imzolanadi va sil kasalligiga qarshi dispanserning muhri bilan tasdiqlanadi.

Nikohlanuvchi shaxslar OIV/OITSga tekshirishdan o'tish uchun yashash joyidagi yashirin tekshirish xonasiga yoki OITS markazlariga murojaat qiladilar.

Nikohni qayd etishda FHDY organlari nikohlanuvchi shaxslarning tibbiy ko'rnikdan o'tganliklariga va ularning ushbu tekshirish natijalaridan xabardorligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Nikohlanuvchi shaxslar nikoh qayd etilgunga qadar ikkinchi tomonni tibbiy tekshirish natijalaridan xabardor qilishi shart.

Tibbiy ko'rnikdan o'tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va ikkinchi tarafga birinchi tarafning roziligi bilan bildirilishi mumkin.

Agar nikohlanuvchi shaxslardan biri o'zida tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, ikkinchisi nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etishga haqli.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 113-moddasiga ko'ra o'zida tanosil kasalligi borligini bila turib, bu kasalni boshqa shaxsga yuqtirgan kishi jinoiy jazoga tortiladi.

### **Nikohni tartibga solishning xalqaro tajribasi**

Bu huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida belgilangan. Shuningdek, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro paktning 23-moddasida Oila jamiyatning asosiya bo'g'ini ekanligi, nikoh yoshidagi erkaklar va ayollarning turmush qurish va oila qurish huquqi tan olinishi hamda hech qanday nikoh erkin va to'liq roziliksiz tuzilmasligi bayon etilgan. Bu qoidalar umumiyligi bo'lib, nikoh munosabatiga kirish erkinligini kafolatlaydi. Har bir davlat esa o'zidagi nikohlarni uni huquqiy tartibini belgilaydi. Bu to'g'risida "Nikohni qabul qilish va haqiqiyligini tan olish to'g'risida"gi 1978-yildagi konveniyaning 2-moddasida "Nikohga qo'yilgan rasmiy talablar mamlakat qonunchiligi bilan tartibga solinadi" deyilgan<sup>7</sup>. Bundan

tushunishimiz mumkinki, har bir davlat nikohga qo'yiladigan rasmiy talablarni o'zi qo'yadi. Bu talablar nikoh yoshi, nikohga qo'yiladigan talab va ta'qiqlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Dunyo mamlakatlarida nikohni tartibga solishning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Huquqiy tartibga solish;
2. Diniy tartibga solish;
3. Aralash(diniy-huquqiy) tartibga solish;
4. An'anaviy (Odat normalari bilan) tartibga solish.

Konstitutsiyamizning 1-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" hisoblanadi. Shu minosabat bilan bizning mamlakatimizda nikoh huquqiy tartibga solinadi. Qolaversa milliy-diniy an'analarga asoslanib, aralash tartibga solish holati ham mavjud.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi o'rtasida 1993-yil 22 yanvarda Minskda qabul qilingan O'zbekiston tomonidan 1993-yil 6-mayda ratifikatsiya qilingan: "Fuqarolik, oila, jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risida"gi konvenisyada hamda mazkur konvensiya yuzasidan 1997-yil 28-martda qabul qilingan oila huquqlarining alohida normalari nazarda tutilgan protokolda oilaviy munosabatlariga oid kollizion normalar belgilangan. Ushbu konvensiyaning ikkinchi bo'limi uchinchi qismi (Oila ishlari) deb nomlanib, o'zida 26-37-moddalarini qamrab olgan holda, nikoh tuzish, er-xotinning o'rtasidagi munosabatlar, nikohdan ajrashish, vasiylik va homiylik kabi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo'llaniladigan huquqqa oid qoidalar nazarda tutilgan<sup>8</sup>. Bu qoidalarning mavjudligi konvensiyaga a'zo davlatlar o'rtasida oila huquqi bo'yicha kollizion masalalarni barcha ishtirokchi davlatlar o'rtasida bir xil tartibga soladi hamda boshqa davlatlarning vakolatli organi tomonidan qabul qilingan qarorlarni tan olinishini ta'minlaydi. Bunday kelishuvlardan tashqari "Oqsoq nikohlarning yuridik oqibati" to'g'risida alohida xalqaro kelishuv ham bo'lishi lozim.(Oqsoq nikoh deb bir mamlakat hududida uning qonunlari bo'yicha tuzilgan nikohning ikkinchi bir mamlakat hududida tan olinmasligiga aytildi). Bu kelishuvning bo'lishi ishtirokchilarining

<sup>7</sup> <https://www.taylorfrancis.com/books/mono/10.4324/9781315252032/international-family-law-barbara-stark>.

<sup>8</sup> [https://library-taul.uz/oila\\_huquqi-2017](https://library-taul.uz/oila_huquqi-2017).

birining shaxsiy qonuni bo'yicha tan olinmagan nikohlar bilan bog'liq mulkiy-nomulkiy nizolarni hal qilishda ahamiyat kasb etadi.

### Mavzu bo'yich keys topshiriqlari

1. Seminar darsida o'qituvchi oilaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va turlarini tushuntirayotgan vaqtida, talaba Nigmatov tomonidan o'qituvchiga oilaviy-huquqiy munosabatlarning turlari hisoblangan shaxsiy va mulkiy munosabatlardan qaysi biri ustuvor xarakterga ekanligi xususida so'radi. Shunda o'qituvchi oilaviy-huquqiy munosabatlarda shaxsiy munosabatlar ustuvor xarakterga ekanligini ta'kidlaganida, Nigmatov nima uchun shaxsiy munosabatlar ustuvor ekanligini yanada ham kengroq tushuntirishni iltimos qildi.

*Sizningcha, o'qituvchi qanday javob bergan va nima uchun oilaviy-huquqiy munosabatlarda shaxsiy munosabatlar ustuvor xarakterga ega?*

*Shaxsiy munosabatlarning ustuvor xarkterga ega ekanligi mezonlarini sanab bering.*

2. Yuridik shaxs hisoblangan FHDYO organi oila huquqining subyekti bo'la oladimi? Yuridik faktlar va ularning turlarini sanab ko'rsating. Oila huquqida da'vo muddati joriy qilinmaydigan talablar qaysilar? Oila huquqida qarindoshlik darajalari nimalar bilan belgilanadi? Quda-anda hamda qayin-bo'yinlar o'rtasida shaxsiy hamda mulkiy munosabatlar yuzasidan nizo kelib chiqqan hollarda ushbu nizo oila huquqi normalari bilan tartibga solinib, hal qilinadimi? Oila huquqida buzilgan huquqlar qanday amalgalashiriladi va u qanday himoya qilinadi?

3. Fuqaro Qosimova sudga fuqaro Qosimov bilan tuzilgan nikohini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo bilan murojaat etadi. Da'vogar arizasida shuni ko'rsatadiki, javobgar nikohga oila qurish maqsadisiz kirgan, unga Toshkentdan propiska olish masalasini hal qilish kerak bo'lgan. Shu tufayli, er-xotin o'rtasida mehr yo'qligini, munosabatlari yomonligini, javobgar yaqin orada sud orqali turar joyni bo'lib olmoqchi ekanligini aytadi. Qosimov bu ma'lumotlarni rad etadi hamda sudga tushuntirish beradiki, u oila qurish niyati bilan nikohga kirgan, biroq keyinchalik da'vogarning aybi tufayli o'rtaqa sovuqchilik tushgan. Shuningdek, javobgar shuni

ta'kidlaydiki, u da'vogar bilan 2,5 yil birga yashagan, oylik maoshini doimiy ravishda oilasiga olib kelgan, xotiniga g'amxo'rlik qilgan va uning birinchi nikohidan bo'lgan yosh bolasiga otalik munosabatida bo'lgan. Ammo u o'rtada paydo bo'lgan sovuq munosabatlar tufayli u haqiqatdan yaqin orada sud orqali turar joyni bo'lib olmoqchiligidini ko'rsatadi.

*Qosimova da'vosi bo'yicha sud qanday qaror qabul qilishi kerak?*

*Nikohni sohta deya uning haqiqiy emas deb topilishi qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi? Taraflarning mulkiy va nomulkiy huquqlariga bu qanday ta'sir etadi?*

**Soxta nikoh va uning huquqiy oqibatlari haqida fikr yuriting.**

4.I.Erkinov hamda A.Toshmatovalar FHDYO organiga ularning nikohini qayd etishlarini so'rab murojaat qiladilar. Shundan bir necha kun o'tganidan so'ng, FHDYobolimi mudiriga I.Erkinov hamda A.Toshmatovalarning nikohga kirish uchun ariza bergenliklaridan xabar topgan Mirabzalova ularning nikohini rasmiylashtirmasliklarini, chunki Mirabzalova bir necha yildan beri I.Erkinov bilan birga yashayotganligini, ushbu davr ichida ular o'rtasida hech qanday nizo yo'qligi, ular o'rtasida 5 yoshli o'g'llari borligini, lekin ular qonuniy nikohda emasliklarini bildiradi. I.Erkinov o'zini o'g'lining otasi ekanligini tan olganligini Mirobidova ta'kidlab o'tadi.

*FHDYO bo'limi mudirasi Mirabzalovaga qanday tushuntirish berishi lozim FHDYO organi I.Erkinov hamda A.Toshmatovalarning nikohini rasmiylashtirmaslikka haqlimi?*

5. Gulnora Rajapova turmushga chiqquniga qadar og'ir jarrohlik operatsiyasini boshidan o'tkazadi va shifokorlarning tibbiy xulosasiga ko'ra u kelajakda farzand ko'ra olmasligi aniqlanadi. Kamolov Yashar bilan nikoh munosabatiga kirishib, Rajapova o'zining farzand ko'ra olmasligini yashiradi, lekin Kamolov Yashar esa kelajakda farzandlari bo'lishini xohlar edi.

Ularning nikohlari qayd etib o'tilganidan bir necha oy o'tganidan so'ng Kamolov Yashar xotinining farzand ko'ra olmasligini bilib qoladi va FHDYO organlarini nazorat qiluvchi yuqori organga tuman FHDYO bo'limi mudirining ustidan shikoyat yozmoqchi ekanligini, chunki ularning nikohini qayd etgan FHDYO

bo'limi mudiri Kamolovning fikricha, o'z vazifasini bajarmay Rajapova Gulnoraning salomatligi xususida bo'lajak erini ogohlantirmagan.

*Kamolov Yasharning arzi o'rinnimi?*

*Rajapova Gulnora va Kamolov Yashar o'talaridagi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bormi?*

### Testlar

1. \_\_\_\_\_ bu erkak bilan ayol o'tasidagi muayyan ittifoq va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma'qullanishining tarixiy shaklidir.

A. Nikoh      B. Oila    C. Qadriyat    D.Ota-onalik vazifasi

2. "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" **Ushbu huquqiy asos Konstitutsiyaning qaysi moddasiga tegishli?**

A. 58      B.76      C. 46      D.80

3. Oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir. Har bir inson oilali bo'lishni xohlaydi va buni baxt deb biladi. U muomala layoqatiga to'liq ega bo'lgach, mustaqil ravishda o'z oilaviy munosabatlariga kirishga xaqli. **Ushbu huquqiy asos Oila kodeksining qaysi moddasiga tegishli?**

A. 4      B.10      C.37      D.15

4. Oila huquqining asosiy qoidalari va vazifalari; oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi; bu munosabatlar subyektlari va obyektlari; oila huquqi manbalari; oilaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjalarning qo'llanilish asoslari; oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanilishi Oila huquqining qaysi qismiga kiradi?

A. Umumiy qism      B.Maxsus qism      C. ikkalasiga birdekktaalluqli      D. JHQ

### Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Huquqiy ma'noda oila nima?
2. Oilaviy huquqiy munsabatlar hamda ijtimoiy va fuqarolik huquqiy munosabatlarning farqli jixatlari nimada?

3. Oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solishda jamoat tashkilotlarining rolini qanday baholaysiz?

4. Nikoh tuzishda bunday shart va tartib nima uchun zarur?

5. "Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorida nimalar ifodalangan?

6. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar ro'yhati qat'iyimi, buning ijobiy va salbiy jihatlari nimada?

7. Nikohni tartibga solishning xalqaro tajribasi haqida qanday shaxsiy mulohaza berasisiz?

8. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik guruhlartda sharxlang:

9. **15-modda. Nikoh yoshi.** "Nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o'n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda (homiladorlik, bola tug'ilishi, voyaga yetmagan shaxsning to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinishi (emansipatsiya), nikohga kirishni xohlovchilarining iltimosiga ko'ra nikoh davlat ro'yxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin."

### Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar

1. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti, 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>).

2. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi NIZOM (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.08.2003 yildagi 365-son)

3. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti. 2017.

4. M.X. Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.

5. "Mustahkam oila yili" davlat dasturi. 2012-yil.(strategy.uz)

6. advice.uz sayti savol-javoblari.

7. civil.uz.

8. stat.uz.

### III bob. ER VA XOTINNING OILAVIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

#### Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1.1. Oila huquqida er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatları.
- 1.2. Er va xotinning mulkiy-huquq va majburiyatları.
- 1.3. Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi. Nikoh shartnomasi mazmuni va ahamiyati.

**Tayanch so'zlar:** shaxsiy huquq va majburiyatlar, mulkiy huquq va majburiyatlar, nikoh shartnomasi, xorijiy tajriba, milliy-an'naviy qadriyatlar, er-xotin o'rtaсиди huquq va majburiyatlarni tartibga solishning chet el tajribasi.

#### Oila huquqida er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatları

Oilaviy munosabatga kirishga tomonlar – er va xotin o'rtaсиди o'zaro huquq va majburiyatlar eng avvalo oilaning muqaddasligi, oilaning sha'ni, qadr-qimmati, bo'lajak farzandlarning munosib tarbiya topmoqliklari, kamoliga erishish bilan belgilanadi. Huquqiy jihatdan nikoh tuzish to'g'risidagi ariza, arizani bergen shaxslar uchun huquqiy oqibat tug'dirmaydi. Ariza uni bergenlar tomonidan istalgan vaqtida qaytarib olinishi mumkin. Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ro'yxatga olingandan boshlab nikoh tuzganlar er-xotin deb hisoblanadilar va shu paytdan e'tiboran ular o'rtaсиda er-xotinlik huquq va majburiyatlar vujudga keladi.

Er va xotin o'rtaсиda endilikda mulkiy va nomulkiy munosabatlar huquq normalari bilan tartibga solinadi. Mulkiy munosabatlarda erving o'z mulki, xotinning o'z mulki, o'rtaсиda umumiy mulk, bolalarga tegishli mulk va boshqa mulklar vujudga keladi.

Oila quruvchilarning qonuniy nikoh munosabatlariga kirishi ularning huquqiy holatini o'zgartiradi. Nikohga kirdunga qadar ularning biri "qiz", ikkinchisi "yigit" deb nomlanib kelgan bo'lsa, nikoh qayd etilgandan so'ng ular er-xotin deb nomlanadi va ularning

o'rtaсидаги munosabatlar faqatgina axloqiy qoidalar bilan emas, balki huquqiy qoidalar bilan ham tartibga solinadi.

Ayollarimiz jamiyatda har tomonlama teng huquqqa ega bo'lганларидек endilikda oilada ham teng huquqli bo'lshilarini qonunlarimizda belgilangan. Respublikamiz Konstitutsiyasining 58-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar deb yozib qo'yilgan. Lekin ayol doim ona, sevikli yor, xotin ekanligini esidan chiqarmasligi lozim. Teng huquqlilik bu mehnat qilishda bir xil maosh olishi mumkinligini, o'zi tanglagan ishda ishlashi, oilada, jamiyatda o'z fikrini bildirishi mumkinligi va boshqalarini bildiradi. Oilada esa, ayol ayolligini, erkak esa erkaklik majburiyatlarini aniq bilishi, oilani saqlanishiga, ajrimning oldini olishga ijobjiy yondashishi lozim. Aksariyat oilada ayollar farzandlik bo'lганлари uchun, bolasi, uy ishlari bilan band bo'lib, jamoa ishlarida yoki davlat ishlarida ishlamaydi. Bu ularning oiladagi tengliklariga putur yetkazmasligi kerak, eri esa ayol ishlagaganligini, oila budgetiga hissasini qo'shmagانligini unga ta'na qilmasligi kerak. Bu huquqiy qoidalar amal qilgандагина oilada tenglik, tinch va farovon hayot kechiriladi.

#### Oilada er va xotinning teng huquqliligi

*Er va xotin oilada teng huquqlardan foydalananilar va ular teng majburiyatlarga egadirlar(Oila kodeksi, 19-modda).*

Oilada er va xotinning teng huquqliligi va ularning teng majburiyatga egaligi to'g'risidagi qoida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tilli, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar" degan konstitutsiyaviy normadan kelib chiqadi.

Nikoh natijasida vujudga kelgan er-xotinning teng huquqlari shaxsiy va mulkiy huquqlarga bo'linadi. Shaxsiy huquqlar mulkiy huquqlardan farq qilib, iqtisodiy mazmunga ega emas, fuqarolarning shaxsiyati bilan bevosita bog'liq va undan ajratib bo'lmaydi. Bu munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish asosida qurishni hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'uliyatligini taqozo etadi.

Er-xotin o'rtasida quyidagi shaxsiy tengliklar vujudga keladi:

### **1. Familiya tanlashdagi teng huquqlilik (Oila kodeksi, 20-modda)**

Nikoh tuzish vaqtida er va xotinning familiya tanlashi ularning oilada to'liq teng huquqligi tamoyilidan kelib chiqadi. *Ular o'zaro kelishib er yoki xotinning familiyasini umumiy familiya qilib tanlashlari yoki har biri nikohgacha bo'lgan familiyasini saqlab qolishlari mumkin.* Bu masala er va xotinning har biri tomonidan ikkinchisining yoki boshqalarning tazyiqisiz erkin hal qilinishi lozim.

"Endilikda nikohlanuvchilarga qo'shfamiliyalikka ruxsat etiladi. Masalan, kuyov Ahmedov kelin Shuhratova bo'lsa, shunda kuyov Ahmedov-Shuhratov, kelin esa Ahmedova-Shuhratova bo'lishi mumkin", - deyilgan 2020-yil 4-sentabrda chiqqan OAV xabarlarida. OAV larida taklif-tavsiya xarakteriga ega maqolalarda keltirilgan ushbu masala qonunchiligidan qayd etilmagan.

Ma'lumot uchun, Yevropa jamiyatida, qo'sh familiya olish holatlari ko'pincha ikki mashhur oila vakillari nikoh qurganda sodir bo'ladi. Chunki har ikkala oila ham o'ziga yarasha mashhur va o'ziga yarasha hurmatga ega bo'lgani tufayli, ularning vakillari o'z oilasi erishgan ushbu "obro'yini" yo'qotishni yoki almashtirishga rozi bo'lmaydilar.

Rossiyada ham qo'sh famiyali olish holatlari uchrab turadi.

Lekin bugungi Oila kodeksida bu haqida hech qanday huquqiy asoslar kiritilmagan.

*Er va xotindan birining o'z familiyasini o'zgartirishi boshqasining ham familiysi o'zgarishiga olib kelmaydi.*

### **2. Er-xotining bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishdagi tengliklari (Oila kodeksi, 21-modda)**

Oilaviy turmushning barcha, jumladan, bolalar tarbiyasi masalalarini er va xotin birgalikda hal qilishlari lozim.

Oilaviy hayotda er va xotinning birontasi ikkinchisiga nisbatan biron-bir ustun huquqdan foydalanishi mumkin emas. Ular o'rtasidagi tenglik oiladagi barcha masalalarni birgalikda hal qilish tamoyillari bilan ta'minlanadi. Ular kelishib, bir-birlarini hurmat qilib, teng huquqliklarini anglab ish tutishlari oila mustahkam bo'lishiga zamin yasaydi.

Oilaning mustahkamligi va farovonligi er-xotinning birgalikdagi harakatiga bog'liq. Er-xotin birgalikda ham moddiy, ham ma'navyi o'zaro yordam ko'rsatishi, bir-birini qo'llab-quvvatlashi lozim. O'zaro yordam ulardan biri kasalligi, nogironligi, homiladorligi va boshqa sabablarga ko'ra mehnatga layoqatsiz bo'lib qolganda, ayniqsa, seziladi. Voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish oila qonunchiligining ustuvor tamoyillaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Er-xotin oilaning moddiy ta'minlanishi bilan bir qatorda, oilaning barcha a'zolari, ayniqsa, bolalarining har taraflama kamol topishi, ma'navyi va jismoniy sog'lom rivojlanishlari, ulg'ayishlari to'g'risida qayg'urishlari lozim.

Oilada ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashlari to'g'risidagi majburiyatlar Respublikamiz Konstitutsiyasining 81-moddasida o'z ifodasini topgan.

### **3. Er-xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanglashdagi teng huquqliliklari (Oila kodeksi, 22-modda)**

Er-xotin turmushda o'zları sevgan, tanglagan kasblarida ishslash, mashg'ulotlar bilan shug'ullanish huquqlariga egalar. Bu konstitutsiyon normanining oila huquqida ham amal qilishini ko'rsatadi. Oila qonunchiligi er-xotinga turar joy tanlashda ham teng huquq beradi. Ular erining yoki xotininining uyida yoki kelishgan holda boshqa joylarda yashashi mumkin. Aslida bu masalalar oila manfaatini hisobga olgan holda o'zaro hurmat va ishonch asosida hamijihatlik bilan bamaslahat hal qilinsa, oila yanada mustahkam bo'ladi.

Er va xotin farzand tarbiyasida teng ishtirok etishlari.

Oilada farzand tug'ilishi ota-onha tomonidan ulkan quvonch bilan kutiladi. Homiladorlik vaqtida xotiniga g'amxo'rlik qilish, og'irini yengil qilish, avaylab-asrash erining va boshqa oila a'zolarining burchi bo'lmog'i lozim. Farzand sog'lom tug'ilishida faqat ona emas balki ota ham muhim o'rinnegallaydi.

Farzand tug'ilganidan so'ng uni boqish, sog'lom sharoit ta'minlash er va xotinning burchi bo'lib hisoblanadi. Ota-onha bolanining oldida teng huquqli javobgar shaxs ekanliklarini doim bilishlari shart. Sog'lom munosabatda tarbiya olgan va o'sgan bola jamiyatimizga unumli foyda keltiradi. Shu yerda I.Karimovning: "...

agar ota oilada o'zini tutishni bilmasa, ahloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga qo'pol muomala qiladigan bo'lsa, bu holat, tabiiyki, bola ma'naviy olamining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, vaqtি-soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk bir odat sifatida namoyon bo'ladi".

### **Er va xotinning mulkiy-huquq va majburiyatlari**

*Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo'lajak er-xotinning umumiy mablag'lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko'rsatilmagan bo'lsa, ularning birgalikdagи umumiy mulki hisoblanadi.*

*Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri jumlasiga (er va xotinning umumiy mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo'ljallanmagan boshqa pul to'lovleri (moddiy yordam summasi, mayib bo'lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo'qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to'langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiy daromadlari hisobiga olingan ko'char va ko'chmas ashyolar, qimmatli qog'ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagи ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulkleri, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiylashtirilgan yoxud pul mablag'lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo'lishidan qat'i nazar, ular ham er va xotinning umumiy mol-mulk hisoblanadi.*

*Er va xotindan biri uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi.*

*Fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligi a'zolarining birgalikdagи mulki bo'lgan mol-mulkka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari fermer xo'jaligi va dehqon*

*xo'jaligi to'g'risidagi qonunlarda belgilanadi. Fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligining mol-mulkini bo'lish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 223 va 225-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi (**Oila kodeksi, 23-modda**).*

Oilada er-xotinning umumiy mulki, har birining alohida mulki, shaxsiy foydalanishdagi buyumlari, hadya qilinganda vujudga kelgan mulklari bo'lishi mumkin.

Er va xotin ularning birgalikdagi umumiy mulki bo'lgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda teng huquqlarga egadir.

Er va xotindan birining umumiy mol-mulkini tasarruf etishi bilan bog'liq bitim tuzilganda bu harakat boshqasining roziligidagi ko'ra amalga oshirilayotganligini anglatadi.

Er-xotindan birining umumiy mol-mulkni tasarruf etish yuzasidan amalga oshirgan bitimi boshqasining bunga roziligi bo'lmaganligi sababligina bildirgan talabiga binoan va faqat bitimni amalga oshirgan ikkinchi tomon amalga oshirilgan bitim yuzasidan er (xotin) rozi emasligini oldindan bilgani yoki bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollarda sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Er (xotin) o'zining nomiga rasmiylashtirgan umumiy ko'chmas mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligin olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.

Oila kodeksining 25-moddasida er va xotinning har biriga tegishli mulk turlari ko'rsatilgan. Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulk ulardan har birining o'z mulki hisoblanadi.

Demak, er yoki xotindan faqat biriga tegishli bo'lgan va u tomonidan tasarruf etiladigan mulk xususiy mulk hisoblanadi.

Xususiy mulkka quyidagilar kiradi:

Er yoki xotinning nikohga qadar faqat o'ziga tegishli bo'lgan mulki (masalan, uy, uy jihozlari, omonat kassasiga qo'yilgan pul, qimmatbaho qog'ozlar va boshqalar);

Nikoh davomida hadya yoki meros tariqasida olgan mulklari;

To'y sovg'alari, agar ular er yoki xotindan birining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan bo'lsa (qimmatbaho va serhasham buyumlar bundan mustasno); Umumiyl qoida bo'yicha sovg'a qilingan taqinchoqlar ham kim tomonidan berilganligidan qatiy nazar olgan tomonning shaxsiy mlki hisoblanadi. Afsuski, sud amaliyotida ajrim vaqtida bir taraf o'zi bergen sovg'ani ham qaytarishni talab qilish holatlari uchrab qoladi. Bu esa diniy qoidalaramizga ham to'g'ri kelmaydi.

Er yoki xotin tomonidan olingan Davlat mukofotlari va sovg'alar (masalan, oltin soat, mototsikl va boshqalar);

Er-xotinning nikoh tuzishga qadar olgan hadyalari (kelinning sepi va hakozolar), bu buyumlardan turmushda birqalikda foydalanishdan qat'iy nazar, ularning birqalikdagi umumiyl mulki turiga kirmaydi.

Er va xotinning shaxsiy foydalanadigan mulklari ham qonunda ko'rsatilgan. Qimmatbaho buyumlar va zebu-ziynatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa kabilar), garchi nikoh davomida er va xotinning umumiyl mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi.

Er va xotinning umumiyl mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek kreditor er va xotindan birining umumiyl mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiyl mol-mulkni bo'lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin.

Er va xotinning umumiyl mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin. Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiyl mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvini notarial tartibda tasdiqlanishi mumkin.

Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiyl mol-mulkini bo'lish, shuningdek er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Umumiyl mol-mulkni bo'lishda sud er va xotinning har biriga mulkning qaysi qismi berilishi lozimligini aniqlaydi. Er (xotin)ga unga qarashli ulushdan oshiq qiyamatga ega bo'lgan mol-mulk beriladigan hollarda, xotin (er)ga tegishli pul yoki o'zga kompensatsiya belgilanishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda, sud er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mol-mulkni ulardan har birining o'z mulki deb topishi mumkin.

Voyaga yetmagan bolalar ehtiyojini qondirish uchun olingen buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal, maktab va sport jihozlari, musiqa asboblari, bolalar kutubxonasi va boshqalar) bo'linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasa, unga kompensatsiyasiz beriladi.

Er va xotinning umumiyl mol-mulki hisobidan o'rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo'yilgan omonatlar o'sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiyl mol-mulkini bo'lish paytida e'tiborga olinmaydi.

Er va xotinning umumiyl mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo'lingan taqdirda, er va xotin mol-mulkining bo'linmay qolgan qismi, shuningdek er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birqalikdagi umumiyl mulkini tashkil qiladi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiyl mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi (*Oila kodeksi, 27-modda*).

Er va xotinning umumiyl mol-mulkini bo'lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o'rta sidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, er va xotinning ulushlari teng deb hisoblanadi.

Sud voyaga yetmagan bolalar manfaatlaridan va (yoki) er va xotindan birining e'tiborga loyiq manfaatini hisobga olib, jumladan, agar er yoki xotin uzrsiz sabablarga ko'ra daromad olmagan bo'lsa yoxud er va xotinning umumiyl mol-mulkini oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo'lsa, er va xotinning umumiyl mol-mulkidagi ulushlari tengligidan chekinishga haqlidir.

*Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda er va xotinning umumiy qarzları ularga belgilangan ulushlarga mutanosib ravishda har ikkalasi o'rtasida taqsimlanadi.*

*Agar er va xotindan biri umumiy mol-mulkni er yoki xotinning erkiga zid ravishda va oila manfaatiga mos bo'lman holda o'z xohishiga ko'ra sarflagan yoki boshqa shaxsga o'tkazgan bo'lsa, uni bo'lishda bu mol-mulk yoki uning qiymati hisobga olinadi (Oila kodeksi, 28-modda).*

### **Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi.**

#### **Nikoh shartnomasi mazmuni va ahamiyati**

O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligidagi ilk bor nikoh shartnomasi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lg'usi mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin.

Oila kodeksi er-xotinlarning qonuniy mulki bilan birga, uning II- bo'limi 6-bobining 29-36-moddalarida belgilangan "Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi" ham kiritilgan. Ularda nikoh shartnomasi tushunchasi, shartnomasini tuzish asoslari, nikoh shartnomasining mazmuni, nikoh shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish, nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish, haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish, nikoh shartnomasi tuzish, uni o'zgartirish va bekor qilishda kreditorlar huquqlarining kafolatlari va er-xotin o'rtasidagi mulkiy-shartnomaviy munosabatlarni bayon etilgan.

Nikoh shartnomasi taraflari faqat nikohga kiruvchilar va nikohdagagi er-xotindan iborat bo'lishi mumkin. Nikoh shartnomasi notarial kontoralarda tuziladi.

Nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvni nikoh shartnomasi deb hisoblanadi.

Endilikda qonuniy mulk tartibini saqlab qolish bilan bir qatorda mulknii shartnomaviy tartibga solish mumkinligi qonunlashtirildi. Er va xotin nikoh shartnomasiga binoan ixtiyoriy va kelishgan holda nikohda bo'lgan davrida yoki ular nikohdan

ajratilgan paytlarida o'z huquq va majburiyatlarini aniqlab olishlari mumkin.

Nikoh shartnomasi taraflari nikohga kiruvchilar va nikohdagagi er va xotindan iborat bo'lishi mumkin. Bu shartnomasi er-xotin o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni sud amaliyotida to'g'ri hal qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 30-moddasiga binoan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi Oila kodeksi 31-moddasining 5-qismiga binoan "er-xotinning huquq layoqati yoki muomala layoqatini, ularning o'z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o'rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo'lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta'minot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini chekllovchi qoidalarni, er va xotindan birini o'ta noqulay holatga solib qo'yuvchi yoxud oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tuta olmaydi".

Nikoh davlat ro'yxatiga olinguniga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro'yxatiga olingan kundan boshlab kuchga kiradi. *Nikoh shartnomasi yozma shaklda tuziladi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim.* Nikoh shartnomasini tuzish ixtiyor. Bu to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354-moddasida: "Fuqarolar va yuridik shaxslar shartnomasi tuzishda erkindirlar. Shartnomaning shartlari taraflarning xohishi bilan belgilanadi, tegishli shartning mazmuni qonun hujjatlarda ko'rsatib qo'ylgan hollar bundan mustasno" deb yozilgan.

Oila kodeksi 32-moddasining uchinchi qismiga binoan: "Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno".

Nikoh shartnomasi o'z mazmuniga qo'yidagilarni kiritadi: er va xotin nikoh shartnomasiga ko'ra birgalikdagi umumiy mulkinining qonunda belgilangan tartibini o'zgartirishga; er va xotinning barcha mol-mulkiga, uning ayrim turlariga yoxud er va xotindan har

birining mol-mulkiga nisbatan birqalikdagi ulushli yoki alohida egalik qilish tartibini o'rnatishga haqlidir.

Nikoh shartnomasi er va xotinning mavjud mol-mulkiga nisbatan ham, bo'lq'si mol-mulkiga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi yoki muayyan shart-sharoitning yuzaga kelishi yoxud kelmasligiga bog'liq qilib qo'yilishi mumkin.

Nikoh shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish asoslariga quyidagilar kiradi:

-nikoh shartnomasi er-xotining kelishuvi bilan istalgan vaqtida o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi;

-nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham shunday shaklda amalgamoshirlishi mumkinligi.

Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluvchi qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno. Nikoh shartnomasiga asosan er-xotin qonunda yo'l qo'yiladigan barcha mulkiy shartnomaviy munosabatlarga o'zaro kirishishga haqlidir.

#### **Mavzuga oid keys topshiriqlari:**

1. Bo'lajak er-xotinlar Ahrorov va Yangiboyevalar Yunusobod tumani 1-sonli FHDYO organiga nikohlarini rasmiylashtirishni so'rab ariza bilan murojaat qiladilar. Ular o'zlarining arizalarida Ahrorov va Yangiboyevalar familiyasini umumiyligi qilib qoldirishlarini so'raganlarida, FHDYO mudirasi ularga faqatgina bitta familiyani umumiyligi qilib tanlash yoki har biri o'zining turmushga qadar bo'lgan familiyasini qolishi mumkinligini tushuntirganda, ular o'z e'tirozlarini bildirib, FHDYO bo'limi mudirasi ustidan shikoyat qilishlarini ma'lum qiladilar.

*Aytingchi, Oila huquqida nikoh munosabatlariiga kirishayotgan shaxslarga ikkita familiyani umumiyligi qilib tanlash huquqi beriladimi? Ahrorov va Yangiboyevalarning e'tirozlarini asoslimi?*

2. Er-xotinlar O.Nosirov va M.Nosirova o'rtasida bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan muammo yuzaga kelib chiqdi. Bunga asosiy sabab, Nosirovlarning 2-sinfda o'qiydigan farzandlarini ildizchi smenadan o'qishdan chiqayotganda uyga olib kelish muammosi bo'ldi. Er O.Nosirov o'zini davlat idorasida boshliq vazifasida ishlayotganligini, oila turmush masalalarini bir o'zi hal qilib kelayotganligini, shuningdek uni farzandini maktabdan olib kelish uchun vaqt yo'qligini aytganida, xotini Malika ham davlat idorasida ishlashini, bolalar tarbiyasi bilan faqat bir o'zi shug'ullanayotganligini asoslantiradi.

*Ushbu nizo qanday va qay tartibda hal qilinishi lozim?*

*Oila kodeksining 73-moddasida belgilangan ota-onaning bolalarga ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlarini sharhang.*

3. D.Nosirov va M. Murodova bir muassasada faoliyat yuritib, tanishib turmush qurishga axd qilishdi. Do'stlarining maslahatiga binoan nikoh qayd etilishidan avval nikoh shartnomasini tuzib, faoliyat yuritayotgan muassasa raxbari tomonidan rasmiylashtirildi. Ikki yilga mo'ljallangan mulkiy huquq va majburiyatlarini shartnomaga kiritishdi. Nikoh qayd etilganidan 1 yil o'tgach M.Murodova tanish yuristidan nikoh shartnomasini notarial tasdiqlanishi lozimligini va muddati ko'rsatilmasligi mumkinligini bildi. M.Murodova turmush o'rtog'i tuzilgan nikoh shartnomasini bekor qilib, yangi muddatsiz nikoh shartnomasini tuzishni taklif etadi. Lekin D.Nosirov xotining talabiga rozi bo'lmay, shu nikoh shartnomani o'z kuchida qoldirishni aytadi. Ular o'rtasida nizo kelib chiqadi.

*Qonunchilik muddati ko'rsatilmasdan nikoh shartnomasini tuzishga yo'l qo'yadimi?*

*Vaziyatga huquqiy baho bering.*

4. Manzura Tilavova turmush o'rtog'i Tilavov bilan nikohdan ajratish to'g'risida va ularning umumiyligi birqalikdagi mol-mulklarini bo'lib berish haqida da'vo arizasi bilan sudga murojaat qiladi.

Javobgar o'z arizasida keltirilgan mol-mulklar ro'yxati qatoriga ularga nikoh to'ylariga Tilavovaning ota-onasi tomonidan sovg'a qilingan yumshoq mebellar to'plami va gilam borligini ko'rsatadi. Biroq Manzura Tilavovaning sudga tushuntirishicha, ota-onasi tomonidan sovg'a qilingan buyumlar uning xususiy mulki bo'lib hisoblanishini bildiradi.

Yumshoq mebellar va gilam er-xotinlarga ularning nikoh to'yi kunida sovg'a qilinganligi aniqlangan, lekin Tilavovaning ota-onasi hech qanday hadya shartnomasini rasmiylashtirmagan.

*Masalaga huquqiy baho bering.*

5. 2003 yilda Mansurov Dilmurod va Vohidova Matluba turmush quradilar.

Vohidova Matluba turmushga chiqquniga qadar ota-onasidan meros tariqasida hovli-joy, videomagnitofon va bir qancha ro'zg'orda ishlatiladigan turli xil asbob-anjomlar qolgan. 4-yil er-xotinlarning birgalikda yashashlari davomida Vohidova Matluba dugonasidan 300 ming so'm pul qarz bo'ladi. Ammo uning qarzi borligini eri Mansurov Dilmurod bilmaydi.

Vohidova dugonasiga olgan pul summasini o'z vaqtida bera olmaganligi sababli, u Matlubaning uyiga kelib Mansurov Dilmurodni xabardor qiladi. Ushbu olingen pul summasi ro'zg'or uchun ishlatilgan edi. Shundan so'ng Mansurov Dilmurod men ushbu olingen summani to'lamayman, chunki men pulni olgan emasman va uni to'lashga majbur emasman deb talabni inkor etadi.

Shundan so'ng oilada janjal kelib chiqib, er-xotinlar birgalikdagi umumiyl mulklari va har biriga tegishli bo'lgan mol-mulkni bo'lib berishni so'rab sudga murojaat qiladilar. Bunga esa asosiy sabab, Vohidova Matluba o'z qarzini ota-onasidan meros tariqasida qolgan uy-joyni sotib pul summasini qaytarishini bildiradi. Lekin Mansurov Dilmurod bunga rozi bo'lmaydi. U uy-joyga mening ham egalik qilish huquqim bor va uni tasarruf etishda mening ham roziligidim talab etilishi lozim deb o'z e'tirozini uyni sotilishi uchun bildiradi. Vohidova Matluba esa uy-joy faqatgina unga tegishli ekanligi, uyg'a nisbatan erining hech qanday mulk huquqi yo'q ekanligini bildiradi.

*Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlar niyalardan iborat?*

*Er va xotining har birining xususiy mulki deganda nimani tushunasiz?*

*Ularning shaxsiy va umumiy qarzlari bo'yicha javobgarligi niyalardan iborat?*

*Masalani oila qonunchiligi bo'yicha hal qiling.*

6. Qobilov va Sharipovalar erta turmush qurdilar. Nikohga kirishish vaqtida Qobilov 17 va Sharipova 16 yoshda bo'lib, Oila kodeksining 15-moddasi ikkinchi qismiga binoan, tegishli tartibda tuman hokimining qarori bilan ularning nikoh yoshi bir yilga kamaytirilgan edi.

Qobilov 16 yoshligidan emansipatsiya holatida muomala tayeqatiga ega bo'lib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelar edi. Shu sababli Qobilov nikohga kirishish vaqtida Sharipovaga nikoh shartnomasini ham tuzishni taklif qildi. Er va xotin nikoh shartnomasini tuzish va rasmiylashtirish maqsadida notarial idoraga murojaat qilganlarida, notarius ularning hali voyaga yetmaganlidarini, notarial tasdiqlangan bitimni tuzishda tomonlar voyaga yetgan bo'lishlari lozimligini, nikoh shartnomasini tuzish uchun oradan 2 yil o'tgandan so'ng kelishlari lozimligini ta'kidlab, nikoh shartnomasini notarial tasdiqlashni rad etdi.

*Er-xotin Qobilov va Sharipova notariusning bu harakatlari ustidan sudga shikoyat bilan murojaat qilishdi.*

*Sud qanday qaror chiqarishi lozim.*

7. Er-xotin Salimovlar o'zaro munosabatlariga oydinlik kiritib olish maqsadida nikoh shartnomasi tuzishdi. Nikoh shartnomasida mol-mulklarining taqsimoti, mabodo nikohdan ajratishganida mol-mulkning qaysi qismi kimga tegishi va er Salimov xotiniga qancha ta'minot ajratishi bilan birga, bolalar tarbiyasi bilan bevosita Salimova shug'ullanishi, uy-ro'zg'or ishlarini to'liq zimmasiga olishi, xotinning qarindoshlari faqat bir marotaba uning tug'ilgan kuniga mehmonga kelishi xususidagi shartlarni ham kiritishdi.

Mazkur nikoh shartnomasining mazmuni bilan tanishar ekan notarius bunday shartlarni nikoh shartnomasiga kiritish mumkin emasligi, keyinchalik bu shartnoma haqiqiy emas, deb topilishi mumkinligini er-xotin Salimovlarga tushuntirdi. Biroq er-xotin nikoh shartnomasining keyingi taqdiri ularning ishi ekanligini

aytishdi, notariudan bitimni notarial rasmiylashtirib berishni talab qilishdi va notarius nikoh shartnomasini aynan shu mazmunda tasdiqladi.

Keyinchalik Salimovaning qarindoshlari uning uyiga bir necha marotaba mehmonga kelishganda Salimov xotini nikoh shartnomasini buzganligi sababli unga ta'minot bermasdan nikohdan ajralishini talab qildi va sudga da'vo arizasi berdi.

#### *Masalaga huquqiy baho bering?*

Iqbolova Nigora turmushga chiqqanidan so'ng, uning qaynonasi unga oilaning barcha vazifalarini yuklab qo'ydi. Nigora bunga e'tiroz bildirishiga qaramay, qaynona uni har kuni uy-ro'zg'or ishlarini bajarishga, oilani moddiy ham ma'naviy ta'minlashga majbur qilar edi.

Oradan bir qancha vaqt o'tganidan so'ng, Iqbolova Nigora advokatga murojaat qilib, Oila huquqi bo'yicha oilaning asosiy vazifalariga nimalar kirishini tushuntirib berishini so'radi. Advokat oilaning asosiy vazifalarini izohlab, sharhlab berdi.

*Aytingchi, advokat Iqbolovaga oilaning qanday asosiy vazifalari mavjudligini ko'rsatgan?*

*Oilaning asosiy vazifalari bo'yicha o'z fikr-mulohazalariningizi bildiring?*

#### **Testlar**

1. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi Konstitutsiyamizning qaysi muddasida keltirilgan?

A. 46 B.48 C. 58 D.55

2. Oilada ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashlari to'g'risidagi majburiyatlar Respublikamiz Konstitutsiyasining nechinchi muddasida o'z ifodasini topgan?

A. 81 B.48 C. 65 D.55

3. Fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligi a'zolarining birkalidagi mulki bo'lgan mol-mulkka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari fermer xo'jalik va dehqon xo'jaligi to'g'risidagi qonunlarda belgilanadi. Fermer xo'jaligi va dehqon xo'jaligining mol-mulkini bo'lish O'zbekiston Respublikasi

qaysi kodeksida nazarda tutilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi?

A. Fuqarolik kodeksi    B. MJK C.Yer kodeksi    D. Mehnat kodeksi

4. Oila kodeksining 25-moddasida er va xotinning har biriga tegishli mulk turlari ko'rsatilgan. Er va xotinning nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki kimning mulki hisoblanadi?

A. har birining o'z mulki    B. arning mulki    C. Shaxsiy mulki, shuningdek, nikoh shartnomasida ko'rsatilishi ham mumkin D. umumiy mulki

5. Er-xotining nikoh tuzishga qadar olgan hadyalari (kelinning sepi va hakozalar), bu buyumlardan turmushda birkalidaka foydalanishsa, ularni qaysi mulki turiga kiritiladi?

A. har birining o'z mulki    B. arning mulki    C. Nikoh shartnomasida belgilanishi shart qilib qo'yilgan    D. umumiy mulki

6. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan qaysi hujjat asosida sudning xal qiluvchi qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

A.Fuqarolik kodeksi    B. Oila kodeksi    C.Fuqarolik protsessual kodeski    D. MJtK.

#### **Nazorat savol va topshiriqlari**

1. Er-xotin shaxsiy huquqlarini sanab bering.

2. Shaxsiy huquq va majburiyatlarni tartibga soluvchi normalar iyerarxiyasi qanday?

3. Er-xotin majburiyatlarining vujudga kelish asoslarini ko'rsating.

4. Oilada er va xotinning teng huquqligi nimada ifodalanadi?

5. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatları tushunchasini izohlang.

6. Nikoh shartnomasi qanday tuziladi?

7. Nikoh natijasida vujudga kelgan er-xotinning teng huquqlari qanday turlarga bo'linadi?

8. Mulkiy huquqlardan er-xotin qanday foydalanadi?

9. Shaxsiy tengliklar nima?

10. Umumiy mulkka qaysi mulk kiradi?

11. Nikoh shartnomasini tuzish ixtiyorimi, majburiyimi?
12. Oila kodeksining quyidagi moddasi sharxlang: **26-modda. Er va xotinning shaxsiy foydalanishidagi buyumlar.** "Qimmatbaho buyumlar va zebu-ziyatlardan boshqa shaxsiy foydalanishdagi buyumlar (kiyim-bosh, poyabzal va boshqa shu kabilar), garchi nikoh davomida er va xotinning umumiy mablag'i hisobiga olingan bo'lsa ham, ulardan foydalanib kelgan er va xotinning xususiy mulki hisoblanadi".

**Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar**

1. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti, 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>).
2. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti. 2017.
3. M.X.Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.
4. advice.uz sayti savol-javoblari.
5. civil.uz.
6. stat. uz.

**IV bob. NIKOH TUGATILISHINING HUQUQIY ASOSLARI VA TARTIBI**

**Ko'rib chiqiladigan masalalar:**

- 1.1. Nikoh tugatilishining huquqiy asoslari.
- 1.2. Nikoh tugatilishining tartibi va shartlari.
- 1.3. Nikohning haqiqiy emasligi.
- 1.4. Nikohni mustahkamlash masalasidagi milliy va xorijiy tajribalar, ilgari surilayotgan taklif-tavsiyalar.

**Tayanch so'zlar:** nikohning tugashi va nikohdan ajrim, nikohning tugatilishi tartibi va shartlari, nikohni haqiqiy emas deb topish, soxta nikoh, oqsoq nikoh, nikohni mustahkamlash borasidagi amalga oshirilayotgan va amalga oshirilishi lozim bo'lgan masalalar, chet elda nikohning tugatilishiga munosabat.

*Er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikoh tugaydi.*

*Nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergen arizaga muvofiq tugatilishi mumkin.*

**Oila kodeksi, 37-modda.**

Nikohning tugatilishi 2 xil yuridik fakt asosida amalga oshadi: birinchisi, tomonlardan birining vafoti(yuridik faktning hodisa ko'rinishi); ikkinchisi, tomonlarning ajrashishi (yuridik faktning harakat ko'rinishi).

Odatda, nikohdan ajralish uchun er-xotinlar ko'pincha quyidagi asoslarni keltiradilar:

- er-xotindan bittasining doimiy ravishda spirtli ichimlik ichib, oilada janjal chiqarishi;
  - er-xotinlik munosabatiga xiyonat qilishi;
  - farzandsizlik;
  - oilaviy ishlarga qarindoshlarning aralashib janjal chiqarishi.
- Nikohdan ajratish sud tartibida, qonunda belgilangan hollarda esa, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalari bo'lmanan er-xotin nikohdan ajratishga o'zaro rozi bo'salar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi.

Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birlgilidagi umumiyl mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lish to'g'risida nizo bo'lgan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqli.

Agar bolalar haqida, er-xotinning birlgilidagi umumiyl mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi ishlar sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida da'vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi. Nikohdan ajralish to'g'risidagi da'vo er-xotin yashab turgan joydag'i tuman (shahar) sudida qo'zg'atiladi. Agar er-xotin alohida yashasa, da'vo javobgar er yoki xotinning yashash joyidagi sudda qo'zg'atiladi, uning yashash joyi noma'lum bo'lsa, nikohdan ajralish to'g'risidagi ariza javobgar oxirgi yashab turgan joydag'i sudga topshiriladi.

Er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikoh tugaydi. Nikoh er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergen arizaga muvofiq tugatilishi mumkin.

Nikohni er yoki xotinning arizasiga binoan tugatilishi quyidagi vaziyatlarda bo'lishi mumkin:

### **1.Er yoki xotinning birining vafot etishi va ulardan birining vafot etilgan deb e'lon qilinishi**

Vafot etish yuridik fakt bo'lib, er-xotin o'rtasidagi nikoh munosabatini tugatadi. Nikohni bekor qilish uchun er-xotindan bittasining vafoti to'g'risidagi tibbiy muassasaning yoki o'lganlik faktini isbotlaydigan boshqa ma'lumotlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga vafot etganlik to'g'risida guvohnoma berish uchun asos bo'ladi.

Er-xotindan birini sudning hal qiluvchi qaroriga asosan vafot etgan deb e'lon qilish, o'z huquqiy oqibati bo'yicha, o'limga tenglashtiriladi. Ba'zi hollarda vafot etgan, degan shaxs tirik bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-moddasasi "Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelishining oqibati" deb nomlanib, uning huquqiy asoslarini beradi. Qonunga ko'ra vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi.

Sud tomonidan er-xotinning biri bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa.

Er-xotinning birining arizasiga binoan quyidagi uch holatda ularning nikohdan ajralish masalasi ko'rib chiqilishi va bedarak deb topishi mumkin. Birinchidan, agar er-xotinning bittasi sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa, nikohdan ajralish masalasi FHDYO organida ko'rildi.

Agar fuqaroning qayerdaligi haqidagi uning yashash joyida bir yil davomida ma'lumot bo'lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo'qolgan deb topishi mumkin. Sudda ish alohida ish yuritish tartibida ko'rildi.

### **2.Sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa**

Bu vaziyatda er-xotinning birining arizasiga binoan FHDYO organi tomonidan ular nikohdan ajratiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-moddasiga binoan spirtli ichimliklarni yoki giyovandlik vositalarini suiste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yayotgan fuqarolarning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjalari belgilangan tartibda cheklab qo'yilishi mumkin.

**3.Sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lmanan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'iy nazar, er-xotinlardan birining arizasiga ko'ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratiladi. Bunday holatda er (xotin)ning uch yildan kam bo'lmanan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi**

to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko'chirma beriladi.

#### **Nikohning er yoki xotinning arizasiga binoan tugatilishi**

Nikohdan ajralish to'g'risidagi da'vo er-xotin yashab turgan joydagi tuman (shahar) sudida qo'zg'atiladi. Agar er-xotin boshqa-boshqa joyda yashasa, da'vo javobgar er yoki xotin turgan joydagi sudida qo'zg'atiladi, agar ularning turar joyi noma'lum bo'lsa, nikohdan ajralish to'g'risidagi ariza javobgarning oxirgi yashab turgan joyidagi sudga topshiriladi.

Arizada nikohdan ajralish uchun asos ko'rsatilishi kerak. Ajralishni keltirib chiqargan sabablarni batafsil keltirish lozim. Ariza berish bilan bir vaqtda davlat boji to'lanishi lozim. Nikohdan ajralish ishlari ochiq sud majlisida ko'rildi.

Voyaga yetmagan bolalari bo'limgan er-xotin nikohdan ajralishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi. Bu holatda nikohni bekor qilishni ro'yxatdan o'tkazish er-xotinning qo'shma arizasiga asosan ulardan birining yashash joyi bo'yicha FHDYo organi tomonidan amalga oshiriladi. Amaliyotda shunday bo'ladiki, er-xotindan biri biror bir sababga ko'ra qo'shma ariza berish uchun FHDYo organiga kela olmaydi. Bu holatda bunday arizani er-xotin nomidan ularning biri tomonidan berilishi mumkin. Hozir bo'limgan er (xotin)ning arizadagi imzosi notarius yoki er (xotin)ning yashash joyi bo'yicha FHDYo organi mudiri tomonidan tasdiqlanishi darkor.

Arizada ajrashishga o'zaro rozilik, voyaga yetmagan bolalarning yo'qligi, shuningdek er (xotin) nikohni bekor qilish kunida FHDYo organiga kela olmasa, nikohni bekor qilishni er (xotin) hozir bo'limganda ro'yxatdan o'tkazishga roziligi tasdiqlanadi.

Bunda FHDYo organlari tegishli organlardan voyaga yetmagan bolalarning yo'qligini tasdiqlovchi hujatlarni so'rab olishi mumkin.

Agar er-xotindan biri o'zining nikohgacha bo'lgan familiyasiga qaytmoqchi bo'lsa, bu nikohni bekor qilish to'g'risidagi arizada ko'rsatilishi kerak.

Er-xotinlik munosabatlarini saqlab qolishning imkoniyati aniq bo'lmasa, FHDYO organi ularni nikohdan ajratiladi.

Qonun ona hamda bolalarning sog'ligini himoya qilish maqsadida, erga xotinining homiladorlik vaqtida va bola tug'ilganidan keyin bir yil mobaynida nikohdan ajarilish to'g'risida xotinining rozilgisiz ish qo'zg'atishni taqiqlaydi. (oila kodeksi 39-moddasi). Bunda faqat arning huquqi cheklanadi, xotin esa hammavaqt ham o'zining nikohdan ajralish huquqini saqlaydi.

Nikohdan ajralish ishlari sudlar tomonidan da'vo ishlarini olib borish qoidalari asosida amalga oshiriladi. Sud ishning ko'rilishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oygacha muhlat tayinlashga haqli. Bu oila huquqining oilaning davlat va jamiyat mhofazasida bo'lishi tamoyiliga oiddir.

Agar er yoki xotin tomonidan keltirilgan asoslar yetarli bo'lmasa, u holda sudlar nikohdan ajaralish da'vosini rad etish to'g'risida hal qiluv qarorini chiqaradi.

Quyidagi hollarda, ya'ni:

Er-xotindan biri nikohdan ajralishga rozi bo'lmasa;

Ular o'rtasida voyaga yetmagan umumiylar bo'lib, ularni kimda qoldirish va ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida nizo bo'lsa;

Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinga aliment undirish va uning miqdori haqida masala tug'ilsa;

Birgalikda topilgan umumiylar bo'lish bo'yicha nizo vujudga kelsa nikohdan ajratish sud tartibida ko'rildi.

Nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalari kim bilan yashashi, bolalarga va mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta'minot berish uchun mablag' to'lash tartibi, bu mablag'ning miqdori yoxud er-xotinning umumiylar bo'lishga doir kelishuvni ko'rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

Er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

Nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;

Voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;

Er va xotinning (ulardadan birining) talabiga ko'ra ularning birgalikdagi mulki bo'lgan mol-mulkni bo'lishi;

Er (xotin) dan ta'minot olishga haqli bo'lgan xotin (er)ning talabiga ko'ra va shu ta'minot miqdorini belgilashi shart.

Sud er-xotinning har ikkalasi yoki ulardan biri to'laydigan davlat boji miqdorini belgilashi lozim. Agar sud bu bojni er-xotinning har ikkalasidan undirishni lozim deb topsa, ularning har biri to'laydigan boj miqdorini belgilaydi.

Er-xotin nikohga kirish vaqtida familiya tanlashda erkin huquqqa ega bo'lgani kabi, nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolish masalasini mustaqil hal qiladi.

Nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratilganda, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organida nikohdan ajratilganlik ro'yxatga olingan kundan, nikohdan sudda ajratilganda esa, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab nikoh tugatiladi.

Nikohdan ajratish to'g'risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori nusxasi nikohdan ajratilganlik to'g'risidagi guvohnomaga tenglashtiriladi. Da'vo muddati – shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo ko'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir (Fuqarolik kodeksining 149-moddasini).

Da'vo muddati o'tishi davrida shaxs buzilgan subyektiv huquqini majburlash tartibi bilan tiklashi mumkin.

Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergen arizasiga muvofiq qo'llaniladi (Fuqarolik kodeksi 153-moddasining ikkinchi qismi).

Oila kodeksi 12-moddasining birinchi qismida oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi, ushbu kodeks bilan belgilangan hollar bundan mustasnodir, degan umumiy qoida belgilangan. Chunki oilaviy munosabatlardagi nizolar fuqarolik ish yuritish tartibi asosida ko'rib chiqiladi.

Ayrim oilaviy munosabatlar uchun da'vo muddati aniqlangan. Bular:

**Birinchidan, bir yillik da'vo muddati** Oila kodeksi 24-moddasining uchinchi qismida ko'rsatilgan. Er (xotin) o'zining mol-mulkini tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er)ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.

**Ikkinchidan, uch yillik da'vo muddati** Oila kodeksi 27-moddasining to'qqizinchi bandiga binoan nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan qo'llaniladi.

Bunda da'vo muddatini o'tishi ajralgan er yoki xotinning umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqi buzilganligini boshqasi tomonidan bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlanadi (Oila kodeksi 12-moddasining ikkinchi qismi).

#### **Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari**

Ijtimoiy munosabatlar rivojlana borga sari qonunchilik ham unga mutanosib holda rivojlanishi lozim. O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligidagi qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabi belgilangan. Bu bizning ota-bobolarimizdan qolgan urfadatlarimizdir. Amir Temur shunday ish tutgan edilar. "O'g'llarim, nabiralarim va yaqnalarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'l mishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'l mish nasli-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan holi bo'sagina el-yurtga katta to'y tomosha berib, kelin tushurdim". Demak, bunday holatlar aniqlanishida aldov bo'lsa, o'sha davrda ham nikoh haqiqiy emas deb tan olinishi mumkin bo'lishi nazarda tutilgan.

*Nikoh quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi:*

*Oila kodeksining 14–16-moddalarida belgilangan shartlar buzilganda;*

*soxta nikoh tuzilganda, ya'ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko'zlamay nikoh qayd qildirganda;*

*nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki odamning immunitet tanqisligi virusi (OIV kasalligi) borligini ikkinchisidan yashirganda, agar ikkinchisi sudga shunday talab bilan murojaat etsa (Oila kodeksi, 49-modda).*

Qonun nikoh tuzish uchun nikohga kiruvchilarining o'zaro roziligi bo'lishini ularning qonunda belgilangan nikoh yoshiga (erkak va ayollar uchun bir xil 18 yosh) to'lgan bo'lishlari talab qilinadi.

Agar nikohlanuvchi shaxslardan biri o'zida tanosil kasalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo'lsa, aldangan shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilishi mumkin.

#### **Nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sud tartibida amalga oshiriladi.**

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qaroridan nusxa berilayotganda pasportga yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjatga tegishli belgi qo'yiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirkach, o'n kun ichida undan ko'chirma nikoh tuzilganligi ro'yxatga olingan joydagি fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuboriladi.

Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ona-otasi yoki homysi, shuningdek vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Ish sudda hal qilinish paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo'lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko'rilibayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Soxta nikohni nikohlanuvchilar oila qurishni ko'zlamagan holda g'ayriqonuniy maqsadlarni amalga oshirish uchun o'zaro kelishib tuzadilar.

Er-xotin soxta nikoh qayd qildirgan va oila qurmagan bo'lsalar, nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Soxta nikohni haqiqiy emas deb topishni prokuror talab qilishga haqli, er (xotin) oila qurish maqsadisiz nikohga kirgan hollarda esa, bunday talab xotin (er) tomonidan ham qo'yilishi mumkin.

*Sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan nikoh tuzilgan vaqtidan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi (Oila kodeksi, 55-modda).*

Haqiqiy bo'limgan nikohning vujudga kelmagan nikohdan farqi quydagilarda ifodalaniladi:

Nikoh tuzish  
uchun  
belgilangan  
tartib buzilib,  
nikoh qayd etilsa

Ariza  
berilgandan  
so'ng bir oylik  
muddatga rioya  
qilmaslik

Nikohni  
rasmiylashtirish  
huquqi  
bo'limgan shaxs  
tomonidan  
nikohni  
rasmiylashtirish  
va boshqalar.

U tuzilgan vaqtidan boshlab nikoh tuzuvchilarda hech qanday huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Haqiqiy emas deb topilgan nikoh er-xotin uchun shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltirmaydi.

Nikohi haqiqiy emas deb topilgan shaxslarning mulkiy huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Nikohning haqiqiy emas deb topilishi shunday nikohdan tug'ilgan yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgan kundan keyin uch yuz kun ichida tug'ilgan bolalarning huquqlariga ta'sir etmaydi.

Sud nikohni haqiqiy emas deb topish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishda shunday nikoh tuzilishi bilan huquqi buzilgan er

(xotin)ni (insofli er (xotin)ni) xotin yoki eridan ta'minot olish huquqiga ega deb topishga haqlidir, nikohni haqiqiy emas deb topish vaqtiga qadar birgalikda orttirilgan mol-mulkni bo'lishga nisbatan esa, Oila kodeksining 23, 27 va 28-moddalarida belgilangan qoidalarni tatbiq etishga, shuningdek nikoh shartnomasini to'la yoki qisman haqiqiy deb topishga haqlidir.

Insolfi er (xotin) o'ziga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplashni fuqarolik qonunchiligidan nazarda tutilgan qoidalarni bo'yicha talab qilishga haqlidir.

Insolfi er (xotin) nikoh haqiqiy emas deb topilganda, nikoh tuzish davlat ro'yxatiga olingan vaqtida tanlagan familiyasini saqlab qolishga haqlidir.

### **Nikohni mustahkamlash masalasidagi milliy va xorijiy tajribalar, ilgari surilayotgan taklif-tavsiyalar**

Oilani mustahkamlash jamiyat va davlat darajasidagi masala bo'lganligi, shuningdek, bozor munosabatlari hamda global o'zgarishlarning milliy-an'anaviy qadriyatlarga ko'rsatayotgan ta'siri sababli oilalarni mustahkamlash haqida qayg'urishni talab etmoqda. Shu bois, juda ko'plab takliflar ilgari surilmoqda, muayyan amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, nikohlanuvchilarining yoshini bir xil qilib belgilanishi ham shu maqsadda amalga oshirilgan.

Qolaversa, bugungi kunda mamlakatimizning ayrim hududlarida tajriba tariqasida Nikohlanuvchi shaxslarni Oila markazlarida majburiy tartibda o'qishlari tartibi ham joriy qilingan. Bunda yigitlar huquqiy bilimlardan tashqari, erlik majburiyatlarini haqida ham saboqqa ega bo'lishlari maqsad qilingan.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda aliment to'lash majburiyatlarini belgilovchi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni, shuningdek, ota-onani moddiy ta'minlashdan (aliment to'lashdan) bo'yin tovlaganlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik joriy etildi. Bundan tashqari, qarzdorlikni undirishga qaratilgan ta'sir choralaridan biri sifatida qarzdorning chet elga chiqish huquqini vaqtincha cheklash belgilangan. Biroq, bu chora faqat chet elga chiqish zarurati bo'lgan qarzdorlarga nisbatan samara beradi.

"Aliment qarzdorligini undirish tartibi takomillashtirilayotganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi muhokamasi.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligidan aliment to'lovi bo'yicha qarzdorlikni bartaraf etish uchun o'xhash ta'sir choralarini qillaniladi.

Xususan, Germaniyada aliment qarzdorlik bo'yicha majburiy mehnat, musodara qilish va qarzdorning mol-mulkini bola foydasiga musodara qilib sotish yoki qamoq jazosi mavjud.

Kanadada doimiy ravishda qarzdorlarni ov qilish huquqini cheklab, ularning fotosuratlari internetda e'lon qilinadi. Shu bilan birga, nemis bolalari alimentni 25 yoshgacha oladilar va Kanada qonunchiligiga binoan ota-onalar 27 yoshgacha bo'lgan bolalarining o'qishi uchun pul to'lashlari shart.

Ukraina "Ijro etish to'g'risida"gi qonuniga ko'ra aliment bo'yicha umumiy qarzdorlik miqdori to'rt oyda to'lanishi lozim bo'lgan aliment miqdoridan oshib ketganda, davlat ijrochisi qarzdorning transport vositalarini boshqarish huquqini aliment to'lovi bo'yicha qarzdorlik bartaraf etilgunga qadar vaqtincha chekdash huquqiga ega.

Aliment to'lashdan bo'yin tovlagan Latviya fuqarolariga haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilish, avtotransportni davlat ro'yxatidan o'tkazishni taqiqlash joriy qilingan.

Latviyada aliment to'lash bo'yicha qarzdorlarni o'z majburiyatlarini bajarishga undash uchun mo'ljallangan bir qator cheklovlar mavjud. Xususan, transport vositalarini boshqarish huquqini cheklash, quroldan foydalanish uchun beriladigan litsenziyadan foydalanishga taqiq qo'yish shuningdek qimor o'yinlari tashkilotchilariga o'yinlarda ishtiroy etuvchi shaxslarning aliment qarzdorlik bo'yicha reyestrda mavjudligini aniqlash orqali ularning ishtiroyini cheklash majburiyati yuklangan.

Shuningdek, aliment bo'yicha qarzdorda farzandi ta'minoti uchun yetarli mablag' va mol-mulki bo'lмаган holatlarda uni majburiy mehnatga jalb qilish orqali qarzdorlik undiriladi. Latviya «Advokatura to'g'risida»gi qonuniga muvofiq aliment to'lovi bo'yicha qarzdor jismoniy shaxsga qarzdorligi bartaraf etilmaguncha advokatlik litsenziyasi berilmaydi.

Rossiya Federatsiyasining "Ijro etish to'g'risida"gi Federal qonunida (02.10.2007-y.) ijrochi qaroriga muvofiq aliment to'lovi bo'yicha qarzdor jismoniy shaxsning transport vositasini boshqarish huquqi vaqtincha cheklanishi nazarda tutilgan.

Qozog'iston "Ijro etish va sud ijrochilar maqomi to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra (02.04.2021-y.) sud ijrochisi alimentni undirish to'g'risidagi ijro hujjatlariga muvofiq qarzdorlik yuzaga kelganda sudga qarzdonning litsenziyalar, ruxsatnomalar berish va maxsus huquqlardan foydalanishni vaqtincha cheklash to'g'risida taqdimnoma kiritish huquqiga ega.

#### **Mavzuga oid keys topshiriqlari:**

1. Raupov Sarvar Malika bilan nikohda bo'lganligini, u bir necha yildan buyon birga xotini bilan birga yashamayotganligini va boshqa ayol bilan munosabatda ekanligini ko'rsatib, nikohdan ajratish haqida da'vo qo'zg'atgan.

Raupova Malika, bu nikohdan ularning uchta farzandlari borligi va da'vogar bilan 10 yil davomida yaxshi yashaganliklarini ko'rsatib, nikohdan ajralishga rozi bo'lmaydi. Sarvarning oiladan uzoqlashuvining sababi, u uzoq muddatga Qoraqalpog'istonga komandirovkaga yuborilganligi va u yerda boshqa ayol bilan topishganligi bo'ldi. Hozir esa u komandirovkadan qaytdi, endi u yana o'z oilasi bilan turmushini tiklab, farzandlarini tarbiya qilishi mumkin.

#### *Raupov Sarvarning da'vosini qondirish mumkinmi?*

2. Fuqaro Qosimova sudga fuqaro Qosimov bilan tuzilgan nikohini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo bilan murojaat etadi. Da'vogar arizasida shuni ko'rsatadiki, javobgar nikohga oila qurish maqsadisiz kirgan, unga Toshkentdan propiska olish masalasini hal qilish kerak bo'lgan. Shu tufayli, er-xotin o'rtasida mehr yo'qligini, munosabatlari yomonligini, javobgar yaqin orada sud orqali turar joyni bo'lib olmoqchi ekanligini aytadi. Qosimov bu ma'lumotlarni rad etadi hamda sudga tushuntirish beradiki, u oila qurish niyati bilan nikohga kirgan, biroq keyinchalik da'vogarning aybi tufayli o'rta ga sovuqchilik tushgan. Shuningdek, javobgar shuni ta'kidlaydiki, u da'vogar bilan 2,5 yil birga yashagan, oylik maoshini doimiy ravishda oilasiga olib kelgan, xotiniga g'amxo'rlik qilgan va uning birinchi nikohidan bo'lgan yosh bolasiga otalik munosabatida

bo'lgan. Ammo u o'rtada paydo bo'lgan sovuq munosabatlar tufayli u haqiqatdan yaqin orada sud orqali turar joyni bo'lib olmoqchiligini ko'rsatadi.

*Qosimova da'vosi bo'yicha sud qanday qaror qabul qilishi kerak?*

*Nikohni sohta deya uning haqiqiy emas deb topilishi qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi? Taraflarning mulkiy va nomulkiy huquqlariga bu qanday ta'sir etadi?*

*Soxta nikoh va uning huquqiy oqibatlari haqida fikr yuriting.*

3. Tolipov Komil Tolipova Madina bilan turmush quradilar. Ular 5 yildan ortiq birga yashaydilar. Ushbu davr mobaynida ular o'rtasida hech qanday oilaviy nizolar kelib chiqmaydi. Oilani yanada ham moddiy jihatdan ta'minlash maqsadida er Tolipov Komil uyidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish maqsadida Rossiya Respublikasiga jo'nab ketadi.

Oradan 5 yilga yaqin muddat o'tishiga qaramay, erdan hech qanday darak bo'lmaydi. Buning natijasida xotin Tolipova Madina erini vafot deb topish to'g'risida sudga murojaat qiladi va tegishli ravishda nikohlarini tugallanganligini rasmiylashtiradi. Sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan so'ng, xotin boshqa erga tegadi va nikohini qonuniy ravishda rasmiylashtiradi.

Tolipova Madina va Bozorov Po'latlar nikoh munosabatida yashayotgan vaqtlarida Madinaning birinchi eri Tolipov Komil qaytib keladi. Shundan so'ng u xotinini boshqa erga tekkanligini biladi va undan ikkinchi turmushi bilan nikohini tugatishini so'raydi va u bilan yana avvalgiday nikoh munosabatiga kirishishini so'raydi. Lekin xotin Madina bunga rozi bo'lmaydi. Shunda Tolipov Komil ularni nikohi noqonuniy ravishda tugatilganligini bildirib sudga murojaat qilib, ularni nikohini qayta tiklashni talab qiladi.

*Tolipov Komilning e'tirozi o'rinnimi?*

*Qaysi hollarda va qanday asoslarda er-xotinlar o'rtasidagi nikoh munosabatlari tiklanadi?*

#### **Testlar:**

1. Er yoki xotin sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilsa nikohni bekor qilishga asos bo'la oladimi?

A. Er-xotinning bittasi sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgandan so'ng 3 yil o'tib nikoh bekor qilinadi.

B. Er-xotinning bittasi sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgandan bo'lsa nikoh ikkinchi tomonning davosi bilan faqat sud tomidan bekor qilinadi.

C. Agar er-xotinning bittasi sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa, nikohdan ajralish masalasi FHDYO organida ko'rildi.

D. Bedarak yo'qolgan deb topilish nikohni bekor qilishga asos bo'la olmaydi.

**2. Nikohni er yoki xotinning arizasiga binoan tugatilishi quyidagi vaziyatlarda bo'lishi mumkin:**

1) Er yoki xotinning birining vafot etishi va ulardan birining vafot etilgan deb e'lon qilinishi.

2) Er yoki xotinning birining boshqa nikohi borligi aniqlanganda.

3) Sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa.

4) Er va xotin uzoq muddat bir uyda yashamagan bo'lsa.

5) Sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'lмаган muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa.

Yuqorida berilgan variantlardan to'g'rilari berilgan qatorni toping.

A. 1,2,3

B. 1,3,5

C. 1,2,3,5

D. 1,2,3,4,5

**3. Er va xotindan biri nikohdan ajratish uchun sudga davo qilmoqchi bo'lsa, lekin er va xotin boshqa-boshqa hududlarda yashayotgan bo'lsa davo qaysi sudda qo'zg'atiladi?**

A. Er va xotinning xohishiga ko'ra respublikaning istalgansudida ko'rildi. tuman (shahar)

B. Da'vo javobgar er yoki xotin turgan joydagi tuman (shahar) sudida qo'zg'atiladi.

C. Da'vo davogar er yoki xotin turgan joydagi tuman (shahar) sudida qo'zg'atiladi.

D. Da'vo istalgan viloyat sudida qo'zg'atiladi

**4. Qaysi holatda nikohdan ajralish fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari orqali amalga oshirilishi mumkin?**

A. Ildi tomonning o'zaro roziligi asosida, er-xotinlik munosabatlarini saqlab qolishning imkoniyati aniq bo'lmasa.

B. Nikohdan ajralishga yetarli asoslar bo'lganda er yoki xotinning birining arizasiga ko'ra.

C. Nikohdan ajralish faqat sud tartibida ko'rib chiqiladi va bir sabab nikohdan ajralish fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari orqali amalga oshirilishiga asos bo'la olmaydi.

D. Voyaga yetmagan bolalari bo'lмаган er-xotin nikohdan ajratishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida ajratiladi.

**5. Sudlar nikohdan ajaralish da'vosini rad etish to'g'risida hal qiluv qarorini quyidagi hollarda chiqaradi:**

1) Er-xotindan biri nikohdan ajralishga rozi bo'lmasa;

2) Ular o'rtasida voyaga yetmagan umumiyl bolalari bo'lib, ularni kimda qoldirish va ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida nizo bo'lsa;

3) Er-xotindan biri uzoq muddatdan beri chet elda bo'lsa;

4) Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotining aliment undirish va uning miqdori haqida masala tug'ilsa;

5) Ikkala tomonning qarindoshlari nikoh buzilishiga qarshilik qilsa;

6) Birgalikda topilgan umumiyl mulkni bo'lish bo'yicha nizo vujudga kelsa.

Yuqorida berilgan variantlardan to'g'rilari berilgan qatorni toping.

A. 1,2,4,6

B. 2,4,6,

C. 1,3,5

D. 1,2,3,4,5,6

**Nazorat savol va topshiriqlari:**

1. Nikoh tugatilishining huquqiy va ijtimoiy oqibatlarini yoritib bering.

2. Nikohdan ajratish tartibi va turlari qanday?

3. Nikohning tugatilishi shartlarining ahamiyatini yoritib bering.
4. Nikohni mustahkamlash masalasidagi milliy va xorijiy tajribalarga munosabatingiz.
5. Nikohning haqiqiy emasligi asoslarini aytib bering.
6. Nikohni er yoki xotinning arizasiga binoan tugatilishi qaysi vaziyatlarda bo'lishi mumkin?
7. Sodir qilgan jinoyati uchun necha yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa bir tomon arizasiga binoan ajralish mumkin?
8. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling:

**43-modda. Er-xotindan birining arizasi bo'yicha fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish**

"Agar er-xotindan biri:

sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;  
 sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;  
 sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratiladi.

Agar bolalar haqida, er-xotinning birlgilidagi umumiy mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi".

**Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: 2023.
2. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti, 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>).

3. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. - Toshkent:Toshkent davlat yuridik universiteti: 2017.
4. M.X.Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.
5. advice.uz sayti savol-javoblari.
6. civil.uz.
7. stat.uz.

## V bob. QON-QARINDOSHLIK VA BOLALARING NASL-NASABINI BELGILASH

### Ko'rib chiqiladigan masalalar:

- 1.1. Oila huquqida qarindoshlik instituti.
- 1.2. Bolalarning nasl-nasabini belgilash.
- 1.3. Otalikni sud tartibida belgilash.

**Tayanch so'zlar:** qarindoshlik tushunchasi va uning huquqiy oqibatlari, tutashgan qarindoshlik, quda-anda, qayin-bo'yinchilik, o'gay ota(ona), otalikni belgilash tartib-taomillari.

### Oila huquqida qarindoshlik instituti

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 9-bobi (57-59-moddalar) Qarindoshlik, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik masalalariga bag'ishlangan. Unga ko'ra, bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaratagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan – ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan – uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-uka va opa-singillari hamda ularning bolalari, boba va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi va hokazo.

To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir.

Ikki shaxs o'rtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining o'zini hisobga qo'shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi.

Hisob ajdodlar tomon to'g'ri shajara bo'yicha ular uchun umumiy bo'lgan shaxsga (ajdodga) qarab va undan esa, avlodlar tomon – ulardan boshqasiga qarab olib boriladi.

Tug'ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasida, tog'a va amaki, amma va xola o'z jiyani bilan qarindoshlikning – uchinchi, tog'avachcha, amakivachcha, ammayachcha va xolavachchalar esa – to'rtinchi darajasida turadilar.

Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo'lsa, yet aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha – ona bir ota boshqa bo'lsa, yet aralashgan qarindosh hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, o'gay aka-ukalar va o'gay opa-singillarning yo'otasi, yo'oni bir bo'ladi. Yet aralashgan qarindoshlar xuddi yet aralashmagan qarindoshlikdagi kabi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi (masalan, o'gay aka (uka) yoki o'gay opa (singil) vafot etgandan so'ng meros olishda yoki ulardan aliment undirishda).

Er-xotinning ilgarigi nikohlaridan bo'lgan bolalari o'zaro qarindosh hisoblanmaydi.

Qarindoshlikdan qayin-bo'yinchilik va quda-andachilikni ajrata bilish kerak. Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik kishining nasl-nasabiga yoki qondoshlikka asoslanmaydi. Balki nikohning yondosh oqibati bo'lgan ijtimoiy bog'lanish hisoblanadi. Er-xotinning qarindoshlari yo'q bo'lsa, qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik vujudga kelmaydi. Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik munosabatlari oilaviy huquqiy munosabatlarga kirmaydi.

Yaqin qon-qarindoshlik o'z ichiga to'g'ri chiziq, yon, tug'ishgan va o'gay qarindoshlar, aka-ukalar bilan opa-singillar tushunchalarini oladi. To'g'ri chiziq qarindosh bo'lib, biri boshqasidan dunyoga kelgan shaxslar, ya'ni boba-ota-o'g'il-nevara-evara-chevara-duboralar tushuniladi. Har bir fuqaro yetti avlodini bilishi lozim.

Abu Hurayra roziyallohu anhu Nabiy sollallohu alayhi va sallamdan rivoyat qiladi: "Nasablarining bilib olinglar! O'sha bilan qarindoshlik aloqalarini bog'laysizlar. Zero, silai rahm ahliga muhabbat tug'diradi, boylikni ko'paytiradi va umrni uzaytiradi" (Termiziy, Ahmad va Hokim rivoyati).

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi va sallam sahobalari orasida shajara ilmini biluvchi kishilar ko'p bo'lgan. Jumladan, xulofai roshidinning eng afzali – Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu nasab ilmini yaxshi bilgan. U kishi manbalarda "nassoba", ya'ni, "nasab ilmining bilimdoni" deya ta'riflangan.

Bolalarni emizish tufayli vujudga kelgan sut qarindoshlar – ko'kaldoshlardir.

Oila kodeksining 59-moddasiga binoan, er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik) o'zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilikning qarindoshlikdan farqini bilish muhim sanaladi.

Erning qarindoshlari bilan xotinning qarindoshlari o'rtasidagi munosabatlar quda-andachilik va qayin-bo'yinchilik hisoblanadi.

### **Bolalarning nasl-nasabini belgilash**

Bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilman bolsha esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tug'ilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.

Bolaning onasi bilan nikohda bo'lman shaxsnинг otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Ona vafot etganda, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilganda, onaning qayerdaligini aniqlash imkoniyati bo'lmaniga yoki u onalik huquqidan mahrum qilinganda, otalik vasiylik va homiylik organi bilan kelishilgan holda o'zini bolaning otasi deb tan olayotgan shaxsnинг arizasiga binoan belgilanadi.

Bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, otalikni belgilash to'g'risidagi arizani uning nomidan vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan uning homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ariza bolaning tug'ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek bola tug'ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar otalikni belgilash to'g'risida bola tug'ilgandan so'ng er-xotin birgalikda ariza berishining imkonи bo'lmay qolishi yoki mushkul bo'lshini ko'rsatuvchi asoslar mavjud bo'lsa, tug'ilajak bolaning o'zaro nikohda bo'lman ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishga haqli.

Oila kodeksining 60-moddasiga binoan, bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan, bola tibbiy muassasaning hujjatlariga asosan agar, bola tibbiy muassasada tug'ilman bo'lsa, u holda boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Agar bola tibbiy muassasadan tashqari joyda tug'ilgan bo'lsa, u holda bu yuridik fakt guvohlar ko'rsatmalari va boshqa dalillar bilan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining vafoti, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi. Bola bilan uning onasi o'rtasida huquqiy munosabat, uning qonuniy nikohda bo'lgan yoki bo'lmanligidan qat'i nazar, tug'ilish faktiga asoslanadi.

Ammo bolaning dunyoga kelishida uning otasi kimligini belgilash extimolga asoslanadi. Ya'ni: bunda agar bola qayd etilgan nikohda tug'ilgan bo'lsa, onasi bilan nikohda bo'lgan shaxs uning otasi degan ehtimolga asoslanadi. Bu shaxsnинг otaligi ehtimollikka asoslanib, ushbu faktini isbotlash shart emas.

FHDYO organi tomonidan berilgan bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma unda ko'rsatilgan ota-onadan bolaning paydo bo'lmanligini isbotlovchi hujjat hisoblanadi.

Bolaning haqiqiy otasi otalikni o'z xohishi bilan tan olishi mumkin, agar u buni inkor etsa, u holda otalik sud tartibida belgilanadi.

Otalikni belgilash rad etilganda, o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

Oila qonunlarga asosan ayrim hollarda ota-onalar o'zaro yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan nikohda bo'lmalar, u holda

qonun bilan belgilangan tartibda o'z huquq va majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishlari mumkin.

Oila kodeksi 61-moddasining birinchi qismiga muvofiq, bolaning onasi bilan nikohda bo'lмаган shaxsning otaligi o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi. Otalikni tan olish bolaning onasi bilan nikoh tuzish vaqtida ham bo'lishi mumkin. Bunday holatda otalikni qayd etishga faqat uning roziligi bo'lgandagina yo'l qo'yiladi. Bolaning ota-onasi boshqa shaxslar bilan nikohda bo'lishi otalikni ixtiyoriy tan olish uchun to'siq bo'lmaydi.

Nikohdan tashqari tug'ilgan bolaga nisbatan faqatgina muomala layoqatiga ega bo'lgan fuqaro tomonidan emas, balki voyaga yetmagan shaxs tomonidan ham otalik tan olinishi mumkin. Ammo bu to'g'risida qonunda aniq qoida belgilanmagan. Qonun oldiga qo'yilgan maqsad voyaga yetmaganlarning otaligi va onaligini belgilab, favqulodda hollarda ularga nikoh tuzish uchun yo'l qo'yish, alohida holatlarda ularga nikoh yoshini kamaytirish uchun imkon yaratishdan iborat. Biroq yoshi 17 yoshdan kam bo'lмаган shaxsning otaligi tan olinishi mumkin, chunki nikox yoshi kamaytirilganda shunga to'g'ri keladi. Otalikni tan olish qat'iy hisoblanadi. Bu borada nizolashishga faqat sud tartibida yo'l qo'yiladi.

Otalikni tan olish ota va bola o'rtasida, shuningdek, bolaning ota tomonidan qarindoshlari huquqiy munosabatni keltirib chiqaradi. Otalikni ixtiyoriy tan olishda faqat otaning roziligi yetarli emas. Odatda buning uchun ona ham o'z roziligini bildirsa, ota va bola o'rtasida huquqiy munosabat vujudga keladi.

Oila kodeksi 61-moddasining 3-bandiga binoan, bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan otalikni belgilash to'g'risidagi arizani uning nomidan homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to'g'risidagi ariza bolaning tug'ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek, bola tug'ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar er-xotin bola tug'ilgandan so'ng otalikni belgilash to'g'risida birgalikda ariza berishining imkon bo'lmay qolishi yoki mushkullashishini ko'rsatuvchi asoslar mavjud

bo'lsa, tug'ilajak bolaning o'zaro nikohda bo'lмаган ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida ham fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishlariga haqli. Otalikni belgilash rad etilganda, o'zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sudga shikoyat qilishi mumkin.

### Otalikni sud tartibida belgilash

Otalik hamma vaqt ham ixtiyoriy ravishda belgilanavermaydi. Nikohsiz tug'ilgan bolaning otasi undan voz kechib, otalikni qayd etishni inkor etadigan hollar ham bo'ladi. Bunday holatda bolalar manfaatini himoya qilib, sud tartibida otalikni belgilashga yo'l qo'yiladi. Oila kodeksining 62-moddasiga binoan, otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homisiyining yoxud bola kimning qaramog'ida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek, bola voyaga yetganidan keyin uning o'zi bergen arizasiga muvofiq amalgalash oshiriladi.

Otalikni belgilash bilan bog'liq masalalar da'vo ishini yuritish tartibida ko'rildi. Sud otalikni belgilash vaqtida javobgar bolaning otasi ekanligini aniq tasdiqlovchi dalillarga asoslanadi.

Otalikni belgilashda sudlar amaldagi qonunlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan otalikni belgilashga oid ishlarni ko'rishda qonunchilikning qo'llanilishi to'g'risida" 2011-yil 25-noyabrdagi qaroriga asosan to'g'ri hal qilmoqda.

Otalikni sud tartibida belgilash - 1968-yilning 1-oktabridan keyin tug'ilgan bolalarga nisbatan otasi deb taxmin qilinayotgan shaxs hayot bo'lgandagina yo'l qo'yilishi tushuniladi va bunday talablar da'vo yuritish tartibida hal etiladi.

**Otalik faktini belgilash** - 1968-yilning 1-oktabridan keyin tug'ilgan bolalarga nisbatan bolaning otasi deb taxmin qilinadigan shaxs vafot etgan taqdirda manfaatdor shaxsning arizasi bilan ko'zg'atilgan ish tushuniladi va bunday talab alohida ish yurituv tartibida ko'rildi. Mazkur faktini belgilash jarayonida manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo (merosni bo'lish, boquvchisini yo'qotganlik hollarda) kelib chiqsa, u holda ariza sudda ko'rilmasdan qoldiriladi va manfaatdor shaxslarga umumiy asoslarda da'vo qo'zg'atish huquqlari tushuntiriladi.

Bunday fakt aniq ish holatlarini inobatga olgan holda bolaning onasi homilador bo'lgan davrda o'zining tug'ilajak farzandining otasi deb tan olgan shaxs vafotidan so'ng tug'ilgan bolaga nisbatan ham belgilanishi mumkin.

**Otalikni tan olganlik fakti** – 1968-yilning 1-oktabrigacha tug'ilgan bolalarga nisbatan bolaning otasi deb taxmin qilinadigan shaxs vafot etgan takdirdagina manfaatdor shaxsning arizasiga binoan ko'zg'atilgan ish tushuniladi va bunday ariza alohida ish yuritish tartibida ko'rildi. Bunday bolalarga nisbatan otalikni sud tartibida belgilashga yo'l qo'yilmaydi.

Oila kodeksining 62-moddasiga muvofik, bunday dalillarga bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritganligi yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklarini, yoki javobgarning otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillar kiradi.

Amaldagi qonunda sanab o'tilgan holatlar erkak va ayol o'rtasidagi munosabatda amaliy oilaviy munosabatni nazarga olmasdan, fakt asosida qonuniy oila qurishga qaratilgan maqsad bo'lishini qo'riqlaydi.

Shu bilan birga otalikni belgilashda sanab o'tilgan barcha holatlar bir paytda bo'lishi talab etilmaydi, balki ulardan faqat birortasi bo'lsa ham kifoya. Ya'ni:

1. Bolaning onasi bola tug'ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro'zg'or yuritganligi. Ushbu holatda bolaning ota-onasi doimo birga turganligi e'tiborga olinib, qoida bo'yicha onaning homiladorlik davrida umumiy ro'zg'or ishlarini birgalikda olib borganliklari nazarda tutilib, birgalikdagi daromadlar va harajatlar, uy-ro'zg'or buyumlarini olish, turmushda o'zaro yordam va boshqalar tushuniladi (ba'zi vaqtda ular bir turar-joyda yashamasliklari ham mumkin). Muhimi shundaki, bolaning onasi va javobgar o'rtasidagi oilaviy-maishiy aloqalar bola tug'ilganiga qadar, aniqrog'i, ona homiladorligi davrida bo'lishi lozim. Agar bu aloqalar bola paydo bo'lguniga qadar tugagan bo'lsa, ular otalikni o'rnatish uchun asos bo'la olmaydi.

2. Ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta'minlab turganliklari. Agar birinchi shart ikki zarur fakt birga yashash va

umumiy ro'zg'or yuritishning qo'shilishidan tarkib topgan bo'lsa, ikkinchi shart esa faqat bolani birgalikda tarbiyalaganlik yoxud ta'minlab turganlik holat-larini o'z ichiga oladi. Bolani tarbiyalash uni ta'minlash bilan birga bo'lmasligi ham mumkin. Bu faqat otasi tomonidan bo'lmasdan, onasi tomonidan ham bo'lishi mumkin. Teng asosda faqat ta'minot berish (tarbiyalashda ishtirok etmasa ham) otalikni belgilash uchun yetarlidir. Moddiy jihatdan ta'minlab turgan shaxs bola o'ziniki ekanligini bilishi va bolaning otasi sifatida harakat qilishi darkor. Qolaversa, ta'minot berayotgan shaxs bola o'z farzandi va u ota sifatida harakat qilayotganligini to'la xis etishi lozim.

Qoida bo'yicha ta'minot deganda bolaning doimiy ta'minoti uchun vaqt vaqt bilan berib turilgan moddiy yordam tushuniladi.

Otalikni sud tartibida belgilash huquqi da'vo muddati bilan o'tib ketmaydi, shuning uchun qancha vaqt o'tmasin, bu to'g'risida da'vo qilish mumkin.

3. Javobgarning otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarning e'tiborga olinishi. Bu asosning oldingilaridan farqi shundan iboratki, javobgar otalikni rad etsa ham, otalikni tasdiqlovchi obyektiv faktlar mavjud bo'ladi. Javobgar tomonidan otalikning tan olinishi subyektiv (ya'ni ongli va erkli) holat bo'lib, muayyan harakatlarda o'z ifodasini topadi: so'zlab berish, xatlar va hujjatlar orqali bunda ehtimol qilinayotgan ota o'z bolasi ekanligini tan oladi. Bunday tan olish onaning homiladorlik davrida, shuningdek, bola tug'ilgandan keyin ham bo'lishi mumkin. Uning qarindosh-urug'lar, do'stlar, qo'ni-qo'shnilar, birga ishlovchilar va mansabdor shaxslar bilan bo'lgan suhbatlarda bolaning otasi ekanligini tan olishi javobgar tomonidan otalikni tan oluvchi dalil bo'lib hisoblanadi.

Otalikni belgilash ishlari da'vo ishini yurgizish tartibida va alohida tartibda ko'rildi.

Ishda ishtirok etish uchun ariza beruvchi, bolaning onasi yoki uning vasiysi va manfaatdor fuqarolar hamda tashkilotlar jalb etilishi mumkin. O'lgan shaxsning xotini va qarindosh-urug'lari manfaatdor shaxslar hisoblanadi.

### **Mavzuga oid keys topshiriqlari:**

1. Ermatovaning tasdiqlashicha, u 2002-yil fevral oyida Toshmatov bilan aloqada bo'lgan. Bu voqeadan 2 oy o'tgandan so'ng Toshmatov harbiy xizmatga chaqiriladi. 2002-yil dekabr oyida esa Ermatova farzand ko'radi.

Toshmatov o'zining bolaning otasi ekanligini tan olmay, uni o'z familiyasiga qayd etilishiga qarshi bo'ladi. Ermatova otalikni belgilash da'vosi bilan sudga murojaat qiladi. U da'veni tasdiqlash maqsadida, javobgarning to uni xomiladorligini sezdirmagunga qadar yozgan xatlarini havola qiladi. Bu xatlarda Toshmatov uni xotinim deb aytgan, harbiy xizmat tugagach FHDYO organlarida nikohni yuridik rasmiylashtirishga va'da bergen.

Da'vogar ularning yaqin aloqalaridan xabardor bo'lgan, o'zini bolaning buvisi deb hisoblagan va yangi tug'ilgan bola uchun barcha zarur narsalarni sotib olgan javobgarning onasi Toshmatova Xosiyatni guvoh sifatida so'roq qilishni so'raydi.

*Sud nizoni qanday hal qilishi lozim?*

### **Testlar**

#### **1. Qarindoshlik darajasi to'g'ri berilgan qatorni toping.**

A. Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, aka-ukasiga nisbatan -ikkinci, bobo-buvisiga nisbatan - uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.

B. Ota-onsa farzandiga nisbatan - birinchi, ota-onsa o'z ota-onasiga - ikkinchi, bobo-buvisiga - uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.

C. Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan - ikkinchi, boshqa qarindoshlarga nisbatan - uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.

D. *Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan - ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan - uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi.*

#### **2. Tug'ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning qaysi darajasi hisoblanadi?**

A. Tug'ishgan aka-uka va opa-singil eng yaqin qarindosh hisoblanib ularga daraja berilmaydi.

B. *Tug'ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi darajasi hisoblanadi.*

C. Tug'ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning uchinchi darajasi hisoblanadi.

D. Tug'ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning to'rtinchisi darajasi hisoblanadi.

#### **3. Merosni bo'lish jarayonida yet aralashgan aka-uka yoki opa-singillarga qanday chekllovlar qo'yiladi.**

A. yet aralashgan aka-uka yoki opa-singillar merosxo'r bo'la olmaydilar.

B. yet aralashgan aka-uka yoki opa-singillar merosning faqatgina yigirma besh foizini olish huquqiga ega bo'ladi.

C. yet aralashgan aka-uka yoki opa-singillar merosning barcha qismiga egalik qilish huquqi beriladi.

D. *Meros barcha farzandlar o'rtasida teng taqsimlanadi, yet aralashgan aka-uka yoki opa-singillik merosni taqsimlashni istisno qila olmaydi.*

#### **4. Nikohda bo'limgan ota-onadan tug'iladigan farzandga bola homila paytida otalik belgilanishi ham mumkinmi?**

A. Nikohda bo'limgan ota-onalardan tug'ilgan bolalarga ota-onalik belgilab bo'lmaydi.

B. Nikohda bo'limgan ota-onalardan tug'ilgan bolalarga bola homila paytida otalik faqat vasiylik va homiylik organlarii tomonidan belgilanadi.

C. *Tug'ilajak bolaning o'zaro nikohda bo'limgan ota-onasi otalikni belgilash uchun ona homiladorlik vaqtida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga ariza berishga haqlи.*

D. Tug'ilmagan bola uchun otalikni belgilab bo'lmaydi.

#### **5. Tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar oila huquqiy munosabatlarda qarindosh bo'la oladilarmi? Agar bo'lsa qarindoshlikning qaysi darajasi bo'ladi.**

A. Tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar uzoq qarindosh hisoblanib, huquqiy munosabatlarda qarindosh sifatida ishtiroy eta olmaydilar.

- B. tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar qarindoshlikning to'rtinchi darajasida turadilar.  
 C. tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar qarindoshlikning beshinchi darajasida turadilar.  
 D. tog'avachcha, amakivachcha, ammavachcha va xolavachchalar qarindoshlikning oltinchi darajasida turadilar.

#### **Nazorat savol va topshiriqlari:**

1. Oila huquqida qarindoshlikni huquqiy tartibda belgilash zaruratini asoslab bering.
2. Otalikni sud tartibida belgilash huquqi da'vo muddati bilan o'tib ketmaydi. Bu qoidaning ahamiyatini ochib bering.
3. Qarindoshlikning qanday darajalari farqlanadi.
4. Qayin-bo'yin va quda-anda o'rtasidagi munosabatlarga qaysi huquq sohasi normalari tadbiq etiladi?
5. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling:

#### **60-modda. Bolaning nasl-nasabini belgilash asoslari**

"Bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga ko'ra, bola tibbiy muassasada tug'ilmanan holda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining o'limi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tug'ilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega."

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar**

1. Otaxo'jayev F., Yo'ldosheva Sh. Oila huquqi. Darslik.- Toshkent: Adolat, 2007.

2. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti, 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>).

3. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. -Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti. 2017.

4. M.X.Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.

5. advice.uz sayti savol-javoblari.

6. civil.uz.

7. stat.uz.

## **VI bob. OTA-ONA VA VOYAGA YETMAGAN FARZANDLARNING SHAXSIY NOMULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **Ko'rib chiqiladigan masalalar:**

- 1.1. Ota-onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlar.
- 1.2. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlar.

**Tayanch so'zlar:** Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya; bola, go'dak; emizikli bola.

### **Ota-onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlar**

Ota ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Ota-onalik huquqlari bolalar 18 yoshga to'lganlarida, shuningdek voyaga yetmagan bolalar nikohga kirganlarida hamda qonun bilan belgilangan boshqa hollarda bolalar voyaga yetmasdan to'la muomala layoqatiga ega bo'lganlarida tugaydi.

Ota-onaning bola oldidagi teng huquqliliklari unga g'amxo'rlik qilish, ta'lif-tarbiya berish, uni parvarish qilish va h.k. iboratdir. Bolaning oldida o'z huquqlarini bajarish ota-ona uchun faqat ahloqiy qoida bo'lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burchlardan biridir.

Ota-ona o'rtasidagi har qanday kelishmovchilik ularning har ikkalalari yoki ulardan birining talabi bilan vasiylik va homiylik yoki sud tartibida hal qilinadi.

Oila qonunchiligidagi alohida voyaga yetmagan ota-onaning huquqlari ko'rsatilgan. Voyaga yetmaganlar oila qurishsa, oilada o'zlar ota-onalik huquqlarini amalga oshirishlari mumkin. Ular o'z bolalari bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqiga egadirlar.

Bola tug'ilishining o'zi uning onasi kim va yoshi nechada bo'lishidan qat'iy nazar u onalik huquqiga ega bo'ladi. Bu ota-onalar o'z huquqlarini amalga oshirishida, ma'lum hollarda, qonuniy vakillari, vasiy va homiy organlarining ishtirok etishlari nazarda tutiladi.

Ota-onalik huquq va manfaatlarini himoya qilishlari shart. O'n sakkiz yoshga to'lmagan voyaga yetmagan bolalar to'la hajmda muomala layoqatiga ega bo'lmaganlari sababli ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish qonuniy vakillari bo'lgan ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar zimmasiga yuklanadi.

Fuqarolik qonuni bo'yicha o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarning muomala layoqatiga ega bo'lmasligini va o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalarning esa, qisman muomala layoqatiga ega ekanliklarini e'tirof etish kerak. Demak, ota-onalar, farzandlikka oluvchilar yoki vasiylar o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilib, ularning vakili sifatida ular nomidan har qanday bitimlar tuzish huquqiga egadirlar. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan bolalarga tegishli fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ota-onalar o'z bolalarining homiysi sifatida ishtirok etib, bolalar nomidan bitimlar tuzmaydilar, ammo ularga bitim tuzishlari uchun rozilik beradilar.

Ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Shu bilan bir qatorda har bir ota-ona o'z bolasini qonunga asoslanmasdan ushlab turgan har qanday shaxsdan uning qaytarilishini talab qilishga haqli.

Oila kodeksning 61 va 62-moddalarida nazarda tutilgan tartibda otalik belgilanganda, bolalar ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan o'zaro nikohda bo'lgan shaxslardan tug'ilgan bolalar bilan teng huquq va majburiyatlariga ega bo'ladi.

"Nikohsiz tug'ilgan bolalarning huquqlari bilan nikohda tug'ilgan bolalarning huquqlarini tenglashtirishga intilish, qonunchilik siyosatining eng to'g'ri va demokratik yo'nalishidir. Biroq ijtimoiy taraqqiyot sharoitidagi tabiiy sabablar oqibatida bunday bolalarning barcha huquq va majburiyatlarining to'la tengligini ta'minlash imkoniyati deyarli yo'q".

Maxsus huquqiy adabiyotlarda qayd etilganidek, yolg'iz ayoldan tug'ilgan bolalarning huquqiy holati birgina alohida xususiyatga ega: bunday bolalar faqat onaning qarindoshlari sirasiga kiradilar, ota va uning qarindoshlariga nisbatan esa hech qanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lmaydilar.

Nikohda bo'lgan va sun'iy homila hosil qilish yoki embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergan shaxslarda shu usullarning qo'llanilishi natijasida bola tug'ilsa, tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga ular shu bolaning ota-onasi deb yozilganda bir qator muammolar yuzaga keladi. Bunday hayotiy muammolarga yechim topishda, meyoriy hujjatlarga murojaat qilish lozim.

Oila to'g'risidagi qonunchilikda voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini to'plovchi tushuncha xarakteriga ega ekanligini inobatga olib, ularning har biriga alohida e'tibor berilgan.

Oila kodeksining 90-moddasiga binoan, voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, aliment uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lif olishi uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotganda fuqarolik qonun hujjatlarda belgilangan qoidalar qo'llaniladi. Bundan tashqari, bolalar mulk huquqiga ham ega. Bu mulk sovg'a tariqasida olinadigan mulklar sirasiga kiradi. Sovg'a, vorislik huquqi asosida bolalar o'z mulklariga ega bo'lishi keng tarqalgan. Bunday mulk nafaqat qarindoshlardan, balki boshqa jismoniy shaxslar, xatto yuridik shaxslardan ham olinadigan mulk bo'lishi mumkin.

Davlat har bir shaxsga, shu bilan birga voyaga yetmagan bolalarga, o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishga ko'maklashadi. Oila kodeksining 67-moddasi ikkinchi qismiga binoan, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) amalga oshiradilar.

Bola huquqini himoya qilish deganda, bolaning buzilgan huquqini tiklash, uning huquqlarini amalga oshirishda mavjud bo'lgan to'sqinliklarning oldini olish, bartaraf qilish tushuniladi. Oila qonun hujjatlari tomonidan himoya qilinadigan obyekt sifatida Oila kodeksining 65-70-moddalarida ko'rsatilgan voyaga yetmagan bolalarning huquqlari nazarda tutiladi. Bola huquqini, jamiyat a'zosi sifatida, himoya qilish ma'muriy, fuqarolik, jinoyat, mehnat va boshqa huquq sohalari normalari bilan ham amalga oshiriladi. Bola

o'z huquqlari bilan bir qatorda o'ziga tegishli bo'lgan qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqlariga ham egadir.

Har bir fuqaro o'zining huquq va manfaatlarini o'zi himoya qiladi. Ammo voyaga yetmagan 18 yoshga to'limgan bolalarning huquqlari va manfaatlarini ularning qonuniy vakillari bo'lgan ota-onalari, farzandlikka olganlar, vasiy va homiylar himoya qildilar, agar ular o'z bu burchlarini bajarmasa davlat tomonidan tegishli chora ko'rildi. Ota-onalik yoki onalik huquqidan mahrum qilinishiham mumkin.

Oila kodeksi 79-moddasida ota-onalik (ulardan birini) quyidagi hollarda ota-onalik yoki onalik huquqidan mahrum qilishi mumkinligibelgilangan:

Ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;

Uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

Ota-onalik huquqini suiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;

Muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsa;

O'z bolalarining hayoti yoki sog'lig'iga yohud eri (xotini)ning hayoti sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning), prokurorning, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar, yetim bolalar va ota-onalik qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan ko'rildi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar prokuror hamda vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasini hal qiladi.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlarni ko'rishda ota-onada (ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqda prokurorga xabar berishi shart.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko'chirmasini bolaning tug'ilganligi davlat tomonidan ro'yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki ona o'ziga tegishli bolalariga nisbatan qarindoshlik faktiga asoslangan hamma huquqlardan mahrum bo'ladi. Shu bilan bir qatorda ota yoki onalik huquqidan mahrum bo'lgan shaxs qonun asosida bolali fuqarolarga berilishi lozim bo'lgan har xil imtiyozlardan, nafaqa va moddiy yordam olish huquqlaridan mahrum bo'ladi. Bunday ota yoki ona keksayib qolganda, mehnatga qobiliyatsiz va yordamga muhtoj bo'lib qolganda voyaga yetgan bolalaridan ta'minot talab qilish huquqini ham yo'qotadi. Lekin ular o'z bolalariga ta'minot berish majburiyatidan ozod bo'lmaydilar va bolasi voyaga yetgunicha bolani ta'minlashi shart.

Ota-onada (ulardan biri) o'z xulq-atvori, turmush tarzini va (yoki) bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

### **Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatları**

Ayrim ajrim oilalarda ota yoki ona bolaning ota yoki ona bilan ko'rishishiga to'sqinlik qiladi. Qonun esa bola manfaatini himoya qilib, unga otasi-onasi bilan ko'rishish huquqidan hech kim man qilishga haqqi yo'qligini bildiradi.

Bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bola huquqini himoya qilish deganda, bolaning buzilgan huquqini tiklash, uning huquqlarini amalga oshirishda mavjud bo'lgan to'siqlarning oldini olish, bartaraf qilish tushuniladi. Misol uchun agar ota-onada farzandlarini to'g'ri tarbiya qilmasa, ta'lim-tarbiya berishda qonun bilan yuklatilgan vazifalarini bajarmasa, ota-onalik huquqlarini suiste'mol qilsa, bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan deb hisoblanadi. Bunday holatlardan xabardor bo'lgan vasiylik va homiylik organlari bolalarning huquqlarini himoya qilish choralarini ko'radi.

Bola ism, ota ismi va familiyasini olish huquqiga ega. Bu huquq bolaga uning tug'ilishi bilan beriladi. Ota-onaga bolaga ism tanglashda erkinlik berilgan bo'lib, ular o'zlarini xohlagan ismni berishlari mumkin. Er-xotindan birining arizasiga binoan bolaning ismi ro'yxatdan o'tkazishda ikkinchisining roziligi bo'lganligi faraz qilinadi. Bolaning ismiga, ota ismiga va familiyasiga bo'lgan huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan "Daylat tili haqida"gi Qonuning 15-moddasiga binoan milliy tarixiy an'analarga amal qilgan holda familiya o'rniiga, ya'ni familiya sifatida bola otasining ismi yozilishi mumkin. Masalan, Abduqodir Avazbek o'g'li yoki MohiraShavkat qizi. Ismiga ularning tug'ilgan joyi qo'shilib yozilishi ham mumkin. Masalan, al-Termizi, Andijoni, Mindoni va h.z.

Er-xotinning roziligi bo'yicha, milliy-tarixiy ana'analarga ko'ra, ota yoki ona tomonidan boboning ismi bo'yicha ham familiya berilishi mumkin. FHDYO organi ota-onaning birgalikdagi arizasiga binoan bola o'n olti yoshga to'lguncha bola manfaatlarini e'tiborga olib, uning ismini o'zgartirishga, shuningdek unga berilgan familyani ham otasi yoki onasining familiyasiga qarab o'zgartirishga haqlidir.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, bolalar oilada tug'ilganlar va yashaganlar hamda tarbiyanı birinchi navbatda ota-onalaridan va boshqa oila a'zolaridan olganlar. Jamoat tarbiyasini qo'ni-qo'shinilardan, mahalla-ko'y va qarindosh-urug'lardan olganlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992-yil 9-dekabrda Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaga qo'shilishi haqida qaror

qabul qildi. Bu qarorda bolalar alohida g'amxo'rlik va himoya huquqiga ega ekanligi e'tirof etildi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq jamiyatning barcha a'zolarining qadr-qimmatini, teng va dahlsiz huquqlarini e'tirof etish inson erkinliklarini ta'minlashning asosi ekanligini e'tiborga olinganligi ham qayd etilgan. Bunday tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan Konvensiyaga qo'shilishi O'zbekiston Respublikasi oilaga, kelajak avlodlar huquqlariga munoning mustaqillikka erishganligining sharofatidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 58-moddasida belgilangan xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi, oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi to'g'risida davlat g'amxo'rligi mamlakatimizning Fuqarolik, Oila, Mehnat va Jinoyat kodekslarida, Sog'liqni saqlash, "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunlarda o'z ifodasini topgan.

Oila kodeksining 65-moddasida belgilanganidek, bolaning yashash va tarbiyalanish huquqi, avvalo, bola o'z ota-onasi bilan birga yashashi mumkinligini anglatadi.

Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga binoan, 14 yoshga to'lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdag'i bolalarning) yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning qonuniy vakillari ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo'lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi. Tabiiyki, ulardan katta bo'lgan yoshdag'i voyaga yetmagan bolalar ham ular bilan birga yashaydilar.

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi o'z ota-onasini bilish huquqi bilan mustahkam bog'liqdir. Bu xaqda "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ning 7-moddasida to'g'ridan-to'g'ri belgilab qo'yilgan. Bunday holat voyaga yetmagan bolaning huquqi sud tartibida otalik belgilanayotgan vaqtida (qo'shimcha shart bilan) inobatga olinishi mumkin.

Oila kodeksi 66-moddasining birinchi qismiga binoan bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshka qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega, ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning xakikiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bunga ta'sir etmaydi. Ota va ona alohida

yashayotgan bo'lsalar, u holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onalardan davlatlarda yashasada, bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Oila kodeksi 66-moddasining uchinchi qismida favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bolaning uchrashish huquqini amalga oshirish muammosi masalasiga alohida to'xtab o'tiladi. Oila kodeksi favqulodda vaziyatlarga tushib qolgan bolani ushlab turish, qamoqqa olish, xibsga olish, uning davolash mussasasida bo'lishi va boshqa hollarni nazarda tutadi. Bu sanab o'tilgan hollar mutlaq bo'lib hisoblanmaydi. Har qanday holatda ham bu favqulodda holatlar voyaga yetmagan bolani tashqi dunyodan, oiladan, ota-onadan, yaqin qarindoshlardan ajratilganligi bilan bog'liqdir. Ular bilan uchrashishdek unga berilgan huquq nafaqat o'z mazmuni bo'yicha insonparvarlik, shu bilan birga tarbiyalash, zarur hollarda esa qayta tarbiyalashga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 37-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan mahkumlar yaqin qarindoshlari bilan har oyda bir marta muddati uch soatgacha bo'lgan qisqa muddati uchrashishi mumkin.

Oila kodeksining 67-moddasiga binoan, bola o'z huquqi va qonunly manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega. Bolaning huquqi va qonunly manfaatlarini ximoya kilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), amaldagi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layeqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquq va majburiyatlarini, shu jumladan himoyaga bo'lgan huquqini mustaqil amalga oshirishga haqidir.

Oila kodeksi bolaning himoyaga bo'lgan huquqini belgilab, yanada kengroq yangilik olib kirdi. Endilikda voyaga yetmagan bola ota-onalardan (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiste'molliklardan himoyalanish huquqiga ega.

Ma'lumki, har qanday fuqaroning huquqi, shu bilan birga voyaga yetmagan bolalarning huquqi sud tartibida himoya qilinadi. Oila kodeksining 68-moddasi bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqini belgilaydi, bu huquqning harakat doirasini aniqlaydi,

qanday holatlarda voyaga yetmaganlarning fikri hisobga olinishini ifoda etadi.

Oila kodeksining 69-moddasiga binoan, bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega. Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi esa otasining ismi bo'yicha beriladi.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga ko'ra belgilanadi. Ota-onsa turli familiyalarda bo'lalar, ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko'ra bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an'analarga binoan boboning ismi bo'yicha familiya berilishi mumkin. Ota-onsa o'rtaida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo'yicha kelishuv bo'limganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

### **Mavzuga oid keys topshiriqlari:**

1. O'zbekiston Respublikasining Xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo'mitasi (hozirgi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi)ning Toshkent shahar boshqarmasi Toshkent shahri Yashnobod tumani Quruvchilar ko'chasi 15 uy bir necha yillardan buyon egasiz, qarovsiz ahvolda ekanligi sababli tashlandiq ahvolda qolib ketganligi sababli mazkur xonadonni egasiz deb topish haqida da'vo ariza bilan fuqarolik ishlari bo'yicha Mirobod tumanlararo sudiga murojaat qildi. Ushbu xonadon fuqaro Alimovlarga tegishli bo'lib, ular 2010-yilda avtohalokat tufayli vafot etishgan va ularning 2 nafar voyaga yetmagan farzandlari bo'lgan. Biroq, ular haqida hech qanday ma'lumot yo'qligi sababli ushu xonadonni egasiz deb topish haqida da'vo qo'zg'atildi.

*Mazkur holatda voyaga yetmagan shaxsni aniqlash, ularning mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish, hisobini yuritish vazifalari kimning zimmasiga yuklangan. Voyaga yetmagan shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'llarini ko'rsatib bering.*

2. 13 yoshli voyaga yetmagan Nafisaga buvisidan uy-joy meros qilib qoldiriladi. Ushbu uy-joyda Nafisa hamda uning ota-onasi birgalikda yashar edilar. Uy-joyni Nafisani ota-onasi uning xolasiga sotish to'g'risida Nafisaga aytganlarida, Nafisa bunga qarshi

ekanligini, uy uning xususiy mulki ekanligini, bu uy unga buvisidan yodgorlik ekanligini bildiradi.

*Bolalarning oiladagi xususiy mulklari tarkibiga nimalar kiradi? U qanday va qaysi hollarda kim tomonidan tasarruf etilishi mumkin?*

3. M.Ulug'bek tumani fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo sudiga Akilov Shamilni 9 yashar farzandi Maratga nisbatan otalik huquqidan mahrum qilish to'g'risida xotini Akilova Liliyadan da'vo arizasi kelib tushadi. Otalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi da'vo arizada asosan Akilov o'g'liga nisbatan o'ta shafqatsizlarcha munosabatda bo'lib, uni spirtlik ichimliklarni suiste'mol qilib, o'g'lini har kuni kuni kaltaklashini hamda uni tilamchilikka o'rgatayotganligini ko'rsatadi.

Aytingchi, ota-onalar qanday va qaysi asoslar mavjud bo'lgan helda ota-onalik huquqidan mahrum qilinadilar.

*Suningcha, sud qanday hal qiluv qarori qabul qilishi lozim va bunga Oila kodeksining nechanchi moddasi asos bo'lib xizmat qiladi?*

4. 10 yoshga to'lgan Iqbol juda ham san'atga ixlosmand bo'lib, u turli janrdagi rasmlarni bemalol chiza olar edi. Uning qobiliyatini sezgan rasm o'qituvchisi Iqbolni yirik ko'rgazmada ishtirok etish uchun taklif qiladi. Bundan xabardor bo'lgan ota-onalar rozilik bermaydilar. Shunda Iqbol o'zi fikrini ifoda etsa, ota-onalar bunga qarshilik ko'rsatadilar.

*Aytingchi, bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi Oila kodeksining nechanchi moddasi bilan himoya qilinadi?*

5. 10 yil birga yashashganlardan so'ng er-xotin Meredovalar nikohdan sud tartibida ajrashdilar. Ularning to'rt nafar voyaga yetmagan bolalari bo'lib, ulardan ikkitasi erda va ikkitasi hotinda qolgan.

Er bilan qolgan farzandlari Madina va Muxtorlar o'zlarining bobo va buvilarini sog'inganliklarini va ular bilan ko'rishish ishtiyoqida ekanligini otasiga aytganida, otasi bunga e'tiroz bildirib, ular bunday keyin hech qachon bobo va buvilarini bilan uchrashmasliklarini aytdi. Shundan so'ng sobiq er-xotinlar o'rtaida bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishib turishi xususida nizo kelib chiqdi.

*Meredova bolalarining huquqlarini himoya qilish maqsadida qaysi organga murojaat qilishi lozim?*

*Oila kodeksining 66-moddasi normasini sharhlang.*

### **Testlar**

**1. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy nomulkiy huquqlari to'g'ri sanalgan qatorni toping.**

A. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi; Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi

B. Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi; Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi; Merosdan foydalanish huquqi.

C. Bolaning ismi va familiyasini o'zgartirish; Fuqarolik huquqiy munosabatlarga kirishish; Mehnat shartnomalarini tuzish

D. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; Bolaning ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi; Ta'lif olish, davolanish, axborot olish va istalgan joyda yashash huquqi

**2. Bolaning ota-onasi bo'lmaganda yoki ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda va bola ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda uning oilada tarbiyalanish huquqi kim tomonidan ta'minlanadi?**

A. Bolaning qarindoshlari tomonidan

B. Mahalla idoralari tomonidan

C. Vasiylik va homiylik organi tomonidan

D. Bolani asrab olishni istagan oila tomonidan

**3. Ota-onaning nikohdan ajralish siddida bolaning fikrlarini eshitish majburiyatiga egami?**

A. Voyaga yetmagan bolalarning fikrlari sud uchun ahamiyatli asos sifatida qabul qilina olmaydi

B. Sudyaning xohishiga bola fikr bildirishi yoki fikr bildirmasligi mumkin

C. Voyaga yetmagan bolalar har qanday sudda ishtirok etishlari va shaxsiy fikrlarini sud jarayonida bildirishlari mumkin.

D. bolaning manfaatlariga taalluqli har qanday sud muhokamasi yoki ma'muriy muhokama davrida so'zlashga haqlidir.

**4. Agar voyaga yetmagan shaxslar farzandli bo'lsa ularga ota-onalik huquqi beriladimi?**

A. O'zaro nikohda bo'lmagan voyaga yetmagan shaxslar ota-oni bo'lganda bola vasiylik va homiylik organlariga topshiriladi.

B. O'zaro nikohda bo'lmagan voyaga yetmagan shaxslar ota-oni bo'lganda onaligi va (yoki) otaligi belgilanganda o'n olti yoshga to'lishlari bilan ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar.

C. O'zaro nikohda bo'lmagan voyaga yetmagan shaxslar ota-oni bo'lganda ular voyaga yetgunga qadar tug'ilgan bolaga nisbatan ota-onalik huquqi voyaga yetmagan shaxslar ota-onalariga beriladi.

D. O'zaro nikohda bo'lmagan voyaga yetmagan shaxslar ota-oni bo'lganda ota-onalik huquqi berilmaydi.

**5. Ota-onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarini to'g'ri sanalgan qatorni toping.**

1) Ota-ona huquq va majburiyatlarining tengligi;

2) Voyaga yetmagan ota-onaning huquqlari;

3) Ota-onaning bolalarga ta'lif-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlar;

4) Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi

5) Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlar;

6) Ota-onalik huquqini amalga oshirish;

7) Boladan alohida yashayotgan ota(ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishi.

A. 2,4,6

B. 1,3,5,7

C. 4,5,6,7

D. 3,4,5

### **Nazorat savol va topshiriqlari:**

1. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy huquqlarini ko'rsating.

2. Ota-onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlarini nimalardan iborat?

3. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish oqibatlari.

4. Bolaning oiladagi huquqiy holatini yoriting hamda uning ijtimoiy ahamiyatini ochib bering.

5. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling: **21-modda. Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi**

"Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er va xotin birgalikda hal qiladilar".

### **Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar**

1. Otaxo'jayev F., Yo'ldosheva Sh. Oila huquqi. Darslik. – Toshkent:Adolat, 2007.
2. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti, 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>).
3. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti. 2017.
4. M.X.Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.
5. advice.uz sayti savol-javoblari.
6. civil.uz.
7. stat. uz.

## **VII bob. OILA HUQUQIDA ALIMENT MASALALARI. OILA A'ZOLARINING MULKIY HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

### **Ko'rib chiqiladigan masalalar:**

- 1.1. Aliment tushunchasi va tarixi.
  - 1.2. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash tartibi va miqdori.
  - 1.3. Ota-onalik huquqini amalga oshirish tartibi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish masalalari
  - 1.4. Ota-onalar bilan bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlari
  - 1.5. Bolalarning ota-onaga beradigan ta'minot miqdori va tartibi.Yaqin qarindoshlar o'ttasidagi aliment.
  - 1.6. Aliment undirish tartibi va shartlari.
- Tayanch so'zlar:** aliment, aliment miqdori, aliment undirishga qaratiladigan daromadlar, farzand ta'minoti, aliment haqidagi kelishuv, aliment jamg'armasi. "O'zbekiston Respublikasining pensiya haqida"gi qonun; mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj; qo'shimcha xarajatlar; aliment; chet el valyutasi; 2-guruh nogironi; voyaga yetmaganlarning xususiy mulki; boshqarish; tasarruf etish; nafaqa; ta'minot.

### **Aliment tushunchasi va tarixi**

Aliment (lot. alumentum – qaramog'idiagi, boqimidagi) – bir shaxsning boshqa shaxsga oilaviy huquqiy munosabatlар doirasida majburan yoki ixtiyoriy ravishda to'laydigan nafaqasi hisoblanadi.

Aliment to'lash amaliyoti tarixi Hammurapi kodeksida yozilgan nikoh qoidalariga borib taqaladi kiradi. Bu qadimgi Bobil kodeksiga binoan (miloddan avvalgi 1780-yilda yaratilgan), agar er-xotin ajrashgan bo'lsa, erkak sobiq xotiniga nikohdan chiqqan har qanday bolani vasiylik qilishi va unga va bolalarini voyaga yetguniga qadar boqish uchun nafaqa berishi shart edi. Agar er-xotinning farzandi bo'lmasa, erkak xotiniga kelin bahosiga teng pul to'lashi shart edi. Agar xotin bir qancha urf-odatlarni buzgan bo'lsa, er bolalarni o'zida saqlab qolishga yoki hatto sobiq xotinini qullikka berishga haqli edi.

Aliment, shuningdek, keyinchalik Rim huquqi va Britaniya umumiy huquqining asosi bo'lgan Yustinian kodeksida ham tilga olingan. Ushbu kodeks alimentni odat va obro'siga ko'ra nikoh sharoitida muhokama qiladi, bunda er-xotinlar qonuniy nikohda deb hisoblanadilar va ularning ittifoqini rasmiylashtirmagan bo'lsalarda, bundan kelib chiqadigan har qanday huquq yoki imtiyozlarga ega bo'lishadi.

Qo'shma Shtatlarda aliment to'lashning zamonaviy konsepsiysi ajrashish holatlarida aliment to'laydigan ingliz cherkov sudlaridan kelib chiqadi. Ajralishdan keyin yoki doimiy aliment to'lash, nikoh davom etishi haqidagi tushunchaga asoslangan edi, chunki cherkov sudlari faqat ajrashish to'g'risida qaror qabul qilishlari mumkin edi. Dnyoning turli mamlakatlarda aliment masalasi shu hudud aholisining milliy an'ana va qadriyatlari asosida turlicha ko'rinish va miqdorga ega.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 5-bo'limi 96–147-moddalari Oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlariga oid huquqiy munosabatlarning tartibini belgilovchi qoidalar hisoblanadi.

### **Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lash tartibi**

Oila kodeksining 96-moddasiga ko'ra, ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi.

Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-ona o'rtaida kelishuv bo'lmasganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt yoshga to'lgan bola voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Ota-ona va bola alohida-alohida yashagan taqdirda, vasiylik va homiylik organlari, shuningdek o'n to'rt yoshga to'lgan bola bir

vaqtning o'zida ota va onadan voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir.

Qonunga binoan voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash tartibi va shakli ota-ona tomonidan mustaqil ravishda belgilanishi mumkin. Jumladan, ota-onalar o'zaro kelishib, faqat erving yoki xotinning maoshini voyaga yetmagan farzandlari ta'minotiga sarflashni belgilashlari mumkin. Ota-onalar bola tarbiyasi va ta'minoti uchun zarur bo'ladigan xarajatlar hajmini ham, bunday ta'minot qancha miqdorda va qachon berilish maqsadga muvofiqligini ham mustaqil belgilaydilar.

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-ona o'rtaida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onalarning har oydagisi ish haqi va boshqa daromadining quyidagi miqdorida aliment belgilaydi:

bir nafar bola uchun 1/4 qismi;

ikki nafar bola uchun 1/3 qismi;

uch nafar va undan ortiq bola uchun 1/2 miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarining miqdori taraflarning moddiy va oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarini hisobga olgan holda kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin.

Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Ma'lum asos va sharoitlar mavjud bo'lgan hollarda ota-onadan aliment olish huquqi voyaga yetgan, ya'ni 18 yoshga to'lgan shaxslarda ham vujudga keladi. Qonunga muvofiq, voyaga yetgan bolaning mehnatga layoqatsiz va yordamga muhtojligi shunday shartlar hisoblanadi. "Mehnatga layoqatsiz" tushunchasi mehnat qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 1993-yilgi Qonuni bilan aniqlangan.

Ota-onadan bolalarga undiriladigan aliment miqdori aliment to'lovchining oylik ish haqiga va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan ulushlar hisobida yoki pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning ish haqi va (yoki) boshqa daromadi doimo bir xilda bo'lmay, o'zgarib tursa yoxud

daromadining bir qismini natura tarzida oladigan bo'lsa, shuningdek daromaddan ulush tarzida aliment undirish imkoniyati bo'lmasa yoinki ota-onasidan rasman belgilangan ish haqi yoki daromadga ega bo'lmasa, voyaga yetmagan bolalarning ta'minoti uchun to'lanishi lozim bo'lgan aliment miqdori har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Oila kodeksining 103-moddasiga ko'ra, ota-onasidan favqulodda holatlar (bolaning og'ir shikastlanishi, kasal bo'lishi va boshqalar) tufayli kelib chiqqan, bolaning ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishi shart.

Qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishdan bosh tortgan ota (ona)dan sud ularning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olib, qo'shimcha xarajatlarni qisman pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Aliment O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida pul yoki natura tarzida olingan barcha turdag'i daromadlardan ushlab qolinadi. Chet el valyutasida olinadigan daromadlar aliment undiriladigan kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy kursi bo'yicha so'mlarda hisoblanadi.

Oila huquqi juda keng qamrovi, ayni paytda "bir qolipli" huquq sohasi bo'lmaganligi sababli ayrim hollarda aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to'lashdan ozod qilish instituti ham kiritilgan.

Aliment to'layotgan ota-onanining boshqa voyaga yetmagan bolalari bo'lib, undan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirilganda o'sha bolalar aliment olayotgan bolalarga nisbatan moddiy jihatdan kamroq ta'minlanib qoladigan bo'lsa, shuningdek aliment to'layotgan ota (ona) nogironligi bo'lgan shaxs bo'lib, moddiy jihatdan qiynalib kelayotgan bo'lsa yoki aliment olayotgan shaxs mustaqil daromadga ega bo'lgan taqdirda, aliment miqdori sud tomonidan kamaytirilishi mumkin.

Ota-onasi vafot etganligi oqibatida yetim qolgan voyaga yetmagan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish davlat tomonidan amalga oshiriladi. Ota-onasidan qaramog'idan mahrum bo'lgan, ya'nii tirik ota-onalar mavjudligida ularning qaramog'idan bolalarni sudning hal qiluv qarori asosida

ota-onalik huquqidan mahrum qilingan, tirik ota-onalar qaramog'idiagi bolalar tarbiya muassasalariga joylashtirilganda, ular uchun aliment ota yoki onadan undiriladi. Voyaga yetmagan bolani ota-onasidan olib, uni qaysi bolalarni tarbiyalash muassasasiga joylashtirish haqida hal qiluv qarorini chiqargan sud bolaning faqat ota-onasidangina aliment undirish haqida ham qaror chiqaradi.

Agar voyaga yetmagan bola davlat yoki nodavlat muassasalarining to'liq ta'minotida bo'lsa, sud aliment to'layotgan ota yoki onanining moddiy ahvolini hisobga olib, to'lanayotgan aliment miqdorini kamaytirish yoki uni aliment to'lashdan ozod qilish haqida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

Aliment miqdorini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish uchun asos bo'lgan holatlar tugaganda manfaatdor taraf aliment qonunda belgilangan miqdorda undirilishini talab qilib, sudga murojaat etishga haqli.

Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj voyaga yetgan bolalar ota-onasidan, agar ular yo'q bo'lsa, qarindoshlari va ushbu Kodeksda ko'rsatilgan boshqa shaxslardan o'z ta'minoti uchun aliment talab qilish huquqiga ega. Bunday hollarda aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvoli hisobga olinib, pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanishi mumkin.

Basharti, voyaga yetgan bolalar 1- yoki 2-guruh nogironi deb topilgan bo'lsalar, so'zsiz, o'z ota-onalaridan aliment olish huquqiga ega bo'ladilar. Lekin, 3-guruh nogironligini belgilashda shaxsning mehnat layoqatini anchagina yo'qotgani va bu layoqatning uzoq vaqt davomida pasayib borishi asos bo'ladı. Ammo bunday shaxsning mehnat layoqati to'liq va uzil-kesil yo'qotilmaydi. Voyaga yetgan bolalar 3-guruh nogironi bo'lsalar, konkret vaziyatlarda sud aniqlab va tadqiq etib chiqargan xulosaga qarab, aliment olishlari mumkin.

Sudning hal qiluv qaroriga asosan pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirilayotgan **alimentlarni indeksatsiya** qilish alimentlar ushlab qolinayotgan joyda qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Indeksatsiya qilish maqsadida alimentning miqdori sud tomonidan qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng

kam miqdorining muayyan qismiga mos ravishda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

## Ota-onu huquq va majburiyatlarining tengligi

Oila kodeksining 71-moddasiga muvofik, ota-onalik bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar (ota-onalik huguqlari).

Ota-onalik huquqlari bolalarning dunyoga kelishlariga asoslanib, tegishli qonun bilan belgilangan tartibda bola tug'ilganligi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qayd etilishiga asoslanadi.

Ma'lumki, ota va onalarning o'z bolalariga nisbatan teng huquqli bo'lishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 58-moddasida nazarda tutilgan xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligiga asoslanadi. Bola haqida g'amxo'rlik qilish, unga ta'limgarbiya berish ota-ona uchun ham axloqiy, ham konstitutsiyaviy huquq va burchdir. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda ota va ona o'z bolalariga nisbatan teng huquqdan foydalanadilar va teng majburiyatni o'z zimmalariga oladilar. Ota-onalik huquqini amalga oshirishda teng huquq va majburiyatga ega bo'lish Oila kodeksining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi.

Oila kodeksi birinchi marotaba ota-onalik huquqlarini voyaga yetmagan ota-onalarga berilishini belgilaydi. Unda boshqa yangiliklar to'g'risida so'z yuritilib, ota-onalarning huquqiy maqommini yuqori ko'targan holda, ularning o'z bolalariga nisbatan huquq va majburiyatlarini aniqlaydi. Voyaga yetmagan ota-ona o'z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqiga ega.

O'zaro nikohda bo'limgan voyaga yetmagan ota-onalik bilan ota-onalik ravishda amalga oshirishga haqlidirlar. Voyaga yetmagan ota-onalik bilan birgalikda tarbiyalash uchun bolaga vasiy tayinlanishi mumkin. Bolaning vasiysi bilan voyaga yetmagan ota-onalik o'rtaida

kelib chiqadigan kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Voyaga yetmagan ota-onan o'z otaligi va onalignini umumiy asoslarda e'tirof etish yoki unga e'tiroz bildirish huquqiga ega.

Oila kodeksining 73-moddasi ota-onaning o'z bolalarini tarbiyalash huquqlarini belgilaydi. Shu bilan birga ushbu moddada ota-onaning o'z bolalarini tarbiyalash majburiyati ham aniqlangan.

Ota-onaning qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi kerak.

## Ota-onalik huquqini amalga oshirish tartibi

Ota-onalarga o‘z bolalariga nisbatan keng huquqlar beriladi, umumiy qoida bo‘yicha davlat ularni amalga oshirish jarayoniga aralashmaydi (Oila kodeksi 75-78-moddalari). Biroq bunda davlat o‘z shartlarini qo‘yadi. Asosiy e’tibor ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas (Oila kodeksi 75-moddasining 1-bandi).

Oila qonunchiligiga asosan ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-ona bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, ahloqiy kamolotiga zarar yetkazmasliklari, bolalarni tarbiyalash usullarini mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollik, insoniy qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlardan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan holi bo'lishlari lozim.

Agar ota-onalar o'zlarining ota-onalik huquqlarini bolalarning huquq va manfaatlariga qarshi qaratib amalga oshirsalar, buning uchun ularning qonun tomonidan belgilangan tartibda javobgarligi vujudga keladi. Javobgarlik fuqarolik-huquqiy, jinoiy, ma'muriy bo'lishi mumkin. Bunda ota-onaning o'z bolasiga nisbatan muayyan qanday huquqni buzganligiga, ya'ni jinoiy nojo'ya ish va boshqa turdagи huquq buzilishlarini sodir etganligiga bog'liq bo'ladi.

Ota yoki ona tomonidan voyaga yetmagan bolani tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalg qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, jinoiy oqibatni keltirib chiqaradi (Jinoyat kodeksi 127-moddasining birinchi qismi).

Ota-onalarning javobgarligi oila qonunchiligi normalari asosida ham vujudga kelishi mumkin. Ma'lum shartlarning mavjud bo'lishi ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum etishi uchun asos bo'lishi mumkin (Oila kodeksining 79-moddasida).

Oila kodeksi 75-moddasining to'rtinchı qismiga muvofiq, bolalarning ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqadi va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-ona tomonidan o'zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-ona o'rtaida kelishmovchiliklar mavjud bo'lsa, ular (ulardan biri) bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidir.

Ota-onalik huquqlarini muvaffaqiyatlama amalga oshirish uchun bolalar o'zlarini ota-onalari yoki ulardan biri bilan yashashlari maqsadga muvofiq. Agar ota-onalar alohida yashasalar, bolaning yashash joyi ota-onalarning kelishuvi bilan hal qilinadi. Agar ota-onalar o'rtaida kelishuv bo'lmasa, u holda nizo bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud bolaning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog'lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining axloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onaning har biri bilan bola o'rtaсидаги munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar (ota-onasining mashg'ulot turi, ish tartibi, moddiy hamda oilaviy ahvoli va boshqalar)ni yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

### **Ota-onalik huquqidan mahrum qilish**

Oila kodeksining 79-moddasiga binoan ota-onalar o'zlarining ota-onalik majburiyatlarini bajarmasalar, u holda ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinadilar. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish so'nggi chora hisoblanadi. Ota-onalik huquqidan mahrum

qilish ularga ta'sir qiladigan hamma chora-tadbirlar tegishli natija bermaganidan so'ng qo'llaniladi.

Oila kodeksining 79-moddasida sanab o'tilgan ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari doirasi yangi oila qonunchiligidagi yanada kengaydi.

Ota-ona (ulardan biri) quyidagi hollarda: ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa; aliment to'lashdan bo'yin tovlasa; uzsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa; ota-onalik huquqini suiste'mol qilsa; bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, chunonchi, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa; muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsa; o'z bolalarining hayoti va sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat sodir etgan bo'lsa, ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin.

Oila kodeksining 80-moddasida ota-onalik huquqidan mahrum qilish tartibini belgilaydi. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish faqat sud tartibida amalgalashirildi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning), prokurorning, shuningdek, voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyi yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi komissiyalar, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan ko'riladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasini hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi umumlashtirish jarayonida qonun talabiga zid ravishda ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslardan aliment undirish masalasi hal etilmay qolishi, voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilmaslik hollarini aniqladi.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlarni ko'rishda ota-onan (ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqda prokurorga xabar berishi lozim.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko'chirmasini bolaning tug'ilganligi davlat tomonidan ro'yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organiga yuborishi shart.

### **Ota-onalar bilan bolalarning mulkiy huquq va majburiyatlar**

Mulkka nisbatan bo'lgan munosabat, shaxsning jamiyatdagi mavqeini, erkinligini, shuningdek har bir jamiyatning iqtisodiy va siyosiy tizimini, barqarorligini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi barcha mulklar qatori xususiy mulkni himoya qilinishiga muhim o'rinn ajratgan Konstitutsiya xususiy mulkning huquqiy mavqeini niyoyat darajada kuchaytirgan.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 13-bobining 90-95-moddalari oiladagi mulkiy munosabatlarni tartibga solgan. Oila kodeksining 90-moddasiga binoan, ota-onan hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lismi huquqiga ega emas. Ota-onan ham voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo'lismi huquqiga ega emas. Ota-onan va bolalarning ular o'rtaсидаги umumiyligi mol-mulkka bo'lgan mulk huquqi Fuqarolik kodeksi 18-bobining 216-227-moddalari bilan tartibga solinadi.

Oila kodeksi 90-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq, voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotganda fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar qo'llaniladi.

Voyaga yetmagan bolalar: o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish; fan, adabiyot, san'at bobidagi asarlari, ixtirolari yoxud o'z intellektual faoliyati samaralarini, shuningdek,

qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa mualliflik huquqini amalga oshirish; qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish hamda qonunda belgilangan (Fuqarolik kodeksining 29-moddasi ikkinchi qismi) mayda maishiy bitimlarni tuzishni mustaqil amalga oshirishlari mumkin.

Oila kodeksining 91-moddasiga binoan, ota-onan va bolalarning alohida-alohida mulki bo'lismi mumkin va birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin.

Bolalar mulkdorlik huquqiga ega. Bu holat bolaga bo'lgan e'tibor uni huquqning mustaqil subyekti ekanligini anglatadi. Voyaga yetmagan bolalarning mulkka bo'lgan huquqlari yig'ma xarakterga ega bo'lgan huquqlar bo'lib, ularning har biriga Oila kodeksida alohida e'tibor beriladi. Bularning ichida birinchi navbatda, har bir voyaga yetmagan bolalar o'z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega ekanligi yotadi.

Bunday huquqlar, eng avvalo, bolalarning muhim hayotiy ehtiyojlari (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy va boshqalar) birinchi navbatda ota-onalari, oilasi yoki ularning o'rnini bosuvchi oila a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

Oilada bolalarga ta'minot berishning bir qancha manbalari mavjud. Voyaga yetmagan bolalarning normal hayotiy ehtiyojini qondirish uchun ota-onasi, farzandlikka oluvchilar ish haqining ma'lum qismi jalb etiladi; bolalarga tegishli bo'lgan alimentlar, agar ota-onalar (ulardan biri) ularning moddiy ta'minotidan xabar olmasa, qonun yo'li bilan bolalarga tegishli bo'lgan pensiyalar, har xil nafaqalar undiriladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag', pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo'ladi hamda bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lim olishi uchun sarflanadi.

Quyidagi asoslar bolalarning mol-mulkka bo'lgan huquqlarining kelib chiqishiga asos bo'ladi: mayda maishiy bitimlar tuzish, kichik tadbirkorlik yuritish; hadya shartnomasini tuzish; ish haqidani; stipendiyasidan; fan, san'at va adabiyot bo'yicha ko'lga kiritilgan yutuklari va ixtiro yaratgan bo'lsa, undan foydalanishdan

tushgan daromaddan; merosdan; banklarga qo'yilgan omonatlardan mol-mulk orttirish mumkin.

Voyaga yetmagan bolalar o'zlariga tegishli bo'lgan mol-mulkni o'zlari tasarruf qila olmasliklari mumkin. Bunday hollarda ularga ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari yordam beradilar. Demak, ota-onalar oilada bolalarini mulkdorlik his-tuyg'usi asosida tarbiyalashlari lozim. Mulkdor o'z mol-mulkidan foydalanayotganda boshqalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi, o'zining ustunlik mavqeini suiiste'mol qilmasligi, fuqaroning hayoti va sog'lig'iga, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazmasligi kerak.

Fuqarolik qonunchiligi bolalarga o'z mulkini mustaqil ravishda tasarruf etish huquqini beradi. Bolalarning bu imkoniyatlari ularning yoshiga bog'liq bo'lib, Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari bilan belgilanadi.

Voyaga yetmagan bolalar nomiga ota-onalari va boshqa shaxslar tomonidan qo'yilgan mablag'larni boshqarish va tasarruf etish Fuqarolik kodeksi qoidalari asosida amalga oshiriladi. Voyaga yetmagan bolalar nomiga qo'yilgan pul mablag'lari, bolalar o'n to'rt yoshga kirgunga qadar ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari tomonidan tasarruf etilishi mumkin. Ular o'n to'rt yoshga to'lgandan keyin esa faqat o'zlari tomonidan ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillarning roziligi bilan tasarruf etilishi mumkin.

*Kichik yoshdagagi bolalar-olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lganlar:* mayda maishiy bitimlar tuzish; tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni tuzishlari mumkin.

Ota-onsa va voyaga yetmagan bolalar o'rtasida kelib chiqadigan mulkiy nizolar sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi. "O'n to'rt yoshga to'lmagan kichik yoshdagagi voyaga yetmagan bolalar o'z huquqlarini sudda himoya qilish muomalasiga ega emaslar. Ularning ota-onalari esa nizo munosabati bilan ishda taraf sifatida ishtirok etganliklari sababli voyaga yetmagan bolalarning qonuniy vakili sifatida ishtirok eta olmaydilar. Shu sababdan kichik yoshdagagi bolalarning mulkiy huquqlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan qonuniy vakil sifatida amalga oshiriladi".

## Bolalarning ota-onaga beradigan ta'minot miqdori va tartibi

Oilada ota-onsa va bolalar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar, tabiiyki, bir-biriga yordam ko'rsatish, bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamjihatlik hamda ixtiyoriylikka asoslangan bo'lshini taqozo etadi. Aks holda, qonun chiqaruvchi voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalarni o'z ota-onasi to'g'risida g'amxo'rlik qilish, shuningdek, yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onalariga moddiy yordam ko'rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Ota-onaning mehnatga layoqatsizligi, shuningdek, oiladagi boshqa a'zoning mehnatga layoqatsizligi ularning pensiya yoshiga yetganligi (ayollar 55 yoshga va erkaklar 60 yoshga to'lganligi) yoki oilada I va II guruh nogironlari mavjudligini anglatadi. Ota-onaning III guruh nogironi bo'lganligi TMEK (tibbiy-mehnat komissiyasi)ning tegishli xulosasida tavsiya etilgan ishni topa olmaganlari taqdirda, ularga o'z bolalaridan ta'minot olish huquqini beradi.

Ota-onaning bolalar yordamiga muhtojligi ularning mablag'lari (ish haqi, pensiya va shu kabilar) o'zlarining moddiy sharoitlarini tirikchilik minimumi darajasida saqlashlari uchun yetmagan vaqtida yuzaga keladi.

Yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onaga aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv ota yoki onaning har biri bilan alohida-alohida yoki har ikkalasi bilan birga tuzilishi mumkin. Basharti, mehnatga layoqatsiz ota (ona) muomala layoqatiga ega bo'lmasa, tegishli kelishuvni uning nomidan qonuniy vakili tuzadi.

Yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onsa foydasiga aliment undirilishi vaqtida ota-onaning ham, bolalarning ham moddiy, oilaviy sharoitlari, shuningdek, taraflarning e'tiborga loyiq barcha manfaatlari hisobga olinishi lozim.

Olla kodeksining 110-moddasiga ko'ra, Ota-onsa, aliment undirish haqidagi talabni o'z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo'yganligidan qat'i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi uzil-kesil hal bo'lgunga qadar suda shu nizo

bo'yicha vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatib, ajrim chiqarishi mumkin.

Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining **11,75 foizidan kam** bo'lmasligi kerak.

Ta'minot berishga mas'ul bolalar boshqa hududlarda bo'lib, ularning turar joyi va ish haqi miqdorini aniqlash masalasi ma'lum muddatlarga cho'ziladigan bo'lsa (masalan, bolalardan ayrimlari chet elda bo'lib, aliment to'lashning iloji bo'lmasa) yoki aliment undirish nizosini uzil-kesil hal qilish imkoniyati bo'lmasa, masala hal qilingunga qadar sud shu nizo bo'yicha muhtoj ota-onaning moddiy ta'minlash maqsadida bolalar tomonidan vaqtincha to'lab turilishi lozim bo'lgan summani ko'rsatib ajrim chiqarishi mumkin.

Ota-onaning og'ir kasalligi, shikastlanganligi, ularga qaragan begona shaxslarga haq to'lash zarurati kabi favqulodda vaziyatlar tufayli yuzaga keladigan ota-onaga taalluqli qo'shimcha harajatlarda voyaga yetgan bolalarining ishtirok etish zarurati to'g'risidagi qoida O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksida yangilikdir.

Ota-onaning zaruriy qo'shimcha xarajatlari voyaga yetgan bolalarning barcha turdag'i daromadlari hisobidan qoplanishi lozim. Ota-onaning qo'shimcha xarajatlarni qoplash sud tomonidan qat'iy pul summasida belgilanadi. Har bir voyaga yetgan bolaning zimmasiga yuklatiladigan qo'shimcha xarajatlarni qoplash summasini belgilashda, bolaning moddiy imkoniyatlari hisobga olinadi.

### Aliment undirishning qonuniy asoslari

Aliment undirish to'g'risidagi sud qarorlari sud ijrochisi tomonidan o'z vaqtida qonunga muvofiq amalga oshirilishi kerak. Ijro etish O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi normalari va sud qarorini bajarishga oid meyoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Sud qarori javobgar yashab turgan joyning sud ijrochisi tomonidan uning ish haqidani yoki mulki joylashgan yerdagi mulkdan undiriladi. Aliment undirish haqidagi ijro varaqasini olgan sud ijrochisi aliment to'lashga mas'ul bo'lgan shaxsning yashash va ishlash joyini topib, undan ish haqi va boshqa daromadlarini aniqlaydi. Agar uning yashash va ish joyi aniq

bo'lmasa, u holda bu shaxsga nisbatan qidiruv e'lon qilish haqidagi masalani sud oldiga qo'yadi. Aliment to'lashga mas'ul shaxsning yashash va ish joyi aniqlanmagan taqdirda, aliment undiruvchining ijro varaqasini qaytarishga yo'l qo'yilmaydi. Butun qidiruv davomida bolaga aliment undirish to'g'risidagi sudning ijro varaqasi aliment undirish voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan lekin mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bobo va buvilarining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Aliment to'lashga mas'ul shaxs 50% dan ortiq miqdorda aliment to'layotgan bir vaqtida, mehnatga yaroqsiz, moddiy ta'minotga muxtoj ota-onasiga ham moddiy yordam berishi haqida sudning qarori yoki o'zaro kelishuv mavjud bo'lsa, bu holat aliment miqdorini kamaytirishni talab qilish uchun yangi asos bo'lib hisoblanadi.

Voyaga yetmagan yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash haqidagi sudning hal qiluv qarorini bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslar ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ota-onasiga moddiy yordam berish to'g'risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik jinoiy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Er-xotin bir-birini o'zaro moddiy qo'llab-quvvatlashi nikoh tutilgan paytdan boshlab yuzaga keladigan eng muhim majburiyatlardan biridir. Qonunda nazarda tutilgan asos mavjud bo'lgan taqdirda, bunday majburiyat so'zsiz bajarilishi shart. Bundan shu narsa dalolat beradiki, agar er xotinga (xotin erga) istiyor ravishda zaruriy moddiy yordam ko'rsatmasa yoki er va xotin o'rtasida muayyan ta'minot to'lash to'g'risidagi kelishuv mavjud bo'lsa-yu, ushbu kelishuv bajarilmasa, biri boshqasidan tegishli moddiy yordam ko'rsatilishini sud tartibida talab qilish huquqiga egadir.

Erkak va ayol o'rtasidagi rasman qayd etilgan nikoh mavjud bo'limgan paytda bu holat (haqiqiy nikoh munosabatida bo'limganlari sababli) ularning biriga boshqasidan tegishli moddiy yordam berishni talab qilish huquqini bermaydi. Bu qoida mutlaq tusga ega bo'lib, erkak va ayolning amalda qancha vaqt nikoh munosabatlarida bo'lganiga bog'liq bo'lmaydi.

Er-xotin nikohdan ajralgandan keyin ta'minot (aliment) berishni talab qilish huquqini beradigan asoslarning uzil-kesil ro'yxati nazarda tutilgan. Sobiq er (xotin) ham sobiq xotin (eri) dan moddiy yordam talab qilish huquqiga ega. Er-xotin nikohdan ajralganda birinchi navbatda sobiq xotin nikohdan ajralmasdan oldin homilador bo'lsa, shu homiladorligi davrida va o'rtadagi bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida aliment olish huquqiga ega bo'ladi. Haqiqatda, nikoh munosabatlarda bo'lishining tugatilishi bu munosabatlardan qancha davom etganligidan qat'iy nazar, xotinga eridan aliment talab qilish huquqini bermaydi. Er-xotin o'rtasidagi bola ular nikohdan ajralgunga qadar tug'ilib, o'n sakkiz yoshga to'lgunicha sobiq er (xotin)ning qaramog'ida bo'lsa yoki bolalikdan 1 guruh nogironi bo'lgan bolaga qarayotgan muxtoj sobiq er (xotin) aliment olish huquqiga ega.

Aliment to'lash uchun agar er-xotin o'rtasida kelishuv tuzilmagan bo'lsa, manfaatdor er (xotin) tegishli da'vo bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Sud quyidagi hollarda er va xotinni bir-birlariga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin:

Agar er-xotin nikohda qisqa vaqt bo'lgan bo'lsa;

Agar o'z ta'minoti uchun mablag' to'lashni talab qilayotgan er yoki xotinning noloyiq xulq-atvori tufayli nikohdan ajratilgan bo'lsa;

Agar yordamga muxtoj er yoki xotinning mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi uning spirtli ichimliklarni, giyohvandlik vositalarini va h.z. suistyemol qilish yoki qasddan jinoyat sodir etishi tufayli yuz bergen bo'lsa.

Alimentlar (lotincha *alimentum*-“oziq-ovqat”, “nafaqa”, “ta'minot”, “boqish uchun mablag'lar” degan ma'nolarni anglatadi) bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to'laydigan moddiy mablag'laridir. Aliment majburiyatları oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikda bir tomonda-davlat, ikkinchi tomonda- jismoniy shaxs ishtirok etsa yoki ijtimoiy huquqiy munosabatlardan sodir bo'lsa, u holda “nafaqa” so'zi ishlataladi. Agar oilaviy-huquqiy munosabat bo'lib, unda oila a'zolari ishtirok etsalar, u xolda “aliment” so'zi ishlataladi.

Aliment majburiyatları mulkiy huquqiy munosabatlardan doirasiga kirib, shu bilan birga o'zining ba'zi bir maxsus belgilariga va xususiyatlariga ham ega. Aliment majburiyatining fuqarolik huquqidagi majburiyatdan farq qiladigan tomonlari ham mavjud.

Aliment majburiyatlarining kelib chiqish asoslari quyidagilardan iborat: birinchidan, qonunda imperativ asosda belgilangan (qon-qarindoshlik, mehnatga layoqatsizlik, muxtojlik); ikkinchidan, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv, aliment majburiyatları shaxsiy xarakterga ega. U majbur bo'lganning, shuningdek, talab kiluvchi shaxsning vafoti tufayli tugallanadi, meros bo'yicha boshqa shaxslarga o'tmaydi. Ularga talab qilishni boshqalarga o'tkazish va qarz qoidasi tatbiq etilmaydi.

Aliment majburiyatları bepuldir. Agar aliment xatolikka yo'l qo'yib undirilgan bo'lsa ham qaytarilmaydi. Yolg'on ma'lumotlarga va qalbaki hujjatlarga asoslanilgan hollar bundan mustasnodir. Aliment majburiyatları davomli bo'ladi. Aliment kelajak vaqt uchun olinib, da'vo qilingan kundan boshlab har oyda undiriladi. Bolalar uchun aliment ular voyaga yetgunlariga qadar undirilishi mumkin.

Amaldagi qonunda aliment majburiyatlarida bir qator yangi qoidalar belgilangan.

Oila kodeksi aliment undirishning uch tartibini belgilaydi:

1. Aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish (17-bobning 130-134-moddalari);
2. Alimentni ixtiyoriy to'lash (18-bobning 135-moddasasi);
3. Alimentni sud tartibida undirish (18-bobning 136-moddasasi).

Amaldagi qonunchilik bu uch tartib o'rtasidagi farqlarni aniq belgilab beradi. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishish mavjud bo'lganida sud tartibida aliment undirishga yo'l qo'yilmaydi. Aliment majburiyi, bu shunday huquqiy munosabatki, u qonunda belgilangan yuridik faktlar sodir bo'lganida vujudga keladi.

Taraflar o'zaro kelishganda yoki sudning hal qiluv qarori mavjud bo'lganida bir xil oila a'zolari boshqa oila a'zolariga to'lashga majbur bo'ladi, so'nggisi esa uni talab qilish huquqiga ega bo'ladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv, sud yo'li bilan aliment undirish huquqiga ega bo'lgan shaxslar o'rtasida ham (Oila kodeksining 131-moddasiga binoan), bunday huquqqa ega

bo'lmanalar o'rtasida ham tuzilishi mumkin. Oila kodeksining 130-moddasiga muvofiq, aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish uchun muomalaga layoqatlari bo'lismalagi talab etilmaydi.

Oila kodeksining 131-moddasida kelishuvni yozma ravishda tuzish va uni notarial tarzda tasdiqlash shartligi belgilangan. Biroq aliment to'lash to'g'risida (oddiy yozma shaklda) kelishuv tuzgan tomonlardan biri amalda uni ijro etishga kirishgan bo'lsa-yu, ikkinchi tomon uni notarial tasdiqlashdan bo'yin tovlayotgan bo'lsa, Fuqarolik kodeksining 12-moddasiga muvofik, kelishuv sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday xolatda keyinchalik kelishuvni notarial tasdiqlash talab etilmaydi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tomonlarning o'zaro kelishuvlariga binoan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi yozma ravishda amalga oshirilib, notarial tasdiqlanishi zarur. Oila kodeksining 16-bobiga binoan, aliment kelishuvlarini quyidagilar tuzishlari mumkin:

1. O'zlarining voyaga yetmagan bolalarini ta'minlash to'g'risida ota-onalar. Agar aliment 14 yoshga bo'lmasa, u xolda kelishuv aliment to'lovchi ota yoki ona bilan ona yoki ota o'rtasida tuziladi, bunda ikkinchi tomon sifatida farzandlikka oluvchi ota yoki ona, vasiy yoki farzandlikka oluvchining roziliqi bilan kelishuv tuziladi;

2. Yordamga muxtoj, mehnatga layoqatsiz voyaga yetgan farzandlarini ta'minlash to'g'risida ota-onalar. Ota-onalar bunday kelishuvni o'zlarining mehnatga yaroqli, voyaga yetgan farzandlari bilan ham tuzishlari mumkin;

3. O'zlarining mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalarini ta'minlash to'g'risida. Bunday holatda kelishuv voyaga yetgan har bir farzand bilan ota va onaning har biri o'rtasida, tomonlardan biri muomalaga layoqatsiz bo'lgan hollarda esa uning qonuniy vakili o'rtasida tuziladi. Bunday bitim, ota-onalar mehnatga layoqatsizligi va muhtojligidan qat'i nazar, tuzilishi mumkin;

4. Er-xotindan biri (mehnatga layoqatsiz, muhtoj bo'lgan hollarda). Masalan, xotin homiladorligi davrida hamda umumiy farzand tug'ilganidan keyin uch yil davomida yoki er yoxud xotin nogiron umumiy farzandni parvarish qilayotganida u 18 yoshga to'lguncha, yo bo'lmasa, I-gurux nogironi hisoblangan umumiy

farzandni parvarish qilayotganida er-xotinlar aliment kelishivi tuzishlari mumkin. Bitimda, aliment oluvchi er yoki xotin mehnatga layoqatsizligi yoki muxtojligidan qat'i nazar, ulardan birini ta'minlash nazarda tutilishi mumkin;

5. Sobiq er-xotinlar (nikoh mavjudligi davrida ham, ular nikohdan ajralganidan keyin ham). Ular, sobiq er yoki xotin mehnatga layoqatsizligidan yoki muxtojligidan qat'i nazar, bunday kelishuvni tuzishlari mumkin;

6. Shunday bitim tuzishlari mumkin bo'lgan aka-ukalar va opa-singillar, bobolar va buvilar. Ular nabiralari bilan o'zlarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin;

7. Bobolari va buvilarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzish huquqiga ega nevaralar;

8. Voyaga yetgan amaldagi tarbiyalanuvchilar. Ular o'zlarining sobiq amaldagi tarbiyachilarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzish huquqiga egadirlar;

9. Voyaga yetgan asrandi o'g'illar va qizlar. Ular o'gay otalari yoki o'gay onalarini ta'minlash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin.

Shuningdek, oila qonunchiligidagi xorijiy davlatga doimiy istiqomat qilish uchun jo'nab ketayotgan shaxs bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish mumkinligi ham nazarda tutilgan.

Alimentlar aliment to'lashga majbur shaxsning ish haki va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan hissada muntazam (har oyda, har chorakda va shu kabi) to'lanadigan qat'iy pul miqdorida mulk berish yo'li bilan, shuningdek, boshqacha usullarda to'lanishi mumkin. Kelishuvda to'lovning turli usullarini aralash qo'llash nazarda tutilishi mumkin. Aliment miqdori indekslashtirilganda aliment miqdori eng kam ish haqiga yoki chet el valyutasiga bog'liq qilib qo'yiladi.

Oila Kodeksining 99-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonunchilik bilan belgilangan mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 26,5 foizidan kam bo'lmasligi kerak.

Bunday kelishuv o'zaro kelishgan holda istalgan paytda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham mumkin.

Aliment kelishuvidagi tomonlardan biri, odatda, mehnatga layoqatsiz, muxtoj shaxs bo'lib, uning manfaatlarini qonun himoya qiladi. Oila kodeksi aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv va uni o'zgartirishning Fuqarolik kodeksi 383-moddasida belgilangan umumiy tartibiga binoan, sud nazorati ostida amalgा oshiriladi.

Mamlakatimizda olib borilgan keng ko'lamlı islohotlar doirasida oilani mustahkamlash, kelajak avlodning har tomonlama kamol topishiga ko'maklashish borasidagi ishlarning huquqiy asoslarini yanada kuchaytirishga qaratilgan ishlар ham amalgа oshirildi, xususan, Prezidentning „Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida“gi Farmoniga asosan *2021-yil 1-martdan aliment undirish tartibi o'zgardi*. Mazkur farmon bilan 1-martdan boshlab ijro hujjatlari bo'yicha aliment majburiyatlarini bajarish qarzdorlar tomonidan Aliment majburiyatlarini ijro etish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi orqali amalgа oshirilishi belgilandi. Aliment majburiyatlarini ijro etish va nazorat qilishning yagona axborot tizimi aliment majburiyatlar bo'yicha alohida bank hisob varag'i bilan birlashtiriladi. Bunda Majburiy ijro byurosi tomonidan ijro hujjatlari bo'yicha undiruvchi (aliment oluvchi) nomiga tegishli bank plastik kartasi ochiladi hamda aliment pullari, shu jumladan, qarzdorning ish haqidан ushlab qolingga aliment pullari ushbu aliment majburiyatlar bo'yicha alohida bank hisob varag'i orqali mazkur bank kartasiga o'tkaziladi.

Fuqarolarning hujjatlarsiz ishlaydigan qatlami bilan aliment undirilish tartibi belgilangan. Unga ko'ra, noqonuniy tartibda ishlovchi (bozor, chet eldagи, daromadi ro'yxatga olinmaydigan) fuqarolar daromadlari axborot tarmoqlariga ko'ra monitoring qilinadi. Fuqaroning to'layotgan solig'i, bankka topshirgan naqd pullaridan kelib chiqib uning o'rtacha daromadi hisoblab chiqiladi. Xorijdagi ishchilar daromadi xorijdagi hamkorlar orqali muayyan davrdagi daromadlarni aniqlash ishlari amalgа oshiriladi. Umumiy daromadlardan kelib chiqib, aliment to'lovchining qarzdorligi aniqlanadi.

#### **Mavzuga oid keys topshiriqlari:**

1. Fuqaro A. 2 nafar voyaga yetmagan farzandi bilan turmush o'rtog'i S.dan alohida yashar edi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudga da'vo bilan chiqib, turmush o'rtog'ining aliment majburiyatlarini majburiy belgilatgan hamda qariyb 1 yil 5 oydan beri Sud belgilagan aliment miqdorini muntazam kechiktirmay olib kelayotgan edi. Javobgar S. boshqa yuqori mansabga ko'tarilganligi munosabati bilan 2021-yil dekabr oyida ish joyidan ishdan bo'shashlik to'g'risida ariza berdi. Ish joyidan Mehnat qonunchiligiga ko'ra ishdan bo'shaganlik nafaqasi (4 500 000 so'mni oldi. Ammo mazkur oy uchun Aliment undiriladigan daromadga bu hisoblanmadи. Bundan xabar topgan davogar javobgarga buni aytganda u dekabr oyi uchun aliment doimgi miqdorda berilganligini aytdi. Davogar masalaga oydinlik kiritish maqsadida Advokaturaga tashrif buyurdi.

*Advokat qanday maslahat berishi mumkin.*

*Masalaga huquqiy baho bering.*

2. Qoraboyeva 3 yoshga to'lgan qizi Nargizaning ta'minoti uchun Mashhurovdan aliment undirib berishlarini so'rab tuman fuqarolik ishlari bo'yicha sudiga murojaat qiladi. Chunki Nargizaning otasi qizi uchun hech qanday moddiy yordam bermagan.

Tuman sudi da'vogarning da'vosini qanoatlantiradi va Qoraboyevaning qizi uchun har oyda Mashhurovdan oylik maoshining 1/4 qismi miqdorida aliment undirib berish haqida hal qiluv qarorini chiqaradi.

Mashhurov sudning chiqargan hal qiluv qaroridan norozi bo'lib kassatsiya tartibida shikoyat yozadi va Oila kodeksining 105-moddasiga binoan aliment miqdorini o'zgartirishni talab qiladi. Bunga sabab-ikkinchи nikohidan voyaga yetmagan uch yoshli farzandi borligini ko'rsatadi.

*Kassatsiya tartibidagi Mashhurovning shikoyati bo'yicha sud qanday hal qiluv qarori chiqarishi lozim?*

*Sud ushbu holat bo'yicha Mashhurovdan undirilayotgan aliment miqdorini kamaytirishi mumkinmi?*

3. Sobirov Toshkent shahar Hamza tumani fuqarolik ishlari bo'yicha sudining hal qiluv qaroriga binoan 4 yoshli o'g'li uchun u 18 yoshga yetguniga qadar har oyda oylik ish haqining 1/4 qismi

miqdorida aliment to'laydigan bo'ldi. Sobirovning o'g'li Rustamning og'ir betobligi va u kasalxonada olti oydan ortiq muddat bo'lishi lozimligi, bolaning to'liq ravishda ovqatlanishi, alohida unga parvarish lozim ekanligini Sobirovning xotini asosli qilib ko'rsatib, suddan farzandi uchun eridan qo'shimcha ravishda aliment undirib berishni so'raydi.

*Sobirov farzandi uchun to'layotgan aliment miqdori qaysi hollarda va qancha miqdorda undirib berilishi mumkin?*

*Ota-onalar farzandlarining qo'shimcha sarf-xarajatlarida qanday ishtirok etishlari kerak?*

*Da'vogarning da'vosi qanoatlantiriladimi?*

*O'g'lining qo'shimcha sarf-xarajatlarida Sobirovning ishtiroki qanday va qancha miqdorda bo'lishi kerak?*

4. Alimov A. aliment undirish to'g'risida o'g'li Alimov J.ga nisbatan da'vo qo'zg'atdi. Javobgar otasini uni tarbiya qilishda ishtirok etmagani, 10 yoshligidayoq, ya'ni 2000 yildayoq onasi bilan yolg'iz tashlab ketganini, otalik majburiyatini lozim darajada bajarmaganligi ko'rsatib da'vega qarshilik qiladi.

*Masalaga huquqiy baho bering.*

5. Fuqaro B. O'zMU tayanch doktoranturasida tahsil oladi. 4 500 00 so'm miqdorida stipendiya oladi. Qolaversa Oloy bozorida 2 ta do'konidan har oyda ijara haqi uchun 600 \$ dan haq ham oladi. G. bilan turmushidan ajralgan va 1 nafar farzandi uchun aliment to'lash majburiyati yuklangan. Aliment uning qaysi daromadiga qaratilishi lozim.

*Masalaga huquqiy baho bering.*

6. Fuqaroligi bo'limgan shaxs hisoblangan QosimovXorazm viloyati Xiva shaxri fuqarolik ishlari bo'yicha sudining hal qiluv qaroriga binoan 2 nafar farzandi uchun ularvoyaga yetguniga qadar har oyda oylik ish haqining 1/3 qismi miqdorida aliment to'laydigan bo'lgan edi. Alimentni 4 yil davomida muntazam to'lab bordi. Shu davr mobaynida u yangi nikohga kirdi, yana 2 nafar farzandli bo'ldi. Ishlari ma'lum darajada yurishmay, moddiy jixatdan qiynganligini eshitgan bir tanishi sudga murojaat qilsa aliment kamaytirib berilishi mumkinligini ta'kidladi.

*Masalaga huquqiy baho bering.*

7. Sobirovning o'g'li Rustamning og'ir betobligi va u kasalxonada olti oydan ortiq muddat bo'lishi lozimligi, bolaning to'liq ravishda ovqatlanishi, alohida unga parvarish lozim ekanligini Sobirovning xotini asosli qilib ko'rsatib, suddan farzandi uchun eridan qo'shimcha ravishda aliment undirib berishni so'raydi.

*Sobirov farzandi uchun to'layotgan aliment miqdori qaysi hollarda va qancha miqdorda undirib berilishi mumkin?*

*Ota-onalar farzandlarining qo'shimcha sarf-xarajatlarida qanday ishtirok etishlari kerak?*

*Da'vogarning da'vosi qanoatlantiriladimi?*

*O'g'lining qo'shimcha sarf-xarajatlarida Sobirovning ishtiroki qanday va qancha miqdorda bo'lishi kerak?*

8. 10 yoshli Nozima va 8 yoshli Nigoralarning ota-onasi favqulodda vafot etadilar.

*Nozima va Nigoralarning ta'minoti uchun bobo va buvisidan aliment undirish mumkinmi? Oila kodeksining 123-moddasini sharhlang.*

9. Javlonov Mamat voyaga yetguniga qadar bobo va buvisining tarbiyasida bo'ladi. Vaqt o'tgan sari bobo va buvisining sog'ligi yomonlasha boradi. Shunda ular nabiralaridan ularga moddiy yordam berishini so'raganlarida u butunlay moddiy yordam berishdan bosh tortadi.

*Aytingchi, Javlonov Mamatning moddiy yordam berishdan bosh tortishi o'rinnimi?*

*Qaysi hollarda nevalar bobo va buvilariga ta'minot berish majburiyatini oladilar?*

10. 2-guruh nogironi Parpiyev, sudga ikkita farzandini tarbiyalash uchun Gadoyevaga to'layotgan aliment miqdorini kamaytirish da'vosi bilan sudga murojaat qiladi.

Sud majlisida javobgarning tushuntirishicha: u ham nogiron (kar, soqov) ishlamaydi, ikki yosh bolaga qarash bilan band, ijarada yashayotganligi va zo'rg'a kun kechirishini ko'rsatadi. Parpiyev esa o'zinинг o'z ota-onasinkida yashaydi, har oyda 3000 ming so'm pensiya oldi. To'la ta'minlangan.

*Ish qanday hal qilinishi lozim?*

11. Tojiyev Anvar aliment undirish to'g'risida o'g'li Tojiyev Jasurga nisbatan da'vo qo'zg'atdi. Javobgar otasini uni tarbiya

qilishda ishtirok etmagani, 5 yoshligidayoq, ya'ni 1985 yildayoq onasini tashlab ketganini, otalik majburiyatini bajarmaganligi va aliment to'lashdan yashirinib yurganligini ko'rsatib da'vega qarshilik qiladi.

*Masalaga huquqiy baho bering.*

### Testlar

**1. Bola haqida g'amxo'rlik qilish, unga ta'lim-tarbiya berish ota-onha uchun ham ....., ham konstitutsiyaviy huquq va burchdir. Savol nuqta o'rniqa mos so'zni qo'ying ?**

- A. Qonuniy.
- B. Huquqiy.
- C. Axloqiy.
- D. Tarbiyaviy.

**2. O'zaro nikohda bo'limgan voyaga yetmagan ota-onha uлardan bola tug'ilganda hamda ularning onaligi (yoki) otaligi belgilanganda ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga necha yoshdan haqlidirlar?**

- A. Nikohdan o'tgan zaxoti.
- B. 16 yoshga to'lgandan so'ng.
- C. Emansipatsiya orqali 17 yoshdan.
- D. Mutloq 18 yoshga to'lgandan so'ng.

**3. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish asoslari Oila kodeksining qaysi moddasida sanab o'tilgan ?**

- A. 75-modda.
- B. 82-modda.
- C. 79-modda.
- D. 78-modda.

**4. Aliment bu.....**

A. mehnatga yaroqsiz bo'lib, alohida ro'zg'or yuritayotgan oila a'zolariga yaqin kishilarini tomonidan to'lab turiladigan nafaqa.

B. aqli noroso va ijtimoiy taminotga muhtoj, alihida ro'zg'or yuritayotgan oila a'zolariga yaqin kishilarini tomonidan to'lab turiladigan nafaqa.

C. ruhiyatning kasallik holati yoki aqli zaiflik bilan shartlangan, shaxslarga davlat tomonidan yoki qarindoshlari tomonidan beriladigan nafaqa.

**5. Oila kodeksining qaysi moddasiga muvofiq, aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish uchun muomalaga layoqatli bo'lish talab etilmaydi.**

- A. 89-moddasi.
- B. 100-moddasi.
- C. 130-moddasi.
- D. 92-moddasi.

**6. Alimet to'g'risidagi qarori qachon kim tamonidan qabul qilingan?**

- A. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining Qarori, 29.07.2016 yil 11-soni.
- B. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashning Qarori, 29.07.2016 yil 11-soni.
- C. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Qarori, 29.07.2016 yil 11-soni.

**7. Aliment to'g'risidagi qarorining "8"bandiga binoan Sudlarga tushuntirilsinki, Oila kodeksining 99-moddasiga muvofiq..... Jumlan davom ettiring?**

A. voyaga yetmagan bolalarga aliment undirishda aliment miqdorini ota-onaning har oydagisi shu qismini miqdorida belgilanadi.

B. aliment undirish to'g'risida sud buyrug'i berishda, agar qarzdor shu vaqtda ishlama yoki uning ish haqi va (yoki) daromadini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim qilinmagan bo'lsa, davlat boji qonun hujjatlarida o'rnatilgan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi.

C. bunda aliment miqdorini aniqlashda, sud aliment to'lashi shart bo'lgan ota-onaning oilaviy va moddiy ahvoldidan kelib chiqishi, ya'ni sud tomonidan belgilangan miqdor asoslantrilgan bo'lishi lozim.

**8. Sudning hal qiluv qaroriga ko'ra aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan bo'lsa, aybdor shaxs kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmay qolgan aliment summasining necha foizi miqdorida aliment oluvchiga neustoyka to'laydi.**

- A. 10.1 %
- B. 10.5 %

- C. Neustoyka to'lanmaydi.
- D. 26.2%

#### **Nazorat savol va topshiriqlari.**

1. Alimentning kelib chiqish tarixi haqida nimalarни bilasiz?
2. Oila huquqida alimentga qanday ta'riflar mavjud.
3. Aliment va nafaqa tushunchalarini huquqiy qiyosiy tahlil eting.
4. Aliment miqdorini belgilashda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalarga nimalar kiradi?
5. Bugungi kunda aliment masalasida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda va ularning ahamiyatini yoritib bering.
6. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling:

#### **123-modda. Bobo va buvining o'z nevaralariga ta'minot berish majburiyati**

Ota-onasi yo'q bo'lgan yoki ulardan ta'minot ololmaydigan voyaga yetmagan nevaralariga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag'ga ega bo'lgan bobo va buvi zimmasiga yuklatilishi mumkin. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj nevaralarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo'lmasa yoxud ulardan ta'minot uchun mablag' ololmasa, ularga nisbatan ham bu majburiyat bobo va buvining zimmasiga yuklatilishi mumkin.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar**

1. Otaxo'jayev F., Yo'ldosheva Sh. Oila huquqi. Toshkent davlat yuridik universiteti. Darslik. – Toshkent: Adolat - 2007.
2. M.X. Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. –Toshkent: 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.08.2022 yildagi "Aliment to'lovlarini jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 427-sod qarori. (lex.uz)
4. "Alimentlarni oldindan to'lash, shuningdek, aliment to'kash majburiyatini ta'minlash bo'yicha garov shartnomasini tuzish tartibi to'g'risida" gi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-oktabrdagi 808-sod qarori.(lex.uz)

- 5. advice.uz sayti savol-javoblari.
- 6. civil.uz.
- 7. stat.uz.

## VIII BOB. OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARINI ANIQLASH VA JOYLASHTIRISH

### Ko'rib chiqiladigan masalalar:

1.1 Ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish shakllari. Farzandlikka olish tartibi va shartlari, huquqiy oqibatlari.

1.2 Vasiy va homiylik organlari. Vasiy va homiy tayinlash.

1.3 Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat).

**Tayanch so'zlar:** Farzandlikka olish, farzandlikka olishda ustunlikka ega shaxslar, islohotlar, ism-familiya, tug'ilgan sana va joyni o'zgartirish, vasiy va homiy, vasiylik va homiylik organlari, patronat, qarovsiz bolalar.

#### Ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish shakllari.

#### Farzandlikka olish tartibi va shartlari

Oila qonchniligidagi ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish instituti bolalarning oilada sog'lom muhitda kamol topil huquqini ta'minlash borasidagi davlat siyosati hisoblanadi. Bugungi kun amaliyotida uning uch shakli mavjud: farzandlikka olish; vasiy yoki homiy tayinlash; bolalarni oilaga tarbiyaga berish (patronat).

Oila kodeksining 150-moddasiga ko'ra, ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo'lmaganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga yoki muassasalarga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo'lgunga qadar vasiylik (homiylik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylik organlari zimmasiga

yuklatiladi. Yetimlarni boshini silash, ularga g'amxo'rlik qilish bizning milliy qadriyatlarimizda, shariat qoidalarida ham aks etgan.

Yetimni kafolatiga olishning fazilati, unga beriladigan savoblarning ulug'ligi haqida payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallam shunday deganlar: ya'ni: "Yetimni o'z qaramog'iga olgan kishi jannatda men bilan mana shunday yonma-yon turamiz", - deb ko'rsatkich va o'rta barmoqlari orasini ochib ko'rsatdilar" (Imom Buxoriy rivoyatlari).

Ota-onan vafot etganda, ota-onalik huquqidagi mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo'lganda, uzoq muddat bo'lmaganda, ota-onan bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo'yin tovlaganda, shu jumladan ota-onan tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarini va shunga o'xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish **vasiylik va homiylik organlari** zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvardagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonuning 7-moddasiga ko'ra, Vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;*

*O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi;*

*O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi;  
mahalliy davlat hokimiyati organlari.*

**Vasiylik va homiylik faoliyat:**

a) voyaga yetmaganlarga nisbatan - tuman (shahar) hokimliklarining bolalarni himoya qilish shu'balari tomonidan;

b) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb e'tirof etilgan fuqarolarga nisbatan, shuningdek, sog'lining holatiga ko'ra homiy tayinlashga muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan - tuman, shahar tibbiyot birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi.

**O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari**  
O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashaydigan, ota-onasining

qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek sog'ligining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda vasiylik yoki homiylik belgilash chora-tadbirlarini ko'radi.

Vasiylik va homiylik organlaridan tashqari boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarni aniqlash va joylashtirish bo'yicha faoliyat yuritishiga yo'l qo'yilmaydi.

Vasiylik va homiylik organlari ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek bundan buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi.

Tashkilotlarning (maktabgacha ta'lim tashkilotlarining, umumta'lim muassasalarining, davolash muassasalarining va boshqa muassasalarining), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdar shaxslari va boshqa fuqarolar bolalar ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lganligidan xabardor bo'lgach, yetti kunlik muddat ichida bu haqda bolalar haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga xabar berishlari shart. Vasiylik va homiylik organi bunday ma'lumotlarni olgan kundan e'tiboran uch kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi va bunda bolaning ota-onada yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlansa, uni joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi shart.

Ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vasiylik va homiylik organiga xabar qilmaganlik, shuningdek bunday bolalarni joylashtirishda qonunchilik talablarini buzganlik uchun ushbu moddaning uchinchi qismidako'rsatilgan muassasalarining rahbarlari va organlarning mansabdar shaxslari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlарини та'minlash uchun ularни farzandlikka olishga yo'l qo'yildi.

Bolalarning manfaatlарини himoya qilish farzandlikka olishning asosiy shartidir. "Bola manfaatlari" deyilganda birinchi navbatda, uning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishi uchun to'laqonli sharoit yaratish tushuniladi. Farzandlikka olish mutlaq ixtiyoriydir.

Oila kodeksining 151-moddasiga ko'ra, farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va faqat ularning manfaatlарини ko'zlab yo'l qo'yiladi.

Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko'ra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlарига to'g'ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ishlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalar bo'yicha alohida ish yuritish tartibida, farzandlikka oluvchilar (olvuchchi), vasiylik va homiylik organlari vakillari, shuningdek prokuror ishtirokida sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Aka-ukalar va opa-singillarni turli shaxslar tomonidan farzandlikka olishga yo'l qo'yilmaydi, farzandlikka olish bolalarning manfaatlарига muvofiq kelgan hollar bundan mustasno.

Voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin, quyidagi shaxslar bundan mustasno:

ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;

asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;

ilgari farzandlikka bola olib o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmaganligi, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilganligi, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo'lganligi, muttasil ichkilikbozlikka yoki giyovandlikka mubtalo bo'lganligi sababidan farzandlikka olganligi bekor qilingan sobiq farzandlikka oluvchilar;

hayotga, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va

axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi (bundan tuhmat, haqarat qilish mustasno), fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi (bundan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish mustasno), tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, o'zganing mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar, jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulkni olish yoki o'tkazish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, boshqaruva tartibiga, shuningdek odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qyinoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (bundan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xilof ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish, sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish, tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish mustasno), giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdarlik jinoyatlar sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklarga chalinganlar. Mazkur kasalliklarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq<sup>15</sup> yoshdan kam bo'lmasligi shart, bundan o'gay ota va o'gay ona yoxud farzandlikka olinuvchining yaqin qarindoshlari tomonidan farzandlikka olish hollari mustasno.

Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

Farzandlikka olishda quyidagilar ustunlik huquqiga ega bo'ladi:

- turar joyidan qat'iy nazar farzandlikka olinuvchining qarindoshlari;
- farzandlikka olinuvchi bola oilasida yashayotgan shaxs;
- aka-uka, opa-singillarni ular o'rtaidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar;
- o'gay ota va o'gay ona;
- O'zbekiston Respublikasi fuqarolari;
- Kasallik, baxtsiz hodisa oqibatlarida farzandlaridan ajralgan shaxslar.

Agar bola o'n yoshga to'lgunga qadar ham farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanib kelayotgan bo'lsa va ularni o'z ota-onasi deb e'tirof etsa, farzandlikka olish, garchi bola o'n yoshga to'lgan bo'lsa-da, uning roziligidan amalga oshirilishi mumkin. Farzandlikka olishda er va xotinning roziligi inobatga olinadi. Agar bola vasiylik yoki homiylikda bo'lsa uni farzandlikka olish uchun vasiy va homiysidan rozilik olish lozim. Muomala layoqati cheklanmagan ota-onaning farzandini farzandlikka olishda ularning rozili talab qilinadi.

Farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi tomonidan beriladigan rozilik ikki xilda bo'lishi mumkin:

1. Bolani ma'lum shaxs tomonidan farzandlikka olinishiga rozilik.
2. Farzandlikka oluvchilarni tanlash ixtiyorini vasiylik va homiylik organlariga havola qilib berilgan rozilik.

Qonun ota-onaning o'z bolasini farzandlikka olinishiga roziligi yozma shaklda bayon qilinishini talab qiladi, rozilik oddiy yozma shakldami yoki notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerakmi-aniq ko'rsatilmagan.

Ota-onaning roziligidan quyidagi hollarda farzandlikka olish mumkin:

- ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;
- ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;
- ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;

- ota-onalardan bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolasidan uzrli sabablersiz xabar olmagan bo'lsa.

Oila kodeksining 161<sup>1</sup>-moddasiga ko'ra, chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olish mazkur bola doimiy yashayotgan davlatning qonunchilikda belgilangan tartibda, farzandlikka olinayotgan bola yetim va farzandlikka oluvchilarning (olvuchining) yaqin qarindoshi bo'lgan yoki o'z vatanida turli sabablarga ko'ra farzandlikka olinishi mumkin bo'lмаган hollarda amalga oshiriladi.

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olishda farzandlikka olinayotgan bolaning O'zbekiston Respublikasiga kirishi va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashashi uchun O'zbekiston Respublikasi vakolatlari organining ruxsatnomasi talab qilinadi.

Sudning farzandlikka olish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab 10 kun ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari farzandlikka olinayotganning tug'ilishi qayd etilgan daftarga zarur o'zgartirishlar kiritishi lozim.

Farzandlikka oluvchilar bolaning tug'ilishi yozilgan daftarga, agar bu haqda sudning hal qiluv qarorida ko'rsatilgan bo'lsa, uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Zarur hollarda bolaning familyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug'ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo'lмаган farq bilan o'zgartiriladi. Agar bola o'n yoshdan oshmagani bo'lsa, tug'ilgan joyi ham O'zbekiston Respublikasi doirasida o'zgartirilishi mumkin.

Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o'z bolalariga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-onalardan qarindoshlar) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarni yo'qotadilar hamda o'zaro majburiyatlardan ozod bo'ladilar.

Bola bitta shaxs tomonidan farzandlikka olingan taqdirda, uning manfaatlarini ko'zlab, bolaning shaxsiy nomulkiy hamda

mulkiy huquq va majburiyatlarini, agar farzandlikka oluvchi erkak bo'lsa, otasining iltimosiga ko'ra yoki, agar farzandlikka oluvchi ayol bo'lsa, otasining iltimosiga ko'ra saqlanib qolishi mumkin.

Agar farzandlikka olinayotgan bolaning otasi yoki onasi vafot etgan bo'lsa, vafot etgan otaning yoki onanining ota-onasi (buva yoki buvi) iltimosiga ko'ra bolaning shaxsiy nomulkiy hamda mulkiy huquq va majburiyatlarini, agar bolaning manfaatlari shuni talab etsa, vafot etgan otasining yoki onasining qarindoshlariga nisbatan saqlanib qolishi mumkin.

Farzandlikka olinish vaqtida boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya yoki nafaqa olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmaganlar farzandlikka olingan taqdirda ham ana shu huquqni saqlab qoladilar. (1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning 19-moddasiga muvofiq boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan bolalar farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.)

Farzandlikka olingan bolaning tug'ilishini qayd etish daftariga zarur o'zgartirishlar kiritilgan kun farzandlikka olishning vujudga kelgan vaqtini hisoblanadi.

Farzandlikka olish quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi: farzandlikka olish qalbaki hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan bo'lsa; farzandlikka olish soxta bo'lsa; voyaga yetgan shaxs farzandlikka olingan bo'lsa; farzandlikka oluvchi qonunga nisbatan farzandlikka olish huquqiga ega bo'lмаган bo'lsa.

### **Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari**

Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina ko'zlab yo'l qo'yiladi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning arizasiga binoan faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

Farzandlikka olishning bekor qilinishi bolaga og'ir ruhiy jarohat yetkazishi, uning manfaatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun qonun farzandlikka olishda, shuningdek, farzandlikka olishni bekor qilishda farzandlikka olishning barqarorligini ta'minlash choralarini nazarda tutadi. Farzandlikka

olish bola manfaatlariga javob bermay qolgandagina bekor qilinishi mumkin.

Oila kodeksining 169-moddasida farzandlikka olishni bekor qilish asoslari belgilab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, farzandlikka olish agar farzandlikka oluvchilar:

o'z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo'lalar;

ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo'lalar;

farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo'lalar;

muttasil ichkilikbozlikka yoki giyovandlikka mutbalo bo'lgan bo'lalar bekor qilinishi lozim.

Farzandlikka olinuvchining xulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazayotgan, ularning hayoti yoki sog'lig'iga xavf solayotgan bo'lsa, farzandlikka olinuvchi voyaga yetganidan keyin farzandlikka olish bekor qilinishiga yo'l qo'yiladi.

Sud boshqa asoslarga ko'ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir.

Farzandlikka olinganning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar, shuningdek o'n olti yoshga to'lgan farzandlikka olingen bola farzandlikka olishni sud tartibida bekor qilishni talab etish huquqiga ega.

Farzandlikka olishni bekor qilishga faqat sud tartibida yo'l qo'yiladi. Farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi ishlarni hal qilishda o'n yoshga to'lgan bolaning fikri hisobga olinadi.

Sudning farzandlikka olishni bekor qilish to'g'risidagi hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab sud uch kun ichida ushbu hal qiluv qaroridan ko'chirmani farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganligi ro'yxatga olingen joydagи fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

Farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olinuvchi bola bilan farzandlikka oluvchilarning (farzandlikka oluvchilarning

qarindoshlari) o'zaro huquq va majburiyatlari tugatiladi hamda bola bilan uning ota-onasi (ota-onaning qarindoshlari) o'rtasidagi huquq va majburiyatlar qayta tiklanadi.

Farzandlikka olish bekor qilinganda, bola sudning hal qiluv qarori bilan ota-onasiga olib beriladi.

Bolaning ota-onasi yo'q bo'lsa, shuningdek bolani ota-onasiga berish uning manfaatlariga zid bo'lsa, u vasiylik va homiylik organlari qaramog'iga beriladi.

Sudning hal qiluv qarorida farzandlikka olinuvchining familiyasi, ismi va ota ismini saqlash-saqlanmasligi ko'rsatilishi kerak. O'n yoshga to'lgan bolaning familiyasi, ismi va ota ismi faqat uning roziligi bilan o'zgartirilishi mumkin.

#### **Vasiy va homiylik organlari. Vasiy va homiy tayinlash**

Ota-onha qaramog'idan mahrum mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning ikkinchi shakli sifatida vasiy va homiy tayinlash belgilanan. "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, **vasiylik**-o'n to'rt yoshga to'limgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lif berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli;

**homiylik** -o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz 18 yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lif berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog'lig'inining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatlari fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko'ra homiylik belgilanishi mumkin;

vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar - alohida g'amxo'rlikka, shuningdek o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqididan mahrum etilmagan ota-onasi bo'lgan hamda

bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lif olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar.

Vasiylik va homiylik sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'naliishlari quyidagilardan iborat:

- vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslarning o'z vaqtida aniqlanishi, hisobga olinishi va joylashtirilishini ta'minlash;
- vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- vasiylik va homiylik to'g'risidagi qonunchilik ijrosini ta'minlash;
- bolalarni oilada tarbiyalash shaklining ustuvorligini ta'minlash;
- vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar to'g'risida g'amxo'rlik ko'rsatayotgan oilalarni qo'llab-quvvatlash;
- vasiylik va homiylik sohasida davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash;
- vasiylik va homiylik sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

Vasiy va homiy tayinlash masalalari Oila kodeksining 173-175-moddalarida belgilab qo'yilgan.

Vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalga oshirish uchun vasiylik va homiylik organi vasiy yoki homiy tayinlaydi. Vasiylik va homiylik tuman, shahar hokimining qarori bilan belgilanadi. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 2-yanvardagi "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshiruvchi organlar tavsiyasiga ko'ra tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Vasiylik yoki homiylik vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxsning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joyga ko'ra, agar shaxs muayyan yashash

joyiga ega bo'lmasa, vasiyning yoki homiyning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joyga ko'ra belgilanadi. Vasiy va homiy etib voyaga yetgan har ikki jinsdagি fuqarolar ularning roziliqi bilangina tayinlanishi mumkin. Vasiylik va homiylik tayinlash lozimligi vasiylik va homiylik organlariga ma'lum bo'lgan vaqtidan boshlab bir oydan kechiktirmay vasiy yoki homiy tayinlanishi lozim.

Vasiylik va homiylikni belgilash va tugatish, davlat organlarining vasiylik va homiylik sohasidagi vakolatlarini amalga oshirish, vasiylar va homiylar huquqlarini amalga oshirish hamda majburiyatlarini bajarish, o'zlariga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxslar huquqlarini amalga oshirish hamda mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash yuzasidan kelib chiqadigan huquqiy munosabatlар "Vasiylik va homiylik to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Vasiy yoki homiyni tayinlash vaqtida uning shaxsiy fazilatlari, tegishli majburiyatlarni bajarishga qobiliyati, mazkur shaxs bilan vasiylik va homiylikka muxtoj shaxs o'rtasidagi munosabatlар, shuningdek vasiylik va homiylikka olinuvchining o'z xohishi e'tiborga olinishi lozim.

Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lif berish, shuningdek, bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi.

O'n sakkiz yoshga to'lмаган ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan, vasiylik va homiylikka muxtoj voyaga yetmagan bolalarni aniqlash, hisobga olish, joylashtirish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish singari vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish – maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan fuqarolarga, shuningdek sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga nisbatan – tuman, shahar tibbiyot birlashmalari zimmasiga yuklatiladi.

Sog'lig'ining yomonligi sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va majburiyatlarini bajara

olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli shaxslarga nisbatan homiylik shu shaxslarning iltimosiga binoan belgilanishi mumkin.

Bolaning ota-onalik huquqidan mahrum qilinmagan ota-onasi bo'lib, vasiylik va homiylik organlari uning ota-onasi tarbiyasida qolishi bola manfaatlariga javob bermasligini, shuningdek, bolaning hayoti va sog'lig'i uchun bevosita xavf borligini aniqlasa, unga vasiy yoki homiy tayinlanadi.

Vasiylik va homiylik majburiyatlarini bevosita amalgalashirish uchun vasiylik va homiylik organi vasiy yoki homiy tayinlaydi.

Quyidagi shaxslar vasiy va homiy qilib tayinlanishi mumkin emas:

- ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;
- qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;
- sobiq farzandlikka oluvchilar, agar farzandlikka olnig'i uzrli sabablarsiz bekor qilingan bo'lsa;
- qonun bilan zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganliklari yoki o'z huquqlarini suiste'mol qilganliklari uchun vasiylik yoki homiylik vazifalaridan chetlatilganlar;
- qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilinganlar.

#### **Vasiylik quyidagi hollarda tugaydi:**

- vasiy yoki vasiylikdagi shaxs vafot etganda;
- voyaga yetmaganlarga nisbatan – ular 14 yoshga to'lganda yoki ular ota-onasi tarbiyasiga qaytarilganda;
- qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganlar uchun – ularning muomala layoqati sud tomonidan taqiqlangan taqdirda tugaydi.

Voyaga yetmagan bola 14 yoshga to'lganligi sababli vasiylik tugaganida vasiy vazifasini bajaruvchi shaxs maxsus tayinlanmasdan voyaga yetmagan shaxsning homiysi bo'lib qoladi.

#### **Homiylilik quyidagi hollarda tugaydi:**

- homiy yoki homiylikdagi shaxs vafot etganida;
- homiylikdagi shaxs voyaga yetganda;
- homiylikdagi shaxs ota-onasiga qaytarilganida;

- homiylikdagi shaxs nikohga kirganda;
- voyaga yetmagan shaxs to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilinganda (emansipatsiya);
- fuqaroning muomala layoqatini cheklash haqidagi sudning hal qiluv qarori bekor qilinganda;
- homiylikdagi voyaga yetgan shaxsning sog'lig'i yaxshilanganligi tufayli u mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish imkoniyatiga ega bo'lganda tugaydi.

#### **Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat).**

Ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi. Patronatga oid huquqiy munosabatlar Oila kodeksining 194-200-moddalari bilan, Fuqarolik kodeksi normalari bilan tartibga solinadi. Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilgan holda bolalarni oldindan tanlab oladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olnan holda amalgalashiriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

Quyidagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi:

- yetim bolalar;
- ota-onasi nomalum bo'lgan yoki tashlab ketgan bolalar;
- ota-onasi, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan, sud tartibi muomalaga layoqatsiz deb topilgan, daraksiz yo'qolgan deb e'lon qilingan, ozodlikdan mahrum qilingan bolalar;

sog'lig'iga ko'ra farzandlarining tarbiyasi va ta'minoti bilan shaxsan shug'ullanolmaydigan ota-onalarning bolalari;

ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan, tarbiya va davolani shunga o'xshash muassasalaridagi bolalar.

Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar vasiylik va homiylik organlari tomonidan aniqlanadi va hisobga olinadi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-onasi tuziladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lif berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatları, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatları, shuningdek bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatilishi kerak.

Kelishuv tuzilishidan oldin bolani tarbiyaga olayotgan shaxsning turmush shart-sharoitlari va oila a'zolarining sog'lig'i tekshiriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularga bir yo'la kiyim-bosh va poyabzal beradi, bolani oilaga tarbiyaga olgan shaxsga esa, oilaga tarbiyaga olingan bolaning ta'minoti uchun qonunchilikda belgilangan miqdorda har oyda nafaqa to'lab turadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi 451-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oilaviy bolalar uylari to'g'risidagi nizom" bu masalalar bo'yicha normativ qoidalarni belgilaydi. Unga ko'ra, nomzodlarning tegishli arizasi hamda vakolatli organning nomzodlar tutingan ota-ona bo'la olishi va bolalarni tarbiya qilish imkoniyati, sharoitlari va bolaning manfaatlariga muvofiqligi to'g'risidagi xulosasi tuman (shahar) hokimining qarori qabul qilinishi uchun asos hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni istagan shaxslar o'zları yashaydigan joydagi vasiylik va homiylik organlariga ariza bilan murojaat qilishadi. Arizada nomzodlarning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, bolalari(o'ziniki, farzandlikka olganları) mavjud bo'lgan taqdirda, ularning soni va yoshi ko'rsatiladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

-tibbiyot muassasasining vrachlik-maslahat komissiyasining nomzodlar sog'lig'i to'g'risidagi xulosasi;

-nomzodlarning tutingan ota-onalarni tayyorlash kursidan o'tganligi to'g'risidagi sertifikat nusxasi. Arizani topshirish vaqtida nomzodlarning o'zi va farzandlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarining asli ko'rsatiladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-ona o'rjasida tuziladi.

Tutingan ota-onalar, bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan, bolani oilaga tarbiyaga olishga huquqi bo'lgan fuqarolar orasidan vasiylik va homiylik organlari tomonidan tanlanadi. Tutingan ota-onalikka nomzodlar tanlashda ularning shaxsiy xususiyatlari, fe'l-atvori, sog'lig'i, o'zi bilan birga yashaydigan oila a'zolari va boshqalar bilan munosabati hamda bola tarbiyasi sohasidagi tajribasi e'tiborga olinadi.

O'zbekiston Respublikasining nikohdan o'tgan, 35 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan fuqarolari tutingan ota-onalar bo'lishi mumkin, quyidagi shaxslar bundan mustasno:

a) oilaviy bolalar uyiga qabul qilinayotgan yetim bo'limgan bolalar bilan yaqin (bobo, buvi, tug'ishgan yoki o'gay aka, opa) qarindoshligi bo'lganlar;

b) sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;

v) ota-onalik huquqlaridan mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

g) o'zlariga yuklangan majburiyatlni zarur darajada bajarmaganlik uchun vasiylik (homiylik) majburiyatidan chetlashtirilganlar yoki shu sabab bilan oilaga tarbiya (patronat)ga berish bo'yicha shartnomasi bir tomonlama bekor qilingan shaxslar;

d) agar farzandlikka olish ularning aybi bilan sud tomonidan bekor qilingan bo'lsa, sobiq farzandlikka olganlar;

e) quyidagi kasalliklardan biri mavjud bo'lgan shaxslar:

I, II, V guruh dispanser hisobidagi barcha joylashinuv shaklidagi sil kasalliklari (faol va surunkali);

barcha joylashinuvli yomon sifatli onkologik kasalliklar;

narkologik kasalliklar (alkogolizm, narkomaniya, toksikomaniya);

aqli zaiflikning barcha turlari;

tanosil kasalliklarining maishiy yo'l bilan yuquvchi turlari (zaxm, so'zak);

mehnatga yaroqlilikni inkor etuvchi I va II guruh nogironligiga olib keluvchi barcha kasalliklar va jarohatlar;

j) "Temir daftar", "Ayollar daftari"ga kiritilgan, "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan oillalarning a'zolari;

z) hayotga, sog'liqqa qarshi jinoyatlar, hayot yoki sog'liq uchun xavfli bo'lgan jinoyatlar, jinsiy erkinlikka, oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi, shaxsning ozodligiga, sha'ni va qadr-qimmatiga qarshi (bundan tuhmat, haqorat qilish mustasno), fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi (bundan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish, mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish mustasno), tinchlikka va insoniyatning xavfsizligiga qarshi, O'zbekiston Respublikasiga qarshi jinoyatlar, o'zgalarning mol-mulkini talon-toroj qilish bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlar, jinoiy yo'l bilan topilgan mol-mulkni olish yoki o'tkazish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish yoxud nodavlat tijorat tashkilotning yoki boshqa nodavlat tashkilotning xizmatchisini pora evaziga og'dirib olish, boshqaruv tartibiga, shuningdek, odil sudlovga qarshi jinoyatlar, qyynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash, jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar (bundan uchuvchisiz uchadigan apparatlarni qonunga xi洛 ravishda olib kirish, o'tkazish, olish, saqlash yoki ulardan foydalanish, karantinli va inson uchun xavfli bo'lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, uchuvchisiz uchadigan apparatlarni saqlash va ulardan foydalanish tartibini buzish, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda xavfsizlik qoidalarini buzish, mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish, sanitariyaga oid qonunchilikni yoki epidemiyalarga qarshi kurash qoidalarini buzish, tog'-kon, qurilish yoki portlatish ishlari xavfsizligi qoidalarini buzish, yong'in xavfsizligi qoidalarini buzish mustasno), giyohvandlik vositalarining yoki psixotrop moddalarning qonunga xi洛 muomalasidan iborat jinoyatlar, jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar va harbiy mansabdorlik jinoyatlari sodir etganlik uchun ilgari hukm qilinganlar;

i) turar joyga nisbatan mulk huquqi yoki turar joydan foydalanish huquqiga ega bo'Imagan shaxslar.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish to'g'risidagi kelishuvda uning tuzilgan vaqt va joyi, kelishuvni tuzayotgan vasiylik va homiylik organining nomi, yuridik manzili, tutingan ota-onaning shaxsini tavsiflovchi ma'lumotnomalar (jumladan, turar joyi, pasportining tartib raqami), tarbiyaga berilayotgan bola haqida

batafsil ma'lumotnomalar, tutingan ota-onaning asosiy huquq va majburiyatları, vasiylik va homiylik organining tutingan oilaga nisbatan majburiyatları hamda kelishuvning amal qilish muddati, uni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatilishi lozim.

Kelishuvda tutingan ota-onaning asosiy majburiyatları sifatida quyidagilar ko'rsatilishi mumkin: tutingan bolani o'zar yordam va hurmat asosida tarbiyalash; bolaning ta'lim olishi, jismonan, ruhan, ma'nani va axloqiy sog'lom o'sishi uchun sharoit yaratish; bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilish; bolaning sog'lig'i va sog'lig'i haqidagi tibbiy tavsiyalardan kelib chiqib, uni vaqt-vaqt bilan mutaxassis-shifokarlar ko'riganidan o'tkazib turish, bolaning davolanishini ta'minlash; bolaning umumiyligi ta'lim muassasalarida ta'lim olishini ta'minlash, uning fanlarni o'zlashtirishini kuzatib borish va maktab ma'muriyati bilan aloqada bo'lib turish; tutingan oilada bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan yoki kelgusida uning bu oilada yashashi va tarbiyalanishini istisno qiluvchi holatlar yuzaga kelganda, bu haqda darhol vasiylik va homiylik organlariga xabar qilish va boshqalar.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish to'g'risidagi kelishuvda vasiylik va homiylik organlarining majburiyatları sifatida quyidagilar ko'rsatilishi mumkin: tutingan bolani maktabga, tarbiya muassasalariga joylashtirishga yordam berish; bolaning davlat tibbiy muassasalarida tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi va bepul davolanishini ta'minlash; bola tarbiyasida tutingan ota-onaga turli maslahatlar berib turish va uslubiy yordam ko'rsatish; bolaning huquq va manfaatlarini himoya qilishda tutingan ota-onaga huquqiy yordam ko'rsatish; tarbiyaga olingan bolaning ta'minoti uchun belgilangan tartibda nafaqalar to'lab turish; tutingan bola uchun sog'lomlashtirish muassasalariga bepul qo'llanmalar ajratish; turli xayriya va otaligi yordamlari uyushtirish va boshqalar.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berish to'g'risidagi kelishuv quyidagi sabablarga ko'ra bekor qilinishi mumkin: tutingan ota-onaning (ayrim hollarda, ularning oila a'zolaridan birining) tutingan farzand tarbiyasi bilan to'laqonli shug'ullanishi imkonini bermaydigan yoki bola sog'lig'i yoki hayoti uchun xavf tug'diradigan kasallik bilan kasallanganida; tutingan ota-onaga oilaviy ahvolning keskin o'zgarishi (yangi oila qurilishi, tutingan ota-onadan birining

vafoti va boshqalar)da; tutingan ota-onaning mulkiy mavqeining tutingan bola tarbiyasi va ta'minoti bilan shug'ullanish imkoniyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan darajada o'zgarishida; tutingan ota-onal bilan bola o'rtasida bartaraf qilish imkon bo'lмаган тушунмовчилеклар paydo bo'lganda; tutingan ota-onaning o'z farzandlari (yoki boshqa oila a'zolari) bilan tutingan bola o'rtasida jiddiy nizolar vujudga kelganda; tutingan oilada tarbiyaga berilgan bolaning yashashi, ta'lim va tarbiya olishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa noqulay sharoit vujudga kelganda; bola o'z ota-onasiga qaytarilganda; bola farzandlikka olinganda (shu jumladan tutingan ota-onal tomonidan).

**Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar:** o'zlariga tegishli bo'lgan aliment, shuningdek, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarini olish; uy-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki uy-joylardan foydalanish; qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy olish kabi huquqlarini saqlab qoladilar.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ham egadir.

Bolaling manfaatiga daxldor har qanday masala oilada hal qilinayotganida bola o'z fikrini bildirishga haqli.

Voyaga yetgan har ikki jinsdag shaxslar tutingan ota-onal bo'lishi mumkin, quyidagilar bundan mustasno: sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar; sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shaxslar; qonun bilan o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar; ilgari farzandlikka bola olgan, lekin ushbu Kodeks 169-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shaxslar; qasddan qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar; sog'lig'inining holatiga ko'ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar.

Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar (tutingan ota-onal) qonun tomonidan o'zlariga berilgan huquqlardan faqat bola manfaatlarini ta'minlash maqsadidagini foydalanishlari lozim.

### Tutingan ota-onalar quyidagi majburiyatlarga ega:

tarbiyanuvchi bolaning yoshi, tili, jinsi va e'tiqodidan qat'iy nazar, unga mehribon va e'tiborli bo'lish, his-tuyg'ularini hurmat qilish;

tarbiyanuvchi bolani oilaviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

har bir tarbiyanuvchi bolaga insonparvarlik to'yg'ularini singdirish;

jamiyatda yurish-turishni, odob-axloq qoidalarini, shuningdek, atrofdagilar bilan samimi munosabatlarni o'rnatishi uchun muomala madaniyatini o'rgatib borish;

tarbiyanuvchi bolalarni tarbiyalashda qonunchilikka va xalqaro normalarga qat'iy amal qilish;

tarbiyanuvchi bolalarning fikri, e'tirozi va taklifini eshitish hamda munosabat bildirish;

tarbiyanuvchi bolalarning orzusi, iqtidori, ijodiy qobiliyati va qiziqishlarini ro'yobga chiqarishda ko'maklashish;

tarbiyanuvchi bolalarning ta'lim olishi, shu jumladan, kasbhunar egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, uni mustaqil hayotga tayyorlash;

tarbiyanuvchi bolalarni belgilangan me'yorlar bo'yicha o'z vaqtida ovqatlantirish, kiyim-kechak va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

tarbiyanuvchi bolalarning madaniy hordiq olishi va sport bilan shug'ullanishini tashkil etish;

sud va boshqa idoralarda tarbiyanuvchi bolalarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlash;

tarbiyanuvchi bolalarning mol-mulki saqlanishini ta'minlash;

tarbiyanuvchi bolalar nomiga ochilgan bank hisobvarag'iga aliment, ijtimoiy nafaqa va boshqa mablag'larning tushishini nazorat qilish.

Tutingan ota-onalar zimmasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar yuklanishi mumkin.

Tutingan ota-onalarning tarbiyanuvchi bolalarga tegishli bo'lgan aliment, ijtimoiy nafaqa, pensiyadan tarbiyanuvchi bolalar ta'minotidan boshqa maqsadlarda foydalanishi ta'qilanganadi.

### **Mavzuga oid keys topshiriqlari:**

1.Nasimov jinoyat sodir etgani uchun 3 yilga ozodlikdan mahrum etiladi. Bu muddat o'tashi davomida uning xotini vafot etadi. Nasimov ozodlikka chiqib, birinchi navbatda, 11 yoshli o'g'lini axtaradi va topadi. Uning o'g'lini vasiylik va homiylik organi bolalar uyiga joylashtirganligi ma'lum bo'ladi. U farzandini olib ketmoqchi bo'lganida, vasiylik va homiylik organlari uning yaqindagina jazoni o'tab kelganligini ro'kach qilib, ruhsat berishmaydi. Nasimov o'z advokatining maslahatiga ko'ra Oila kodeksining 73-moddasida keltirilgan "ota-onal o'z bolalarning tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega"ligi va Oila Kodeksining 65-moddasini asos sifatida ko'rsatib, sudga murojaat qiladi.

*Vaziyatga huquqiy baho bering. Sud qanday qaror qabul qilishga haqli?*

2.Ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan 8 yoshli Ulug'bek Mirdadayev vasiylik va homiylik organi tomonidan ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalash muassasasiga vaqtinchalik joylashtirildi. Mirdadayevni oilaga joylashtirish (farzandlikka berish, tutingan oilaga berish, vasiylikka berish) masalasi 4 oy davomida o'z natijasini belmadi. Bundan so'ng tarbiyalash muassasasi raxbari Nosirov chet el vositachilik firmasi yordamida Ulug'bek Mirdadayevni AQSH fuqarolari bo'lgan erxotin-Tomsonlar bilan tanishtirdi. Keyinchalik ularning roziligi bilan Ulug'bek Mirdadayevning farzandlikka olish to'g'risida sudga xulosa berdi.

Bu haqda xabar topgan vasiylik va homiylik organi sudda ushbu xulosani chaqirib oldi va Nosirovni ma'muriy javobgarlikka tortish masalasini qo'ydi. Lekin Nosirov huquqbuzarlik sodir etmaganligini va ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani joylashtirish masalasini hal etganligini va bunda bola manfaatini ko'zlaganligini ta'kidladi.

*Masala qaynday yo'l bilan hal etilishi lozim edi?*

*Vaziyatga huquqiy baho bering*

3.Karimova Rashida 15 yoshida farzandini dunyoga keltiradi. Bevosita farzandini tarbiyasi ishtirokida vasiylik va homiylik organi tomonidan vasiy tayinlanadi. Rashida farzandini bevosita o'zi tarbiyalashi, unga bolasining tarbiyasida hech qanday vasiy kerak

emasligini bildirib, vasiylik va homiylik organiga murojaat qilganida, u yerda Oila kodeksining 72-moddasiga ko'ra, Rashida o'n olti yoshga yetguniga qadar, bolani voyaga yetmagan ota-onal bilan birlgilikda tarbiyalash uchun bolaga vasiy tayinlashi mumkinligini tushuntiradilar.

*Ushbu holat bo'yicha Sizning fikringiz qanday?*

*Oila kodeksining 72-moddasini sharhlang.*

### **Nazorat savol va topshiriqlari.**

1. Ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish bilan shug'ullanuvchi organlar qaysilar?

2. Ota-onal qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning qanday shakkari mavjud.

3. Farzandlikka olish tushunchasini aytib bering.

4. Farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega bo'lish asoslarini ko'rsating.

5. Farzandlikka olishni bekor qilish asoslarini ko'rsating.

6. Qanday shaxslar farzandlikka olish huquqidan mahrumdir?

7. Farzandlikka olishda kimlar ustunlik huquqiga ega bo'ladilar?

8. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling:

**200-modda. Oila tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib borish**

"Vasiylik va homiylik organlari oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib boradilar".

### **Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar**

1. Otaxonjayev F., Yo'ldosheva Sh. Oila huquqi. Toshkent davlat yuridik universiteti. Darslik. Toshkent. Adolat - 2007.

2. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti. 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>)

3. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti. 2017.

4. M.X. Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.

5. advice.uz sayti savol-javoblari.

6. civil.uz.

7. stat.uz.

## IX BOB. FUQAROLIK HOLATI DALOLATNOMALARI

### Ko'rib chiqiladigan masalalar:

1. Fuqarolik holati dalolatnomalari.
2. Tug'ilishni qayd etish.
3. Nikohni qayd etish.
4. O'limni qayd etish.
5. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi organlar.

**Tayanch so'zlar:** Fuqarolik holati hujjatlari, FHDY organlari tizimi va bu tizimdagи islohotlar, ism o'zgartirish, otalikni belgilash.

### Fuqarolik holati dalolatnomalari

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 7-bo'limi Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish deb nomlangan. *Fuqarolik holati dalolatnomalari*-fuqarolar hayotidagi tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish kabi voqeа hamda faktlarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanishidir.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish, jinsni o'zgartirish kabi voqeа va faktlar fuqarolik holatlari dalolatnomalariga tegishli o'zgartirishlar kiritishda ifodalanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish davlat ahamiyatiga molik hujjatlar bo'lib, ikki nusxada tuziladi.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o'zgartirish, jinsni o'zlashtirish kabi voqeа va faktlar tegishliligicha tug'ilish, o'lim, nikoh va nikohdan ajralganlik haqida dalolatnomasi yozuvlariga zaruriy o'zgartirishlarni kiritishda ifodalanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomasi yozuvlari har yilning birinchi yanvaridan boshlab, 31 dekabrigacha tartib bilan (1 dan boshlanib) ketma-ket raqamlanishi zarur.

Dalolatnomasi yozuvlarini qayd etishdan oldin FHDYO xodimi yozuvni tuzish uchun asos bo'ladigan hujjatlarni e'tibor bilan tekshirib, dalolatnomasi yozuvini hujjatlar asosida aniq, chiroyligida dastxat bilan, chizib o'chirishlarsiz to'ldirishi lozim. Har bir

dalolatnama yozuvi uni to'ldirgan xodim va FHDYO organi tomonidan imzolanib, FHDYO organining gerbli muhri bilan tasdiqlanishi lozim.

Fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvlari asosida qat'iy hisobda turadigan, ma'lum seriyasi, tartib raqami bo'lgan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining muhri va mansabdon shaxsning imzosi qo'yilgan, davlat gerbi tasvirlangan guvohnomalar beriladi.

Gerbli guvohnoma berishda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari qonunda belgilangan tartibda va miqdorda davlat bojini hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda va miqdorda gerb yig'imini undiradi.

Davlat gerbi tasvirlangan guvohnomani qalbakilashtirish qonunga binoan ta'qib etiladi.

Respublikamizda gerbli guvohnomalarning 4 shakli (turi) bor. Ular: tug'ilganlik haqidagi; nikoh qayd etilganligi; nikohdan ajralgan haqidagi; o'lim haqidagi guvohnomalardir.

**Gerbli guvohnoma**- fuqarolik holati dalolatnomasi yozuvi qayd etilganligining qonuniy tasdig'idir. Dalolatnama yozuviga asosan, FHDYO organi bergen guvohnoma unda ko'rsatilgan faktning to'g'rilingini tasdiqlovchi shaksiz dalil hisoblanadi.

Fuqarolik holati dalolatnama yozuvlari davlat ahamiyatiga molik hujjatlar bo'lib, ikki nusxada tuziladi va 1-nusxasi uni qayd etgan FHDYO organining o'zida, 2-nusxasi esa yuqori turuvchi FHDYO arxivida 75 yillik muddat davomida saqlanadi.

Ikkala nusxadagi dalolatnama yozuvi tuzilgan vaqtida aynan bir xilda to'ldirilishi, keyinchalik tegishli o'zgartirishlar ham har ikkala nusxadagi dalolatnama yozuviga baravar kiritilishi lozim. Tegishli o'zgartirishlar dalolatnama yozuvining 1-nusxasiga kiritilgan kuniyoq bu haqda dalolatnama yozuvining 2-nusxasiga ham kiritish uchun FHDYoning yuqori turuvchi arxiviga xabarnoma yuboriladi. Birinchi nusxa yo'qolgan alohida hollarda o'zgartirishlar to'g'ridan-to'g'ri ikkinchi nusxaga kiritilishi mumkin.

Fuqarolik holati dalolatnomalari tuman va shaharlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarida qayd etiladi,

shaharcha, qishloq va ovullarda esa, o'lim - fuqarolar yig'ini raislari tomonidan ham qayd etilishi mumkin.

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'limni ro'yxatga olish borasidagi harakatlari o'zлari joylashgan hududlardagi tegishli fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarining nazorati ostida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qayd etiladi.

#### *Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari*

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlarining arxivlarida 75 yil davomida saqlanadi. Ushbu muddat o'tgach, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari O'zbekiston Respublikasining Markazi arxiviga o'tkaziladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limlari arxivlarining faoliyatini tashkil etish, shuningdek ularda fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftalarini saqlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalariga, yo'riqnomasiga va FHDYO organlari faoliyatiga taalluqli boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

FHDYO organlari davlat va jamiyat manfaatlarini ko'zlab, shuningdek, fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilanadi.

#### **Tug'ilishni qayd etish**

Bolalarning tug'ilishini qayd etish majburiy bo'lib, bolalar tug'ilgan joyidan yoxud ota-onasidan biri doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida bir oy ichida amalga oshirilishi lozim.

Bolaning o'lik tug'ilganligi, tibbiy muassasaning xabariga binoan 24 soat davomida shu muassasa joylashgan erdag'i fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan qayd etiladi.

Bola tug'ilganligi to'g'risidagi ariza ota-onasi yoki ulardan biri, ayrim hollarda esa qarindoshlari, qo'shnilaridan, tibbiyot muassasasi ma'muriyati, ichki ishlari yoki vasiylik va homiylik organlari tomonidan berilishi mumkin.

Belgilangan bir oylik muddatning o'tkazilib yuborilganligi FHDYO organi tomonidan tug'ilganlikni qayd etishni rad etish uchun asos bo'la olmaydi.

Bola to'g'risidagi ma'lumotlar: familiyasi, ismi, dalolatnoma yozuvining tartib raqami, sanasi bolaning haqiqiy tug'ilgan yildagi daftariga hamda shu yilgi yuritilgan "Alfavit" daftariga yozib qo'yiladi.

16 yoshga to'lgan, ammo tug'ilganligi qayd etilmagan, tug'ilganlik haqida tibbiy ma'lumotnomasi bo'limgan shaxslarning tug'ilganligini qayd etish yo'qolgan dalolatnoma yozuvlarini tiklash tartibi va qoidalariga asosan amalgga oshiriladi.

Tug'ilganlikni qayd etishda tibbiyot muassasasining bola tug'ilganligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomasi, ota-onaning pasporti yoki uning o'rnnini bosuvchi hujjatlar, nikoh haqida guvohnoma yoxud otalikni belgilash haqida tegishli shakldagi ariza taqdim etilishi kerak.

Nikohda bo'limgan onadan tug'ilgan bolaning tug'ilganligini qayd etishda, onaning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, tug'ilganlikni qayd etishda ona shaxsan hozir bo'la olmasa, uning yozma arizasi (notarial yoki tibbiy muassasa tomonidan tasdiqlangan) bo'lishi zarur.

Agar ota-onsa bolaning tug'ilishini qayd etish bilan bir vaqtida otalikni belgilash haqida birlgilikda ariza bersalar, ota haqidagi ma'lumotlar berilgan ariza asosida yoziladi, bolaga familiya ota-onaning kelishuviga binoan beriladi.

Topib olingen bolaning tug'ilganligi bola joylashtirilgan tibbiy muassasaning, ichki ishlari bo'limi yoki vasiylik va homiylik organining yozma arizasiga binoan qayd etiladi.

Farzandlikka olingen bolaning tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar hokimning farzandlikka olish to'g'risidagi qarori chiqarilgan bo'lsa, o'zgartirish kiritish uchun asos bo'ladi.

Farzandlikka olish to'g'risidagi ma'lumotlar begona shaxslarga ma'lum qilinishi mumkin emas. Farzandlikka olish qonun

asosida sir saqlanadi. Bu sirni ochishda aybdor bo'lgan shaxslar jinoiy javobgarlikka tortilishlari mumkin.

FHDYO xodimi dastlabki ma'lumotlarni chizib, yangi yozuvlar kiritadi va tug'ilganlik haqida yangi guvohnoma beradi.

#### **Nikohni qayd etish**

Nikohni qayd etish, nikohlanuvchi shaxslar doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joydan qat'i nazar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan amalgga oshiriladi.

Alovida hollarda nikohni qayd etish kasalxona yoki uyda amalgga oshiriladi. Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda, nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga bergan arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolatari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashlari shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilaring yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi. Nikohni qayd etish tantanali vaziyatda amalgga oshirilishi mumkin.

Nikohlanuvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga nikoh qayd etilishidan bir oy ilgari nikohga kirish to'g'risida ariza beradilar.

Nikoh tuzilganligi qayd etilganidan keyin nikoh tuzilganligi to'g'risida guvohnoma beriladi. Shu bilan bir vaqtida shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarga nikoh qayd etilganligi to'g'risida belgi qo'yiladi. Er-xotindan birining familiyasi o'zgarganda shaxsni tasdiqlovchi hujjatga uni almashtirish lozimligi to'g'risida belgi qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi huquqida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'limgan shaxslar bilan nikoh tuzganligini qayd etish umumiylashtirish asoslarda amalgga oshiriladi.

Tergov izolyatorlarida, ozodlikdan mahrum etish tariqadagi jazoni ijro etuvchi muassasalarda saqlanayotgan shaxslar bilan tuziladigan nikohni qayd etish ushbu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalgga oshiriladi.

Er-xotinning o'zaro roziligi bo'lganda nikohdan ajralishda ariza beruvchilar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga bergen arizalarida o'rtada voyaga yetmagan bolalari va mulkiy nizolari yo'qligini tasdiqlashlari shart.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarning yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasida o'zaro nikoh tuzgan chet el fuqarolarining nikohdan ajralishini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

#### **O'limni qayd etish**

O'limni qayd etish Oila kodeksi 223-modasiga ko'ra, marhumning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqaroni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qaroriga asosan o'limni qayd etish sudning mazkur qarorida ko'rsatilgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Agar sudning hal qiluv qarorida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi ko'rsatilmagan bo'lsa, o'limni qayd etish ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Hayotining birinchi haftasi davomida o'lgan bolalarning tug'ilganligi va o'limi tibbiy muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qayd etiladi.

O'lim sodir bo'lganligi haqidagi ariza o'lim sodir bo'lgan kuni yoki murda topilgach, 3 kundan kechiktirmay berilishi zarur.

O'limni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd etmasdan marhumni dafn qilish taqiqlanadi.

Shaxsi aniqlanmaganlarning o'limini qayd etish davlat sog'liqni saqlash tizimi tibbiy muassasasining xabariga asosan shu muassasa joylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi. Bu hollarda o'lim haqidagi guvohnoma marhumning shaxsi aniqlangandan keyingina beriladi.

O'limni qayd etish uchun fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga o'lim haqidagi tibbiy ma'lumotnoma yoki fuqaroni

vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori taqdim etilishi zarur.

Oila kodeksining 226-moddasiga muvofiqli, familiyani, ismni va otaning ismini o'zgartirish haqidagi arizalar ariza beruvchi 16 yoshga to'lgandan keyin fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan, ushbu shaxsning doimiy yashash yoki vaqtincha turgan joyi bo'yicha ro'yxatdan o'tgan joydan qat'i nazar, ko'rib chiqiladi.

Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish to'g'risidagi xulosa ichki ishlar organlari tomonidan ushbu shaxs tegishlichcha tekshiruvdan o'tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvalariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish yetarli asoslar mavjud bo'lib, manfaatdor shaxslar o'rtasida nizo bo'limganda ushbu dalolatnoma yozuvalri saqlanayotgan joydagи fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

16 yoshga to'lgan shaxslarning tug'ilish, nikoh tuzish, nikohdan ajralishni qayd etish daftarlariga o'zgartirishlar kiritish ularning arizalariga binoan amalga oshiriladi.

16 yoshga to'limgan shaxslarning tug'ilish haqidagi yozuvalar daftariga o'zgartirishlar kiritish ularning ota-onasi arizasiga binoan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan fuqarolik holati dalolatnomalari yozuvalariga tuzatishlar kiritish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish ariza beruvchining arizasida ko'rsatilgan joydagи fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organining dalolatnoma yozuvalariga o'zgartish, tuzatish va qo'shimchalar kiritishni rad etish to'g'risidagi xulosasi ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Jins o'zgarganda dalolatnoma yozuviga tuzatish kiritish faqat sog'liqni saqlash organlari xulosasiga asosan amalga oshiriladi.

#### **Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi organlar**

Familiya, ism, ota ismini o'zgartirish – bu yuridik akt bo'lib, uning natijasida fuqaroning xohishiga ko'ra unga yangi familiya, ism, ota ismi beriladi.

Bir vaqtning o'zida fuqaroning ham familiyasi, ham ismi, ham ota ismini o'zgartirish mumkin. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish haqidagi arizalar ariza beruvchi 16 yoshga to'lgandan keyin u yashab turgan joydagi FHDYO organi tomonidan, uzrli sabablar bo'lganda, ko'rib chiqiladi. Qonunga muvofiq dalolatnomu yozuviga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish uchun asos bo'lувчи hujjatlar, masalan, quyidagilardir: farzandlikka olish bo'yicha – sud qaroriga asosan; nikohdan ajralgandan keyin er yoki xotinning familiyasini o'zgartirish bo'yicha – nikohdan ajraganlik haqida dalolatnomu; 16 yoshga to'lмаган bolaning familiyasini o'zgartirish bo'yicha – hokim qaroriga asosan; yolg'iz onadan tug'ilgan bolaning tug'ilganlik haqida dalolatnomu yozuviga otasi haqida ma'lumotlar kiritish bo'yicha – ota-onaning otalik belgilash haqida ixtiyoriy arizasi yoki sudning hal qiluv qaroriga asosan; yolg'iz onanining va 16 yoshga to'lgan fuqaroning dalolatnomu yozuvini ota to'g'risidagi ma'lumotlar bilan to'ldirish haqida bergen arizasiga asosan va h.k.

Jins o'zgarganda dalolatnomu yozuviga tuzatish kiritish faqat sog'liqni saqlash organlari xulosasiga asosan amalga oshiriladi. Rosiyada bunday harakat yangi qonun bilan ta'qilangan.

Tug'ilish, nikoh tuzish, nikohdan ajralish haqidagi dalolatnomalar yozuvlari bu yozuvlar kimga nisbatan tuzilgan bo'lsa, faqat ana shu shaxslarning arizasiga ko'ra tiklanadi.

Agar o'n olti yoshgacha bo'lgan bolaning tug'ilishi haqidagi yozuv yo'qolgan bo'lsa, yozuv bolaning ota-onasi, vasiysi, homiysi, bolalar muassasasi ma'muriyatining arizasiga asosan tiklanadi.

#### Mavzuga oid keys topshiriqlari:

1. Mirzo Ulug'bek tumani FHDYO bo'limiga 15 yoshga to'lgan Iqbolova noqonuniy tug'ilgan farzandiga tug'ilganlik haqida guvohnoma berilishini so'rab murojaat qildi. FXDYO bo'limi mudirasi Iqbolovaning hali to'la muomala layoqatiga ega emasligini inobatga olib, ota-onasidan nabiralarini tug'ilganligini davlat ro'yxatidan o'tkazishga roziliklari hamda uni tarbiyalashda ishtirok

etib, moddiy jihatdan ta'minlashlari xususida yozma rozilik berishlari kerakligini uqtiradi.

Iqbolovaning ota-onasi bunga e'tiroz bildirib, qizlarining qilgan hatti-harakatlari ustidan norozi ekanliklarini bildiradilar va hech qanday moddiy va ma'naviy yordam bera olmasliklarini bildiradilar.

*FHDYO bo'limi mudirasining talablari o'rinnimi? Voyaga yetmagan ota-onaning bolaga nisbatan qanday huquq va majburiyatlari mavjud?*

#### Nazorat savol va topshiriqlari

1. Fuqarolik holati dalolatnomalari deganda qanday hujjatlarni tushunsiz?
2. Tarixda mazkur vazifa bilan qaysi organlar shug'ullangan?
3. Tug'ilish, nikoh, o'limni qayd etish tartibi qanday?
4. Ism o'zgartirishga qanday hollarda va asoslarda yo'l qo'yiladi, bu jarayon statistikasini aniqlang.
5. Oila kodeksining quyidagi moddasini kichik guruhlarga bo'lingan holda muhokama qiling:

#### 214-modda. Nikohga kirayotganda familiya tanlash

"Nikohlanuvchi shaxslar nikohga kirish to'g'risidagi arizalarida umumiyligi familiya olish yoki nikoh tuzilganidan keyin ham o'z familiyasida qolish haqidagi istaklarini ko'rsatishlari shart".

#### Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qo'shimcha manbalar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.10.2023-yildagi 550-soni qarori. (<https://lex.uz/pdfs/6638940>)
2. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti. 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>)
3. advice.uz sayti savol-javoblari.
4. civil.uz.
5. stat.uz.
6. muzaffar.uz.

**X bob. CHET EL ELEMENTI ISHTIROKIDAGI OILAVIY HUQUQIY  
MUNOSABTLARNI TARTIBGA SOLISH. O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI HUDUDIDAN TASHQARIDA TUZILGAN  
NIKOHLARNI E'TIROF ETISH TARTIBI**

**Ko'rib chiqiladigan masalalar:**

1. Chet el elementi ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tushunchasi.
2. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni huquqiy tartibga solish.
3. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish masalalari.

**Tayanch so'zlar:** Chet el elementi, oqsoq nikoh, vasiylik va homiylik organlari, xalqaro huquq hujjatlar.

**Chet el elementi ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tushunchasi.**

Umumiy qoidaga ko'ra, har bir shaxs biron-bir davlatning fuqarosidir. Ma'lum bir davlat fuqarosining huquqiy erkinliklari, burchlari o'sha davlat nomidan bayon etiladi, bu davlatning tegishli qonunlarida mustahkamlanib qo'yiladi va zarur siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, va hatto, harbiy vositalar bilan muhofaza qilinadi.

Fuqarolik - shaxsning huquqiy maqomi sifatida qator belgilarga ega. U, birinchidan, shaxsning ma'lum bir davlatga mansubligini bildiradi. Ikkinchidan, bu mansublik davlat bilan o'sha shaxs, fuqaro o'rtaqidagi siyosiy-huquqiy bog'liqlikni, aloqani bildiradi.

O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risidagi qonun fuqaroyiylik munosabatlarni bevosita tartibga solishga qaratilgan maxsus qonun hisoblanadi. Respublikada fuqarolik bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun-hujjatlar mavjud:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-dekabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining pasport tizimi to'g'risidagi Nizom" (Mazkur Nizomga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagagi Farmoni bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan);

2021-yil 4-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning huquqiy holati to'g'risida"gi O'RQ-692-son Qonun;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrdagi qarori bilan tasdiqlangan "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'limgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lishlari va tranzit o'tishlari Tartibi".

Yuqoridagilardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Tashqi ishlar vazirlikligning fuqaroyiylik munosabatlardagi ayrim juz'iy masalalar bo'yicha tushuntirishlari, qo'llannamalari ham mavjud.

**Chet el fuqarosi** deyilganda, O'zbekiston fuqarosi bo'limgan, lekin O'zbekistonda yashab turuvchi va boshqa davlat fuqarosi ekanligini isbotlovchi dalillari bor shaxsga aytildi. Bunday dalillar milliy passport va uning o'rnini bosuvchi hujjatlar bo'lib hisoblanadi.

**Fuqaroligi bo'limgan shaxslar** deganda, O'zbekistonda yashovchi O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'limgan va o'zining qaysi davlat fuqaroligiga mansub ekanligini isbotlovchi dalillari bo'limgan shaxslar aytildi.

Chet el elementi ishtirokidagi oilaviy munosabalar deganda huquqiy munosabatning muayyan subyekti O'zbekistonga tegishli emasligi bilan belgilanadi. Bunday munosabatlarga quyidagilar kirishi mumkin:

- O'zbekiston fuqarosi bilan chet el fuqarosining turmush qurishi;

- O'zbekistonda doimiy yashovchi fuqaroligi bo'limgan shaxs bilan chet el fuqarosining O'zbekiston oila qonunchiligi asosida nikoh munosabatlariga kirishishi;

- chet el fuqarosi bo'lgan bolaning O'zbekiston fuqarosi tomonidan farzandlikka olinishi va hk.

Chet el elementi ishtirokidagi nikoh tuzishga nisbatan qo'llaniladigan qonunchilikni aniqlashda, avvalo, quyidagi ikki savolgajavob berish lozim bo'ladi:

- nikoh tuzish shakli va tartibini qaysi mamlakat qonunchiligi tartibga soladi:

- nikohga kirishuvchi shaxslarning nikoh huquqiy layoqatini aniqlashda qaysi huquq qo'llaniladi?

O'zbekistonda yashab turuvchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston qonunlari va Xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda tashqari teng huquq va majburiyatdan foydalanadilar. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar uning hududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi bilan teng huquqlardan foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar.

O'zbekistonda chet el fuqarolari o'tasidagi o'zaro nikoh xuddi O'zbekiston fuqarolari o'tasidagi nikoh singari tuziladi. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'tasida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'tasida tuzilgan nikohlar, agar ushbu Kodeksning 16-moddasida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o'tasida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

Chet el fuqarolarining o'zaro nikoh tuzish shartlari nikoh tuzuvchilar davlatining qonunlari bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'tasidagi, shuningdek chet el fuqarolari o'tasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan eri (xotini) bilan tuzilgan nikohdan, mazkur shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasi sudida ajralishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo'lgan hollarda bunday nikohdan ajralish O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'tasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tegishli chet el davlatining qonunchiligiga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida chet el fuqarolari o'tasidagi nikohdan ajratish tegishli chet el davlatining qonunchiligiga rioya etilgan holda amalga oshirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekistonda tuzilgan nikohning shakli, bo'lajak er-xotin qaysi davlat fuqaroligiga mansub bo'lishidan qat'i nazar, O'zbekiston qonunlari bilan belgilanadi.

Ayrim hollarda O'zbekistondagi chet el elchixona va konsulxonalarida chet el fuqarolari o'tasida tuzilgan nikoh qanday shartlar asosida tuzilganligidan qat'i nazar, o'zaro kelishuv asosida haqiqiy deb tan olinishi mumkin.

Fuqaroligi bo'limgan shaxslar, asosan, o'zları doimo yashab turgan davlat bilan bog'liqdirlar. Ularga nisbatan shunday xulosaga kelish xalqaro huquq qoidalariha ham to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'tasida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'tasida chet davlatning vakolatli organida nikoh tuzishga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'tasidagi, shuningdek, chet el fuqarolari o'tasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi qonun hujjaligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Chet elda shu mamlakat qonunchiligidagi tuzilgan nikoh, agar O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga zid bo'lgan hollarda O'zbekiston tomonidan e'tirof etilmaydi, bunday nikoh ilmiy adabiyotlarda "Oqsoq nikoh" deb yuritiladi.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarosi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashab turgan eri (xotini) bilan tuzilgan nikohdan, mazkur shaxs qaysi davlat fuqarosi ekanligidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi sudida ajralishga haqlidir.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda ham O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi qoidalariga rioya qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarosi bo'lgan bolani farzandlikka olishda bolaning qonuniy vakili va bola fuqarolikka ega bo'lgan davlat vakolatli organining roziligi, shuningdek agar o'sha davlatning qonunchiligiga muvofiq talab qilinsa, farzandlikka olish haqida bolaning ham roziligi olinishi lozim.

Agar farzandlikka olish natijasida farzandlikka olingan bolaning O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi hamda xalqaro shartnomalari bilan belgilangan huquqlari buziladigan bo'lsa, farzandlikka oluvchining qaysi fuqarolikka mansubligidan qat'i nazar, farzandlikka olish mumkin emas, farzandlikka olingan taqdirda esa, u sud tartibida bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan bolani farzandlikka olish farzandlikka oluvchi qaysi chet davlat fuqarosi bo'lsa, o'sha davlatning vakolatli organi tomonidan amalga oshirilganligi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining farzandlikka olish to'g'risidagi ruxsati oldindan olingan bo'lsagina O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

Chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lмаган shaxs bo'lib, boshqa davlat hududida doimiy yashayotgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida chet davlatning vakolatli organi amalga oshirgan farzandlikka olish, basharti ushbu Kodeks talablariga rioya etilgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

Sud yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi va boshqa organlar chet el oila huquqining normalarini qo'llashda

mazkur normalarning mazmunini ularning tegishli chet el davlatida rasmiy sharhanishi va amaliyotda qo'llanilishiga muvofiq tarzda aniqlaydi.

Sud, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va boshqa organlar chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash maqsadida yordam va tushuntirish olish uchun belgilangan tartibga rioya qilgan holda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa vakolatli organlarlariga murojaat qilishlari yoxud ekspertlarni jalg etishlari mumkin.

Manfaatdor shaxslar talab yoki e'tirozlarini tasdiqlash uchun o'zlari asoslanayotgan chet el oila huquqi normalarining mazmunini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim qilishga va chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash maqsadida sudga va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va o'zga organlarga boshqa tarzda yordam berishga haqlidir.

Agar ushbu moddaga muvofiq amalga oshirilgan chorallarga qaramay, chet el oila huquqi normalarining mazmuni aniqlanmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi qo'llaniladi.

#### **Mavzuga oid keys topshiriqlari:**

1. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan Hamidova Chexiya Respublikasi fuqarosi bo'lgan Piter Chexga turmushga chiqdi. Ular nikohni O'zbekiston Respublikasida qayd etishdi. Oradan besh yil o'tgandan so'ng, oilaviy kelishmovchiliklar natijasida nikohdan ajralishga qaror qilishdi. Oilaviy turmushi davomida orttirilgan mol-mulkni bo'lishda kelishuvga erisha olmadidi. Piter Chex bu masalalar Chexiya qonunchiligi bo'yicha hal qilinishi, chunki er oila boshlig'i hisoblanishini ta'kidladi. Xamidova esa, mazkur holatda mol-mulk O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida er-xotin o'rtaida teng taqsimlanishini qayd etdi.

*Bu o'rinda vaziyatga huquqiy baho bering.*

*Chet el elementi bilan murakkablashgan huquqiy munosabatlarni tartibga solishning xususiyatlarini ko'rsating.*

2. Ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi Sohibov Axmadni AQSh fuqarosi Jon Smit farzandlikka oldi. Bunda farzandlikka olish tegishli tartibda rasmiylashtirildi va uni yashash uchun AQShga olib ketdi. Ma'lum

vaqt o'tgach, Jon Smit avariyyaga uchrab vafot etdi. Shundan so'ng, AQShdagi vasiylik va homiylik organi boshqa AQSh fuqarosiga farzandlikka berish masalasini ko'rib chiqdi. Bundan xabar topgan O'zbekiston Respublikasidagi vasiylik va homiylik organi Soxibov Axmadning O'zbekistonga qaytarish masalasini ko'tardi.

*Mazkur masala qanday hal qilinadi?*

*Agar Soxibov Axmadning qarindoshlari aniqlansa, Jon Smit hayot bo'lganda ham uni O'zbekistonga qaytarish mumkinmidi?*

### Testlar

**1. Farzandlikka olishga monelik qiladigan kasalliklar ro'yxati qaysi organ tomonidan belgilandi?**

- A. Vazirlar Mahkamasi
- B. Sog'lqnii saqlash vazirligi
- C. FHDYo organlari
- D. Adliya vazirligi

**2. Chet el fuqarosi bo'lgan ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolani O'zbekiston fuqarosi tomonidan farzandlikka olishga yo'l qo'yiladimi?**

- A. O'zbekiston qonunchiligi doirasida, ha
- B. yo'q
- C. Agar chet el qonunchiligidan ruhsat bo'lsa mumkin
- D. xalqaro hujjatlarga ko'ra fuqaroligi boshqa bo'lgan shaxslar farzandlikka olishi ta'qilangan.

**3. O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'rtasidagi, shuningdek chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish ....muvofig amalgalash oshiriladi.**

- A. O'zbekiston qonunchiligi
- B. qaysi davlat fuqarosi bo'lsa shu davlat qonunchiligi
- C. Xalqaro shartnomalar asosida

**4. Sud, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari va boshqa organlar chet el oila huquqi normalarinining mazmunini aniqlash maqsadida yordam va tushuntirish olish uchun kimga murojaat qila oladilar?**

- A. Adliya vazirligi va boshqa vakolatli organlarlarga

- B. Tashqi ishlar vazirligiga
- C. Chet tili mutaxassislariga
- D. qonun normasi tegishli bo'lgan davlatda faoliyat yuritayotgan O'zbekiston konsulligiga

### Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Chet el elementi ishtirokidagi oilaviy huquqiy munosabatlarga misollar keltiring.
2. Oqsoq nikoh tushunchasini izohlang.
3. O'zbekistonda bugungi kunda qanday chet el ishtirokidagi huquqiy munosabatlar mavjud?
4. Oila kodeksining quyidagi muddasini kichik guruhlarga bo'lingan holda sharxlang:

#### **235-modda. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish**

"O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rivoj qilingan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'rtaida tuzilgan hamda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'rtaida tuzilgan nikohlar, agar ushbu Kodeksning 16-moddasida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o'rtaida boshqa davlat hududida o'sha davlatning qonunchiligiga rivoj qilingan holda tuzilgan nikohlar O'zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e'tirof etiladi".

### Mavzuni mustahkamlash uchun tavsiya etiladigan qoshimcha manbalar

1. Otaxo'jayev F., Yo'ldosheva Sh. Oila huquqi. Toshkent davlat yuridik universiteti. Darslik. Toshkent. Adolat - 2007.
2. Fuqarolik va oila huquqi. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti. 2022 (<https://library-tsul.uz/fuqarolik-va-oila-huquqi-2022>)

3. Mualliflar jamoasi. Oila huquqi. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti. 2017.

4. M.X. Baratov va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. -Toshkent: 2022.

5. advice.uz sayti savol-javoblari.
6. civil.uz.
7. stat.uz.

### ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1.Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari rivojlanishi: kecha, bugun va istiqbolda.

2.Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi: qonunchilik va amaliyat.

3.Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi: milliy va xorijiy tajriba.

4.Oila to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlar: muammo va yechimlar.

5.Oilaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarining qo'llanilishi: o'zaro nisbat.

6.Oila huquqi huquqning bir tarmog'i sifatida fuqarolik huquqidan nimasi bilan farq qiladi hamda qaysi hollarda oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda fuqarolik-huquqiy normalar qo'llaniladi? Muhokama qiling?

7. Oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarda shaxsiy va mulkiy munosabatlarning o'zaro nisbati, ularning ustuvorligi hamda oila huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlarning klassifikatsiyasida u yoki bu munosabatning shaxsiy va mulkiy ajratilish mezonlarini tahlil qiling?

8.Oila to'g'risidagi va fuqarolik qonun hujjatlarining o'xshashlik bo'yicha qo'llanish shartlari.

9.Oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo'llanish shartlari nimalarda ko'zga tashlanadi.

10. Oilaviy munosabatlarda xalqaro shartnomalarning qo'llanilish shartlari.

11. Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va oilaviy majburiyatlarni bajarish: muammo va yechimlar.

12. Oilaviy huquqlarni himoya qilish: qonunchilik va amaliyat.

13. Oilaviy munosabatlarda da'vo muddati: nazariya va sud amaliyoti.

14. Oila kurishning asosi sifatidagi nikohning moxiyati

15. Nikoh tuzish yoshi: milliy va xorijiy tajriba nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qiling.

16. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holat sifatida farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingan shaxslar o'rtasida tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi, ammo o'zaro farzandlikka olinganlar o'rtasida nikoh munosabatlari vujudga kelishi mumkinmi? Fikrlaringizni asoslantiring.
17. Nikoh tuzish tartib-taomillari.
18. Nikoh tuzishga quylgan talablar moxiyati va ahamiyati
19. Nikoh tuzish shartlari bo'yicha shaxsiy xarakterdagi holatlar mazmuni
20. Nikoh tuzish shartlari bo'yicha biologik xarakterdagi holatlar mazmuni
21. Nikoh tuzish yoshi: milliy va xorijiy tajriba.
22. Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish: dolzarbliji, tartibi va oqibatlari.
23. Nikoh tuzish shartlari bo'yicha yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi.
24. Yaqin qarindoshlar o'rtasida tuzilgan nikoh.
25. Muomalaga layoqatsiz shaxslar o'rtasida tuzilgan nikoh.
26. Nikoh haqiqiy emas deb topildishining shaxsiy-huquqiy oqibatlari.
27. Nikohni haqiqiy emas deb topilishining mulkiy huquqiy oqibatlari.
28. Nikoh tuzish shakli va tartibining turli mamlakatlarda belgilanganligini taxlil qiling.
29. Nikoh tuzish layoqatiga ega bo'lish yoshining turli mamlakatlar qonunchiligidagi farqlanishi.
30. Er-xotin huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi: mavjud holat va uni takomillashtirish.
31. Er va xotinning familiya tanlash huquqi: qonunchilik va amaliyot.
32. Er-xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishdagi ishtiropi.
33. Er va xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari: nazariya va amaliyot.
34. Er va xotinning umumiy mulki: vujudga kelish asoslari va uni amalga oshirish.

35. Er va xotinning har birining mulki: vujudga kelish asoslari va uni amalga oshirish.
36. Er va xotinning umumiy mulki, har birining mulki: vujudga kelish asoslari va uni amalga oshirishni tahlil qiling.
37. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda ulushlarni aniqlash: nazariya va sud amaliyoti.
38. Nikoh shartnomasi: milliy va xorijiy tajriba.
39. Nikoh shartnomasi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi bitim hisoblanadi. Shu sababli unda oila huquqida markaziy o'rinni egallovchi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni nazarda tutish va nikoh shartnomasiga nisbatan Fuqarolik kodeksi normalarini qo'llash masalasini tahlil qiling?
40. Nikoh shartnomasining fuqarolik huquqidagi boshqa shartnomalar bilan nisbati tahlil qiling va nikoh shartnomasiga kiritilishi lozim bo'lgan va kiritilishi mumkin bo'lмаган шартларнинг о'заро farqini tahlil qiling?
41. Nikoh shartnomasini tuzish va uning mazmuni.
42. Nikoh shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish: qonunchilik va amaliyot.
43. Nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish: nazariya va sud amaliyoti.
44. Haq undirishni er-xotinning mol-mulkiga qaratish: qonunchilik va sud amaliyoti.
45. Nikoh shartnomasini tuzish, uni o'zgartirish va bekor qilishda kreditorlar huquqlarining kafolatlari.
46. Nikohning tugatilish asoslari: qonunchilik va amaliyot.
47. Nikohdan ajratish tartibi: nazariya va sud amaliyoti.
48. Nikohdan ajratish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarish vaqtida sud tomonidan hal etiladigan masalalar.
49. Sudning nikohdan ajratish haqida hal qiluv qarorini chiqarishida davlat boji miqdori.
50. Sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilingan yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan hollarda nikohning tiklanishi.
51. Nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi va asoslari.

52. Nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish: qonunchilik va amaliyat.
53. Majburlab tuzilgan nikoh va uning huquqiy oqibatlari.
54. Soxta nikoh va uning huquqiy oqibatlari.
55. Nikohni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlari.
56. Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibatlarining nikohdan ajralish oqibatlarining o'zaro nisbati.
57. Qarindoshlik – oilaviy-huquqiy kategoriya sifatida.
58. Qon-qarindoshlik darajalarining turli mamlakatlarda belgilanganligini tahlil qiling.
59. Qayin-bo'yinchilik va quda-andachilik: qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari.
60. Bolaning nasl-nasabini belgilash asoslari: nazariya va sud amaliyoti.
61. Otalikning sud tartibida belgilanishi: qonunchilik va amaliyot.
62. O'zaro nikohda bo'lмаган shaxslardan tug'ilgan bolalarning huquq va majburiyatları.
63. Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi: qonunchilik va amaliyat.
64. Bolani ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqi: qonunchilik va amaliyat.
65. Bolaning himoyaga bo'lgan huquqi: qonunchilik va amaliyot.
66. Bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqi: qonunchilik va amaliyot.
67. Bolaning ism, ota ismi va familiya olish huquqi: qonunchilik va amaliyot.
68. Bolaning ismi va familiyasini o'zgartirish: qonunchilik va amaliyot.
69. Voyaga yetmagan ota-onaning huquqlari: qonunchilik va amaliyot.
70. Ota-onalik huquqini amalga oshirish: qonunchilik va amaliyot.
71. Boladan alohida yashayotgan ota (ona)ni ota-onalik huquqini amalga oshirish tartibi.

72. Bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarni bola bilan ko'rishib turish huquqi: qonunchilik va amaliyot.
73. Ota-onalik huquqini himoya qilish: qonunchilik va amaliyot.
74. Ota-onalik huquqidan mahrum qilish: qonunchilik va sud amaliyoti.
75. Ota-onalik huquqini tiklash: qonunchilik va amaliyot.
76. Ota-onalik huquqining cheklanishi: qonunchilik va amaliyot.
77. Bolaning hayoti va sog'lig'i xavf ostida qolganda bolani olish: qonunchilik va amaliyot.
78. Sudda bolalar tarbiyasi bilan bog'liq nizolarni ko'rishda vasiylik va homiylik organining ishtiroki.
79. Bolalarni tarbiyalash bilan bog'liq ishlar bo'yicha sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish: qonunchilik va amaliyot.
80. Oilada ota-onsa hamda bolalarning mulkiy-huquqiy munosabatlari: qonunchilik va amaliyot.
81. Ota-onsa va bolalarning mulkiy huquq va majburiyatları. Ota-onsa va bolalarning alohida mol-mulki. Ota-onsa va bolalarning umumiy mol-mulki.
82. Bolalarning oiladagi xususiy mulki. Ota-onsa va bolalarning mulkiy nizolarini hal qilish tartibi qanday?
83. Ota-onsa va bolalarni alohida-alohida mulki: milliy va xorijiy tajriba.
84. Ota-onsa va bolalarning umumiy mulki: milliy va xorijiy tajriba.
85. Bolalarning oiladagi xususiy mulki: milliy va xorijiy tajriba.
86. Ota-onsa va bolalar o'rtasidagi mulkiy nizolar: qonunchilik va sud amaliyoti.
87. Voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash va himoya qilishga bir qator davlat organlari mas'ul hisoblanadi. Ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni huquq va manfaatlarini himoya qilish qaysi organ (tashkilot)lar tomonidan amalga oshiriladi?
88. Ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqida ma'lumotlarni olish uchun manfaatdor shaxslar turli tashkilotlarga murojaat qilishlari mumkin. Bu borada ota-onsa qaramog'idan mahrum

bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish hamda davlat reestrini yuritish tartibini tushuntirib bering

89. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatları: qonunchilik va amaliyot.

90. Bolalarga ta'minot berishda ota-onsa majburiyatlarining tengligi: qonunchilik va amaliyot.

## YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI

1. Ota-onaning voyaga yetmagan bolalariga aliment to'lashi: tartibi va miqdori.
2. Bolalarning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar: qonunchilik va amaliyot.
3. Aliment undirishda hisobga olinadigan daromadlar: qonunchilik va amaliyot.
4. Aliment miqdorini kamaytirish yoki aliment to'lashdan ozod qilish: qonunchilik va amaliyot.
5. Ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ta'minot berish: qonunchilik va amaliyot.
6. Bolalar muassasalariga joylashtirilgan bolalar uchun aliment undirish: qonunchilik va amaliyot.
7. Voyaga yetgan mexnatga layoqatsiz bolalarning ta'minot talab qilish huquqi: qonunchilik va amaliyot.
8. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalarning ota-onasiga ta'minot berish majburiyati: qonunchilik va amaliyot.
9. Ota-onaga beriladigan ta'minot miqdori va tartibi: qonunchilik va amaliyot.
10. Ota-onaning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlar: qonunchilik va amaliyot.
11. Nizo sudda hal etilgunga qadar aliment undirish: qonunchilik va amaliyot.
12. Bolalarni ota-onasiga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish: qonunchilik va amaliyot.
13. Aliment undirish to'g'risidagi sud qarorini ijro etish: qonunchilik va amaliyot.
14. Sudning bir necha hal qiluv qarorlari bo'yicha undiriladigan aliment miqdorini belgilash tartibi.
15. Aliment to'lashdan bosh tortganlik uchun javobgarlik masalalarini yoriting? Qanday javobgarlik mavjud?
16. Er-xotinning bir-biriga ta'minot berish majburiyati kerakmi?
17. Nikohdan ajralganidan keyin sobiq er (xotin)ning ta'minot olish huquqlari kerakmi? Bu hol amaliyotda qanday?

18. Er (xotin)ning aliment olish huquqi qachondan tugaydi? Qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan qanday amaliy takliflarigiz bor?

19. Bobo va buvining o'z nevaralariga ta'minot berish majburiyat: qonunchilik va amaliyot.

20. Nevaralarning bobo va buvilariga taminot berish majburiyati: qonunchilik va amaliyot.

21. Doimiy tarbiyada bo'lganlarning o'z tarbiyachilariga ta'minot berish majburiyati: qonunchilik va amaliyot.

22. O'gay ota va o'gay onaning o'gay o'g'il va o'gay qizlariga ta'minot beriladimi? Qonunchilikda bu hol qanday hal etilgan?

23. Aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish: qonunchilik va amaliyot.

24. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga binoan aliment to'lash usullari va tartibi: qonunchilik va amaliyot.

25. Alimentni ixtiyoriy to'lash va sud tartibida undirish: qonunchilik va amaliyot.

26. Ish beruvchining aliment ushlab qolish majburiyati: qonunchilik va amaliyot.

27. Aliment qarzini undirish va uning miqdorini belgilash qanday tartibda amalga oshiriladi? Sizning fikringiz?

28. Aliment qarzini to'lashdan ozod qilish va o'z vaqtida to'lamaganlik uchun javobgarlik haqida nimalar deya olasiz?

29. Alimentni hisobga o'tkazishga va qaytarib olishga yo'l qo'yimasligi: qonunchilik va amaliyot.

30. Alimentni indeksatsiya qilish: qonunchilik va amaliyot.

31. Aliment to'lashi shart bo'lgan fuqaro A. chet davlatga ketganligi munosabati bilan o'zining aliment to'lash majburiyatini o'z ukasi V.ga o'tkazishi mumkinmi? Izohingizni majburiyatda

32. Aliment miqdorini o'zgartirish yoki aliment to'lashdan ozod qilish qanday mumkinmi?

33. Aliment majburiyatining tugatilishi muddatidan oldin amalga oshirilishi mumkinmi?

34. Ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish: qonunchilik va amaliyot.

35. Ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olishni qaysi organlar amalga oshiradilar?

36. Ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishda muammolar kelib chiqsa kimga murojaat qilinadi?

37. Farzandlikka olishi mumkin bo'lgan shaxslarga kimlar kiradi?

38. Farzandlikka olish tartibi borasidagi islohotlar?

39. Farzandlikka olishni sir saqlash: qonunchilik va amaliyot.

40. Farzandlikka olish er-xotin yoki ulardan birining xohishiga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Voyaga yetmagan shaxslarni oilasi mavjud bo'lмаган fuqarolar ham farzandlikka olishi mumkinmi, uning tartibi qanday?

41. Farzandlikka olishda farzandlikka olinuvchining yoshi muhim o'rinn tutadi. Farzandlikka olish haqida sudga murojaat qilinganda bolaning yoshi necha yoshgacha bo'lishi mumkin?

42. Oila huquqida qanday fiksiyalarni bilasiz?

43. Farzandlikka olishda ustunlik huquqiga ega bo'lgan shaxslar,

44. Farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olinishiga roziligi so'raladimi yoki ixtiyoriyimi?

45. Bolaning rozilgisiz farzandlikka olishga qanday hollarda yo'l quyiladi.

46. Vasiylik yoki homiylikdagi bolani farzandlikka olish mumkinmi?

47. Ota-onan qaramog'idan farzandlikka olinishiga roziligi so'raladimi?

48. Ota-onan qaramog'idan farzandlikka olish mumkinmi? Bu hol qonunchilikda qanday normalangan?

49. Bolani takroran farzandlikka olish tartibini tushuntirib bering?

50. Farzandlikka olishni rad etilganligi ustidan shikoyatni qaysi organga qilinadi?

51. Farzandlikka olishda tug'ilishni qayd etish daftariga o'zgartirish kiritish shartmi? U qanday amalga oshiriladi?

52. Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari: qonunchilik va sud amaliyoti.

53. Farzandlikka olishda boquvchisini yo'qotganlik uchun nafaqa beriladimi?

54. Farzandlikka olishning vujudga kelish vaqtin qonunchilikda qanday belgilangan?

55. Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish asoslari: qonunchilik va amaliyat.

56. Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari: qonunchilik va amaliyat.

57. Farzandlikka olishni bekor qilishni talab etish huquqiga ega bo'lgan shaxslar kimlar?

58. Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va bekor qilish tartibi qanday?

59. Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilish oqibatlari qanday?

60. Vasiylik va homiylik: maqsad, vazifa va oqibatlar.

61. Ota-onasi bo'lgan voyaga yetmagan bolalarga vasiy yoki homiy tayinlash mumkinmi? U qanday amalgalash oshiriladi?

62. Ota-onsa vaqtinchalik bo'limganda bolalarga vasiylik va homiylik belgilanadimi? Belgilansa, u qanday amalgalash oshiriladi?

63. Vasiy va homiy qilib tayinlanishi mumkin bo'limgan shaxslar: qonunchilik va amaliyat.

64. Vasiy va homiyalar faoliyatini nazorat qilish: qonunchilik va amaliyat.

65. Vasiyning vasiylik va homiylik organlarining roziligi bilan qilish mumkin bo'lgan va mumkin bo'limgan harakatlar: qonunchilik va amaliyat.

66. Vasiylik yoki homiylikdagi shaxsga nafaqa tayinlanadimi?

67. Vasiy va homiyni o'z majburiyatini bajarishdan chetlatish: qonunchilik va amaliyat.

68. Vasiylik va homiylikning tugashi: qonunchilik va amaliyat.

69. Vasiy va homiy yetkazgan mulkiy zararni to'lash: qonunchilik va amaliyat.

70. Vasiylik va homiylik organlarining qarori ustidan shikoyat qilish: qonunchilik va amaliyat.

71. Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat): milliy va xorijiy tajriba.

72. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv ixtiyorimi? Qonunchilikda bu hol qanday tartibga solingan?

73. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvning bekor qilinishi: qonunchilik va amaliyat.

74. Oilaga tarbiyaga olingan bolalarning huquqlari: qonunchilik va amaliyat.

75. Tutingan ota-onsa: milliy va xorijiy tajriba.

76. Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarning javobgarligi: qonunchilik va amaliyat.

77. Oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlari va ularning tarbiyalanishini kuzatib borish kim yoki qaysi organga yuldatilgan?

78. Fuqarolik holati dalolatnomalari: o'tmishda, bugungi kunda va istiqbolda.

79. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi organlar, ularning vakolatlari.

80. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftarlari saqlash: qonunchilik va amaliyat.

81. Tug'ilishni qayd etish tartibi va muddatlari: qonunchilik va amaliyat.

82. Tug'ilishni qayd etish bilan bir vaqtida otalikni belgilash: qonunchilik va amaliyat.

83. Tug'ilish qayd etilganidan keyin otalik belgilanishi munosabati bilan o'zgartishlar kiritish: qonunchilik va amaliyat.

84. O'lik tug'ilgan bolaning tug'ilganligini, kayd etish tartibi.

85. Bolaning otasi bilan nikohda bo'limgan ona vafot etgan taqdirda, shuningdek onanining yashash joyi noma'lum bo'lganda va otalikni belgilash.

86. Farzandlikka olingan bolaning tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga o'zgartishlar kiritish: qonunchilik va amaliyat.

87. Farzandlikka olish bekor qilinganida yoki u haqiqiy emas deb topilganida sudning hal qiluv qarorlarini ijro etish: qonunchilik va amaliyat.

88. Nikoh tuzilganligini qayd etish: qonunchilik va amaliyat.

89. Nikohga kirayotganda familiya tanlash: qonunchilik va amaliyat.

90. Fuqaroligi bo'limgan shaxslar bilan nikoh tuzilganligini qayd etish: qonunchilik va amaliyat.

91. Nikoh tuzilganligini qayd etishning alohida hollari: milliy va xorijiy tajriba.

92. Er-xotining o'zaro roziligi bo'lganda nikohdan ajralishni qayd etish: qonunchilik va amaliyat.

93. Er-xotindan birining arizasi bo'yicha nikohdan ajralishni qayd etish: qonunchilik va amaliyat.

94. Nikohdan ajralganlik to'g'risida guvohnoma? Hujjatlarga qo'yiladigan belgilar: qonunchilik va amaliyat.

95. O'zbekiston Respublikasida o'zaro nikoh tuzgan chet el fuqarolarining nikohdan ajralishini qayd etish: qonunchilik va amaliyat.

96. O'limni qayd etish tartibi: qonunchilik va amaliyat.

97. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish haqidagi arizalarni ko'rib chiqish: qonunchilik va amaliyat.

98. Familiya, ism va ota ismini o'zgartirish oqibatlari.

99. Jins o'rganganda dalolatnoma yozuviga tuzatishlar kiritish: qonunchilik va amaliyat.

100. Chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'limgan shaxslarning oilaviy munosabatlardagi huquq va majburiyatları: qonunchilik va amaliyat.

101. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni etirof etish: qonunchilik va amaliyat.

102. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni ajratish: qonunchilik va amaliyat.

103. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yuz bergen farzandlikka olish instituti: qonunchilik va amaliyat.

104. Chet el oila huquqi normalarini mazmunini aniqlash: qonunchilik va amaliyat.

105. Oilaviy tadbirkorlik to'g'risidagi qonunchilik: dolzarbliги va uni amalgaga oshirish.

106. Oila huquqida va xalqaro huquqda bola huquqlarining kafolatlari: o'zaro nisbat.

107. O'zbekiston Respublikasida chet elda amalgaga oshirilgan nikohdan ajratishning tan olinishi bilan bog'lik masalalarni tahlil qiling.

108. Chet el fuqarosi va fuqaroligi bulmagan shaxslar ishtirokidagi nikohdan ajralish to'g'risidagi O'zbekiston qonunchiligin tahlil qiling.

109. Oila huquqi huquqning boshqa sohalari bilan aloqador ekanligini asoslang

110. Avestoda, milliy va diniy qadriyatlarimizda, va ajdodlarimizdan qolgan o'gitlarda oila qadriyati haqidagi fikrlarning bugungi kundagi ahamiyatini muhokama qiling.

111. Farzand tarbiyasida ota-onaning o'rni qonunchiligidan, qadriyatlarimizda va boshqa xalqlar qadriyatlarida nechog'lik muhimligini o'rganing, taqqoslang va xulosalang.

112. O'zbekiston qonunchiligidagi ayol huquqlari qanchalik himoyalanganligini 2016-yilgacha va 2016-yildan keyingi davrlar bo'yicha taqqoslang.

113. Jamiat orasida mavjud oilaviy munosabatlardagi muammolarni o'rganing va ularni tartibga solish uchun zaruriy choralar uchun fikringizni bildiring.

114. Nikoh tushunchasi va uning milliy va diniy qadriyatlarimizdagagi ahamiyati va bu ahamiyatning bugungi kundagi o'rni.

115. Oilaning davlat va jamiyat tomonidan himoyalanganligiga huquqiy asoslar keltiring. Qonunchilikda va amaliyotda ushbu jarayonlarni kechishini muhokama qiling va yaxshiroq fikrlar taklif qilishga harakat qiling.

116. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning tengligini huquqiy va ijtimoiy jihatdan muhokama qiling.

117. Oila maktablarining ahamiyati va ularning faoliyatida xatolarni o'rganing va muqobil variantlaringizni taklif qiling. Bunda xorij mamlakatlari tajribalari, qadriyatlarimizni inobatga oling.

118. Otalikning davlat tomonidan qanday asoslarga ko'ra himoya qilinishini yoriting.

119. Erta yoshda turmush qurish va kech turmush qurishning avfal va minus tomonlari: O'zbekiston va xorij tajribasi

120. Ajrimlarni qisqartirish borasida amalda oshirilayotgan choralar va buning samarasini oshirish uchun qilinishi kerak bo'lgan ishlar. Bu borada xorij tajribasi qanday.

121. Bolaning bugungi zamonga munosib axloq va ilmga ega bo'lish uchun ko'rilibotgan va ko'riliishi kerak bo'lgan ishlar. Xorij va milliy tajribani taqqoslang. Yoshlarda vatanparvarlik va kreativlikni shakllantirish va oshirish uchun nima qilish kerak deb hisoblaysiz.

122. Ayolning topgani ayolniki arning topgani ikkisiniki degan fikrni axloqiy va huquqiy jihatdan izohlang.

123. Homilador va yosh bolali ayollarga oila huquqi va boshqa huquq sohalarida berilayotgan imtiyozlar haqida fikr yuriting.

124. Nikoh marosimi (to'y) o'tqazishda ma'lum bir cheklarning bo'lishligining afzal va minus tomonlari. Xorij tajribasida bu boradagi ishlar.

125. Meros huquqida ayol(xotin)ning, qiz farzandlarning huquqlari va imtiyozlari.

126. Oila qurishda nikohlanuvchi tomonlarning ixtiyor va roziligi, bunga to'siq bo'luvchi holatlarni, sabablar va oqibatlarni, o'rganing.

127. Nikohlanuvchi tomonlarning majburiy tibbiy ko'rnikdan o'tishning afzal jihatlari, bu boradagi muammolar va bu amaliyot doirasida huquqiy ongni rivojlantirish uchun zaruriy choralar haqida fikr yuriting. (nikohlanuvchi tomonlarning qasddan bu amaliyotni chetlab o'tmasligini taqozo qiluvchi chora haqida fikr yuriting)

## MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI

1. O'zbekistonda oila huquqi sohasida amalga oshirilgan islohotlar: mazmuni va zarurati.
2. Oilani mustahkamlashda oilaviy qadriyatlarning o'rni va ahamiyati.
3. Turkistonda islam dini yoyilgunga qadar nikoh va oila huquqiy masalalar.
4. Mustaqil O'zbekistonning oila to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlari.
5. Oila huquqi tizimidagi odat huquqi normalari.
6. O'zbekiston va jahon mamlakatlarida ajrimlar statistikasi tahlili, ta'sir etuvchi omillar.
7. Ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish: tarix va bugungi amaliyot.
8. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish (nazariya va amaliyot).
9. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e'tirof etish.
10. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish.
11. Alimentni majburiy tartibda undirish tartibi va asoslari.
12. Aliment sohasidagi islohotlar: mazmuni va zarurati.
13. Soxta nikoh va unga qarshi chora-tadbirlar.
14. Vasiylik va homiylik: nazariya va amaliyot.
15. Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi.
16. Qon-qarindoshlik va bolaning nasl-nasabini belgilash.
17. O'zbekistonda Vasiylik va homiylik organlari tizimi va ularning vakolatlari.
18. A.Fitrat. "Oila yoki oilani boshqarish tartiblari" asari tahlili.
19. Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar tahlili: milliy va xorijiy tajriba.
20. Fiqh va hadis ilmida oila a'zolarining o'zaro huquq va burchlari.

21. Xalqaro huquqiy hujjatlar va oila huquqi tizimi nisbati: nazariya va amaliyat.

#### GLOSSARY

**Aliment** – O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, ota-onaya yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish majburiyatini ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona)dan sudning hal qiluv qaroriga yoki sud buyrug'iga asosan aliment undiriladi. Voyaga yetmagan bolalarga aliment to'lash haqida ota-onaya o'rtasida kelishuv bo'limganda yoki aliment ixtiyoriy ravishda to'lanmaganda va ota-onadan birortasi ham aliment undirish to'g'risida sudga da'vo yoxud ariza bilan murojaat qilmagan hollarda, vasiylik va homiylik organlari voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun ota yoki onadan qonunda belgilangan miqdorda aliment undirish to'g'risida da'vo qo'zg'atishga haqlidir Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish haqida ota-onaya o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onaning har oydagisi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun – to'rtdan bir qismi, ikki bola uchun – uchdan bir qismi, uch va undan ortiq bola uchun – yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlearning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak. Ota-onaya voyaga yetmagan bolalaridan tashqari voyaga yetgan farsandalariga ham aliment to'lashlari shart. Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga ta'minot berish ota-onaning kelishuviga binoan amalga oshiriladi. Ota-onaya o'rtasida bunday kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal qilinadi.

**Alimentni indeksatsiya qilish** – sudning hal qiluv qaroriga asosan pul bilan to'lanadigan qat'iy summada undirilayotgan alimentlarni indeksatsiya qilish alimentlar ushlab qolinayotgan joyda qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam oylik ish haqiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Indeksatsiya qilish maqsadida alimentning miqdori sud tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining

muayyan qismiga mos ravishda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi.

**Bolalar huquqi**-Inson huquqlarining bolalarga taalluqliligi. Bir qator davlatlarda bolalarning huquqi ba'zi jihatlari bilan tenglashmaganligini e'tiborga olgan holda, bolalarni o'spirinlardan farqlash, oilaviy huquqlarini kafolatlash maqsadida vujudga kelgan. Shunga asosan, 1959-yilgi Umumjahon bolalar huquqi deklaratsiyasi, 1974-yilgi Favqulodda va urush holatlarida ayollar va bolalarni himoya qilish bo'yicha deklaratsiya, 1989-yili Bolalar huquqi bo'yicha konvensiya shu sohadagi muhim hujjatlardir. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga binoan, bolalar oilada yashash, tarbiyalanish, ota-onasi va boshqa qarindoshlar bilan ko'rishib turish, shuningdek himoyaga bo'lgan huquqi, o'z fikrini ifoda etish huquqi, ism, ota ism va familiya olish huquqi, ism va familyiyasini o'zgartirish kabi huquqlari mustahkamlanib qo'yilgan.

**Bolani almashtirib qo'yish** – O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 124-moddasiga ko'ra, tamagirlilik yoki boshqa niyatlarda qasddan bolani almashtirib qo'yish jioyat deb topiladi. Bolani almashtirib qo'yish yangi tug'ilgan yoki emizikli chaqaloqni boshqasi (masalan, kasal bolani sog'lom bola bilan qizni o'g'il bilan, bir millat bolasini boshqasi bilan va hokazolar) bilan almashtirishda ifodalangan harakatlardan iboratdir. Bu jinoyat faqat qasddan sodir etladi. Jinoyatning sababi tamagirlilik, boshqa past niyatlar (o'ch, hasad va boshqalar) bo'lishi mumkin. Chaqaloqni ehtiyyotsilik oqibatida almashtirib qo'yish bu jinoyat tarkibiga kirmaydi va jinoyat hisoblanmaydi.

**Yot aralashgan qarindoshlar** -aka-uka va opa singillarning otasi bir yoki onasi boshqa bo'lsa, ona bir ota boshqa bo'lsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashgan qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar o'gay hisoblanadi. Yot aralashgan aka-ukalar va opa-singillarni o'gay aka-ukalar va opa-singillardan ajrata bilish lozim. O'gaylar bir oilada yashovchi, lekin otasi ham, onasi ham bir bo'limgan bolalardir. Yot aralashgan qarindoshlik xuddi yot aralashmagan qarindoshlikdagi kabi huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

**Yot aralashmagan qarindoshlar** -aka-uka va opa-sngillar bir ota-onadan kelib chiqqan bo'salar yot aralashmagan

qarindoshlar hisoblanadilar. Yot aralashmagan qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar tug'ishgan bo'lib hisoblanadilar.

**Qaramog'ida bo'lisl** - kishini to'la ta'minlash yoki unga doimiy yordam berib turish; bunday yordam uning tirikchilik vositasining asosiy manbai bo'lmosg'i lozim. "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti" to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasida ko'rsatib o'tilgan oila a'zolari, agar ular marhumning to'liq boquvida bo'lgan yoki undan yordam olib turgan bo'lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbai hisoblangan bo'lsa, marhumning qaramog'ida turgan deb hisoblanadilar. Marhumning biron turdag'i pensiya olayotgan oila a'zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbai hisoblangan bo'lsa - boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga o'tish huquqiga egadirlar. Marhumning qaramog'ida turmagan ota-onasi va eri (xotini) ham, keyinchalik kun kechirish uchun zarur mablag' manbaidan mahrum bo'lib qolsalar, pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

**Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat)** - ota-onada qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalarni tarbiya va davolash muassasalaridan, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridan bolalarni oilaga tarbiyaga olish shakli bo'lib, bunda vasiylik va homiylik organlari bilan voyaga yetmagan bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan tutingan ota-onada o'rtaida kelishuv tuziladi.

**Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar** - alohida g'amxo'rlikka, shuningdek o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo'lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar.

**Vasiylik** - o'n to'rt yoshga to'limgan yetim bolalarni va otonasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarni himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

**Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs** - o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs.

**Ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oila** - ota-onada o'rnini bosuvchi shaxslar voyaga yetmaganlarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlayotgan yoki lozim darajada bajarmayotgan yoxud ularning xulq-atvoriga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ular bilan shafqatsiz muomalada bo'layotgan oila.

**Ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markazi** - ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o'rtaida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini hamda voyaga yetmaganlarni qabul qilish, vaqtincha saqlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va reabilitatsiyasini amalga oshiruvchi maxsus bo'linma.

**Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kolleji** - alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarga ta'lim berishni, ularning kasb-hunar tayyorgarligi va ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyasini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejiga o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish uchun alohida sharoitlarga muhtoj voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkin.

**Ixtisoslashtirilgan muktab** - alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalarga ta'lim berishni, ularning kasb-hunar tayyorgarligi va ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiyasini amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasasi hisoblanadi.

Ixtisoslashtirilgan muktabga o'n bir yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berish uchun alohida sharoitlarga muhtoj voyaga yetmaganlar joylashtirilishi mumkin.

**Nikoh** – nikoh yoshiga yetgan, qonunga muvofiq oila qurishni istagan erkak bilan ayolning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslangan, rasmiylashtirilgan, o'zaro shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan ittifoq.

**Nikoh yoshi** –bu nikohlanuvchi shaxslarning qonun doirasida belgilangan yoshga yetishlari.

**Nikoh tuzishning ixtiyoriyligi** – nikohlanuvchi shaxslarning o'zga shaxslar tomonidan majbur etilmasdan oila qurish uchun erkin, tenglik va o'zaro ixtiyoriylik asosida nikohni rasmiylashtirishlari.

**Nikoh shartnomasi** –nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo'lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuvi.

**Nikohdan ajralish** –er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarning kelajak vaqt uchun tugatilishi.

**Nikohning tugatilishi** – ma'lum yuridik faktlar tufayli er-xotin o'rtasida vujudga kelgan nikoh huquqiy munosabatlarining tugallanishi.

**Oila** –bu nikoh, er-xotinlik, farzandlar, ota-onalar hamda o'zaro qarindosh, qondosh, qarindosh bo'lgan shaxslarning umumiyo ro'zg'or, umumiyo xo'jalik yuritish hamda oiladagi maishiy-madaniy ishlarni g'amxo'rlik, o'zaro hurmat, hamjihatlik asoslarida yurituvchi shaxslar guruhi, ittifoq, xonadon hisoblanadi.

**Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning tengligi** – O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 3-moddasiga asosan barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga ega ekanliklari normalangan bo'lib, nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeい hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

**Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi** – jismoniy imkoniyatlari cheklangan (nogironlar, jismoniy nuqsoni bo'lgan hamda asab va ruhiyati buzilgan bolalar, surunkali og'ir kasalliklardan azob chekuvchi bolalar), ijtimoiy va huquqiy jihatdan

xatarli guruhlarga kiradigan bolalarni (yetimlar, ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar qarovisiz qolgan bolalar, notinch oillar bolalari), shuningdek ijtimoiy moslashuvda qiyinchilikka ega bo'lgan, biroq xatarli guruhlarga kirmaydigan alohida iqtidorli bolalarni (umumiy maxsus qobiliyatli bolalarni, xususan: sportga, badiiy, ilmiy va boshqa qobiliyatlarga ega bo'lgan bolalarni) (keyingi o'rnlarda bolalar deb ataladi) ijtimoiy moslashtirish muammolarini o'rganuvchi mustaqil tashkilot hisoblanadi.

**Soxta nikoh** –oilaviy hayotda yashashni maqsad qilmay, biron-bir mol-mulkka, boylikka, uy-joyga hamda uy-joyga doimiy ro'yxatdan o'tishni maqsad qilib tuzilgan nikoh.

**Farzandlikka olish** – ota-onha qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalarni oilaga joylashtirish shakli. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni istagan shaxslarning (shaxsning) arizasiga ko'ra, vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olishning asosliligi va farzandlikka olinayotgan bola manfaatlariga to'g'ri kelishi haqidagi xulosasi hisobga olingan holda sud tomonidan amalga oshiriladi.

**Homiylik** – o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lif berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog'lig'inining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko'ra homiylik belgilanishi mumkin.

**Er va xotinning xususiy mulki** – nikohga qadar o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulki, shuningdek, ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki.

**Er-xotinning birligidagi umumiyo mulki** –er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari, shuningdek, nikoh qayd etilgunga qadar bo'lajak er-xotinning umumiyo mablag'lari hisobiga olingan mol-mulklari.

**Oila deliktologiyasi** – oiladagi ajralishlar, kelishmovchiliklar, bolalar nazoratsizligini o'rganadi, chunki bunday salbiy hodisalar maishiy va voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi bilan bevosita bog'liqdir, oila deliktologiyasining oldini olish, oiladagi beqaror-likni bartaraf etish ularning jinoyatchilikka aylanishga yo'l qo'ymaydi. Kriminologiya jinoyatchilikning sabablari va shart-sharoitlarini, ularning jinoyatchi shaxsining shakllanishidagi o'rnni o'rganishda umumiy, ijtimoiy va yuridik psixologiyaga oid bo'lgan, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni rejalashtirish va prognozlash (avvaldan aytib berish); voyaga yetmaganlar, retsidiv, maishiy va h.k. jinoyatchilikning oldini olishni maxsus o'rganishda demografiya, sotsiologiya va politologiyaga oid ma'lumotlardan ham foydalanadi.

**Oila huquqida da'vo muddati.** Da'vo muddati – shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lgan muddatdir (FKning 149-moddasi). Da'vo muddati o'tishi davrida shaxs buzilgan subyektiv huquqini majburlash tartibi bilan tiklashi mumkin. Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergen arizasiga muvofiq qo'llaniladi (FKning 153-moddasini ikkinchi qismi). Da'vo muddati fuqarolik huquqida mulkiy huquqiy munosabatlarda juda keng qo'llaniladi bu ularni barqaror bo'lishi, shartnoma intizomini mustahkamlash undan tashqari grajdaniq oborotida qatnashuvchilarni rag'batlantirish, o'zlariga tegishli bo'lgan huquqlarini o'z vaqtida amalga oshirish, sudlarga ish bo'yicha obyektiv haqiqatni o'rnatishni yengillashtirish uchun yordam beradi. Oila huquqida da'vo muddatiga bunday katta ahamiyat berilmaydi. Oila kodeksining 12-moddasini birinchi qismida oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi, ushbu kodeks bilan belgilangan hollar bundan mustasnodir, degan umumiy qoida belgilangan oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddatini joriy qilmaslik qoidasi, har qanday buzilgan oilaviy-huquqiy munosabatni fuqarolik ish yuritish tartibi qoidasiga binoan tiklanishi mumkin. Bu oila huquqida uzoq muddat davom etadigan shaxsiy huquq bilan bog'liq bo'lib, ularni hamma vaqt himoya qilish tabiatidan kelib chiqadi. Shunday qilib, oila munosabatini ishtirokchilari amalda buzilgan oila huquqini himoya

qilishda vaqtinchalik o'tkinchi vaqt bilan cheklanmagan. Shundaylarga nikohdan ajralish talabi; nikohni haqiqiy emas deb topish talabi, otalikni belgilash talabi nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish talabi; alimentni olish huquqi uni hamma muddat davomida undirish talabi va boshqalar kiradi. Oila munosabatlarida da'vo muddati qat'iy aniq belgilangan holatlarda tatbiq etiladi. Xususan, buzilgan oila huquqlari Oila kodeksini o'zida ko'rsatilingan bo'lishi lozim. Bunday holatlar bir qancha. Birinchidan, bir yillik da'vo muddati Oila kodeksining 24-moddasi uchinchi qismida ko'rsatilingan. Er (xotin) o'zining mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er) ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligini olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziligi olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalgalash qilishga haqlidir. Ikkinchidan, uch yillik da'vo muddati OKning 27-moddasiningto'qqizinchli qismiga binoan, nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan qo'llaniladi. Bunda da'vo muddatini o'tishi ajralgan er yoki xotinni umumiy mol-mulkka bo'lgan huquqini buzilganligini boshqasi tomonidan bilgan yoki bilishi lozim bo'lgan kundan boshlanadi (OKning 12-moddasini ikkinchi qismi).

Oila huquqining prinsiplari Oila huquqi mohiyatini ochib berishda faqat uning tushunchasi, predmetining o'ziga xos xususiyati va shu Bilan birga uning eng muhim prinsiplarini ham inobatga olish lozim. Chunki uning prinsiplari huquq sohasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Oila huquqi prinsiplari deganda, ushbu huquq sohasining mohiyatini aniqlab beradigan hamma huquqiy mustahkamlanganligi sababli umumajburriy ahamiyatga esha bo'lgan asosiy negiz, rahbariy qoidalari tushuniladi. Oila huquqi prinsiplarini hisobga olmay, uning normalarini to'g'ri sharhlab va qo'llab bo'lmaydi. Oila huquqi prinsiplari nafaqat huquqni qo'llash amaliyoti uchun, balki shu Bilan birga amaldagi oila qonunchiligining mohiyatini anglash hamda uning keyingi takomillashtirilishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Oila huquqining asosiy prinsiplari quyidagilardan iboratdir: 1). Oilaning jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqi prinsipi; 2). Barcha

fuqarolar, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengligi prinsipi; 3). Hamma oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkak teng huquqligi prinsipi; 4). Hamma oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlar hamda ularning o'zaro bir-biriga g'amxo'rlik qilishi prinsipi; 5). Davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikning muhofaza etish va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qilish prinsipi; 6). Ixtiyoriy va erkin nikoh; 7). Faqat yakka nikohlilikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish prinsipi; 8). Davlat tartibi asosida nikohdan erkin ajralish prinsipi; 9). Bolalarni mustaqillik va milliy istiqlol masifikasi g'oyasi asosida tarbiyalash prinsipi.

**Oilaviy advokat** -manfaatlari qarama-qarshi bo'limgan bir oila a'zolariga shartnomaga asosida doimiy huquqiy yordam ko'rsatadigan advokat. Oilaviy advokat oila a'zolarining o'zaro mulkiy va mulkiy bo'limgan huquqlari yuzasidan doimiy ravishda xabardor bo'lib borib, oilada yuzaga kelgan masalalar yuzasidan huquqiy maslahatlar, qonunchilik yuzasidan ma'lumotnomalar beradi. Ushbu huquqlarini amalga oshirish yuzasidan lozim bo'lganda bitim va boshqa hujjatlar loyihasini tuzadi. Agar shartnomada kelishilgan bo'lsa, oila a'zolarining ishonchnomasi va advokatlik orderi bilan davlat va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarida, ma'muriy va fuqarolik, jinoyat sudlarida oila a'zolarining manfaatlari yuzasidan vakillikni amalga oshirishi yoki surishtiruv, dastlabki tergov va sudda himoyachi sifatida qatnashishi mumkin. Amaldagi qonunchilikka muvofiq oila a'zolari o'rtaida qarama-qarshilik bo'lgan ishlari yuzasidan agar ilgari har ikki tomonga huquqiy yordam ko'rsatgan bo'lsa, biror bir tarafda ishtiroy etishga haqli emas. O.a. oilaning har bir a'zosiga yuridik yordam ko'rsatishi munosabati bilan o'ziga ma'lum bo'lgan oila a'zolariga tegishli barcha ma'lumotlarni sir saqlashi shart.

**Oqsoq nikohlar** – xalqaro xususiy huquqda bir mamlakatda tuzilgan nikohni ikkinchi mamlakatda huquqiy jihatdan tan olinimasligining oqibatlari oqsoq nikohlar chet el elementi bilan murakkablashgan oilaviy munosabatlarni kollizion huquqiy tartibga solishda hududiylik tamoyilini qo'llanilishining salbiy oqibatlari hisoblanadi. Oqsoq nikohlarning paydo bo'lishi er-xotin o'rtasidagi

mulkiy va shaxsiy nomulkiy ota-onaldar va farzandlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni amalda yetarli tarzda huquqiy tartibga solinishini murakkablashuviga olib keladi. Xalqaro xususiy huquq qonunchiligining 80-90 yillarda amalga oshirilgan kodifikatsiyai natijasida oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishdagi xududiylik tamoyilidan voz kechilishi hamda tegishli chet el huquqiy normalarini e'tiborga olinishi natijasida oqsoq nikohlarni paydo bo'lishiga barham berildi.

bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqiga ega. O'zaro nikohda bo'lman voyaga yetmagan ota-onalaridan brola tug'ilganda hamda ularning onaligi va (yoki) otaligi belgilangandao'n olti yoshga to'lishlari bilan ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar. Voyaga yetmagan ota-onalar o'n olti yoshga yetgunga qadar bolshani voyaga yetmagan ota-onalar birmalikda tarbiyalash uchun bolaga vasiy tayinlanishi mumkin. Bolaning vasiysi bilan voyaga yetmagan ota-onalar o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi tomonilan hal etiladi. Voyaga yetmagan ota-onalar o'z otaligi va onaligini umumiy asoslarda e'tirof etishi yoki unga e'tiroz bildirish huquqiga ega.

**Patronat** – ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladn tarbiya va davoalash muassasalarida, shuningdek, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi. Bolalarni oilaga tarbiyaga olishni istagan shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishilgan holda bolalarni oldindan tanlab oladi. Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin. Bolalarni oilaga tarbiyaga berish tartibi va shartlari qonun hujatlari bilan belgilanadi. Quyidagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi: A) yetim bolalar; B) ota-onasi noma'lum bo'lgan yoki tashlab ketilgan bolalar; V) ota-onasi, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan, sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilgan, bedarak yo'qolgan deb e'lon qilingan, ozodlikdan mahrum qilingan bolalar; G) sog'lig'iga ko'ra farzandlarining tarbiyasi va ta'minoti bilan shaxsan shug'ullana olmaydigan ota-onalarning bolalari; D) ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan, tarbiya va davolanish muassasalaridagi, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash va shunga o'xshash muassasalardagi bolalar. Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar vasiylik va homiylik organlari tomonidan aniqlanadi va hisobga olinadi. Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ota-onalar qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning boshqa shakllaridan farq qiladi. Bolani olaga tarbiyaga berish farzandlikka olshdan o'zining shartnomaviy va vaqtinchalik ekanligi hamda o'zaro ta'minot berish majburiyati

vujudga kelmasligi bilan, vasiylik va homiylikdan esa, munosabatlarn rasmiylashtirish usuli bilan farq qiladi.

**Chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lman shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish.** O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lman shaxslar uning xududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalananilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar. Chet el fuqarolari O'zbekiston xududida O'zbekiston fuqarolari foydalilanadigan huquq layoqati teng ega bo'lganlari kabi nikoh layoqatiga ham egadirlar. Nikohlanuvchi chet el fuqarosi O'zbekiston qonunida belgilangan nikoh yoshiga yetmagan O'zbekiston fuqarosi bilan nikohdan o'tishi mumkin emas.

**Ota-onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari.** Amaldagi Oila kodeksining 71-moddasiga muvofiq, ota-onalar o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar (ota-onalik huquqlari). Ota-onalik huquqlari bolalarning dunyoga kelishloariga asoslanib, tegishli qonun Bilan belgilangan tartibda bola tug'ilganligi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida qad etilishiga asoslanadi. Ma'lumki, ota va onalarning o'z bolalariga nisbatan teng huquqli bo'lishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida nazarda tutilgan xotin-qizlar vaerkaklarning teng huquqliligiga asosolanadi. Ko'rinish turibdiki, bola haqida g'amxo'rlik qilish, unga ta'lif-tarbiya berish ota-onalar uchun faqat ahloqiy qoida bo'lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burch hamdir. Demak, ota-onalik huquqini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda otava ona o'z bolalariga nisbatan teng huquqdan foydalananilar va teng majburiyatni o'z zimmalariga oladilar. Shuningdek, ota-onalik huquqini amalga oshirishda teng huquq va majburiyatga ega bo'lish Oila kodeksining asosiy prinsiplaridan bo'lgan oilaviy munosabatlarda er va xotining teng huquqligidan kelib chiqadi. Aga rota-onalar bolalari bilan birga yashasalar, u holda qoida asosida ota-onalarining huquqlarini amalga oshirish masalalari (chunonchi, bolaning o'qishish joyini tanlash va boshqalar) er-xotinlarning ikkalasi bilan hal qilinadi. Demak, ota-onalik huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq hamma masalalar er va Xotin tomonidan birgalikda kelishilgan holda hal

etiladi. Oila kodeksi birinchi marotaba ota-onalik huquqlarini voyaga yetmagan ota-onalarga berilishini belgilaydi. Unda boshqa yangiliklar to'g'risida so'z yuritilib, ota-onalarning huquqiy maqomini yuqori ko'targan holda, ularning o'z bolalariga nisbatan huquq va majburiyatlarini aniqladi. Voyaga yetmagan ota-onsa o'z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqiga ega. O'zaro nikohda bo'lmanan voyaga yetmagan ota-onsa ulardan brola tug'ilganda hamda ularning onaligi va (yoki) otaligi belgilangandao'n olti yoshga to'lishlari bilan ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalgalashga haqlidirlar. Voyaga yetmagan ota-onsa o'n olti yoshga yetgunga qadar bolshani voyaga yetmagan ota-onsa birgalikda tarbiyalash uchun bolaga vasiy tayinlanishi mumkin. Bolaning vasiysi bilan voyaga yetmagan ota-onsa o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi. Voyaga yetmagan ota-onsa o'z otaligi va onaligini umumiy asoslarda e'tirof etishi yoki unga e'tiroz bildirish huquqiga ega.

**Ota-onalik huquqining cheklanishi.** Amaldagi Oila kodeksining 83-moddasiga binoan, sud bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda, ota-onari ota-onalik huquqidan mahrum qilmay turib, bolani ota-onadan (ulardan biridan) olish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi (ota-onalik huquqini cheklashi) mumkin. Bunda sud avvalo bolaning manfaatini hisobga oladi. Ota-onalik huquqini cheklash faqat bolaning ota-onasi (ulardan biri)ga nisbatan qo'llaniladi. Ota-onsa o'rnini bosuvchi shaxslar (farzandlikka oluvchilar, vasiylar, homiylar, tarbiyaga oluvchilarga nisbatan joriy qilinmaydi). Ota-onaning yoki ulardan birining hulq-atvorida bola tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfi tug'ilsa, ammolarni ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun yetarli asos bo'lmasa, bunday holda bolani ota yoki ona bilan qoldirmasdan ota-onalik huquqi cheklanishi mumkin. Bolalar huquqi va ularning manfaatlarini hisobga olib ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida ishlar albatta, prokurorning ishtirokida, shuningdek, vasiylik va homiylik organining qatnashuvida ko'rishi shart. Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risida hal qiluv qarori chiqishi Bilan birga voyaga yetmagan bolaning ta'minoti uchun mablag' undirish masalasi ham sud tomonidan hal qilinishi kerak.

**Otalikni sud tartibida belgilash.** Otalik hamma vaqt ham ixtiyorli ravishda belgilanavermaydi. Nikohsiz tug'ilgan bolaning otasi undan voz kechib, otalikni qayd etishni inkor etadigan hollar ham bo'ladi. Bunday holatda bolalar manfaatini himoya qilib, sud tartibida otalikni belgilashga yo'l qo'yiladi. Oila kodeksining 62-moddasiga binoan, otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiyisi)ning yohud bola kimning qaramog'ida bo'lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek, bola voyaga yetmaganidan keyin uning o'zi bergen arizasiga muvofiq amalgalashga oshiriladi. Otalikni belgilash bilan bog'liq masalalar da'vo ishini yuritish tartibida ko'rildi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi. 2016-yil 8-dekabr.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // Xalq so'zi.2017-yil 15-yanvar.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olıyanob xalqımız bilan quramiz.-Toshkent: O'zbekiston, 2017-yil. 91-b.
5. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi (Nyu-York, 2017-yil 19-sentabr)// Xalq so'zi. 2017-yil 20-sentyabr.
6. Sh.M.Mirziyoyev. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi // Xalq so'zi. 2022-yil 21-dekabr.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: 2021. 460 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -Toshkent: "O'zbekiston", 1998.
10. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. -Toshkent: "O'zbekiston", 1999.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. – Toshkent: "O'zbekiston", 1998.
12. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – Toshkent: "O'zbekiston", 2000.
13. Karimov I.A. "Yangicha fikrlash va ishlash. – davr talabi" – Toshkent: "O'zbekiston", 1997. – 384 b.
14. Karimov I.A. "Olloq qalbimizda, yuragimizda". – Toshkent: "O'zbekiston" 1999. – 47 b.
15. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy-iijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – Toshkent, "O'zbekiston", 1995, 46 b.
16. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblar – Toshkent, "O'zbekiston", 2000, 40 b.
17. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiysi. Toshkent: Ishonch gazetasi, 2010 yil.13-noyabr.
18. Imomov N.F., Babayev J.I., Shorahmetova U.Sh., Topildiyev B.R. Oila huquqi. Darslik. Toshkent davlat yuridik universiteti, 2016.
19. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. –Toshkent: 2021, 250 b.
20. Baratov M.X. va boshqalar. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. – Toshkent: 2022.
21. Yo'ldosheva Sh.R., Isroilova G.R., Akayeva N.M. Oila huquqi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Cho'lpox, 2013.
22. Ro'ziyev R.J., Topildiyev V.R., Choriyev M.Sh. Fuqarolik va oila huquqi. Darslik. – Toshkent. 2022, 639 b.
23. Inomjonova G.S. Ota-onva bolalar huquqlarini himoya qilish muammolari. – Toshkent: Adolat, 2006,-134 b.
24. Otaxo'jayev F.M. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. – Toshkent: O'zbekiston, 1995.
25. Otaxo'jayev F.M. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va oila. - Toshkent: TDYUI, 2002. – b.32.
26. Otaxo'jayev F.M. Er-xotinning shaxsiy huquqlari va majburiyatlari. - Toshkent.: 1998
27. Esanova Z. Farzandlikka olish moddiy va protsessual jihatlar. 2010
28. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. 2022. – Toshkent: Adolat, 2018.
29. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Rasmiy nashr – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2018.
30. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh. (2-jild). 2013.
31. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga sharh. (3-jild). 2013.
32. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi. 1-qism. 2017.

33. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2007-y., 3-son, 20-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.

34. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni (Yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son.

35. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son.

36. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son; 03.01.2024-y., 06/24/221/0003-son.

37. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи "Ma'nnaviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5040-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021-y., 07/21/5040/0243-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.12.2022-y., 06/22/258/1064-son; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son.

38. Mualliflar jamoasi. Fuqarolik huquqi (yuridik texnikumlar uchun darslik) 2021.

39. Oila va nikoh munosabatlaridan kelib chiquvchi nizolar bo'yicha sud amaliyoti // Sudalar uchun amaliy qo'llanma. – Toshkent: 2015.

40. Xotin-qizlar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida Konvensiya, Toshkent-1998. (lex.uz. Norasmiy tarjima)

41. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. YUNESKO 1995-yil 16-noyabr, Parij. (nrm.uz)

42. Otaxo'jayev F.M. Nikoh va ajralish – Toshkent. 1991, 74-bet // "Xalq so'zi", 1991-yil 19-iyul.

43. Munavvarov A. Oila pedagogikasi – Toshkent: "O'qituvchi", 1994.

44. Karimova O.A. Qonun, oila, farzand va jamiyat- Toshkent, 2002.

45. Karimova O.A. Oila huquqi / Ma'ruza matni. TDPU. 2009.

46. Karimova O.A. Oila huquqi asoslari/ O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2008. 116 b.

47. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2000

48. Xayitov X.X. Ota-onalik huquqidан mahrum qilishning huquqlari asoslari. 2013.

49. Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent: "Ma'nnaviyat", 2000.

#### Internet saytlari:

1. Lex.uz.
2. Books.uz.
3. Stat.uz.
4. Natlib.uz.
5. Diss.natlib.uz.
6. Stul.uz.
7. Manaviyat.gov.uz.
8. Ziyo.net.
9. <http://kh-davron.uz/kutubxona/uzb>.
10. <http://regulation.gov.uz>.
11. [www.zamonaviy.com](http://www.zamonaviy.com).

**M.X. BARATOV  
F.A. IBROXIMOV**

## **OILA HUQUQI**

*O'quv qo'llanma*

Muharrir:	X.Taxirov
Tehnik muharrir:	S.Melikuziyeva
Musahhih:	M.Yunusova
Sahifalovchi:	A.Ziyamuhamedov

**Nashriyot litsenziya № 2044, 25.08.2020 й**  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/16. "Cambria" garniturasi, kegli 16.  
Offset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 13.25. Adadi  
100 dona. Buyurtma № 1412043

**Nazokathon ziyo print MCHJda chop  
etildi.**

